

ZUXRA UMAROVA

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
KONFLIKTOLOGIYA**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Zuxra Umarova

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
KONFLIKTOLOGIYA**

(60110500 - "Boshlang'ich ta'lim" bakalavr yo'nalishi
uchun Darslik)

Toshkent
«Yangi chirchiq prints»
2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

k
5
k
5
k
1
8
ni
0
ni
6
ni
6
ig
8
ni
9
ni
'6
ni
18
ni
38
ni
35
ni
30
ni
16
ni
22
26
27
30
31

- 14129/17-

UO'K 373;373.167.1

KBK 74.202.2

U-42

Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'limda konfliktologiya [Darslik]:
– Toshkent. Yangi chirchiq prints – 2023.- 134 bet.

Mas'ul muharrir:

Mardonov Shukurullo Quldashevich - *pedagogika fanlari*
doktori, professor.

Taqrizchilar:

Jumanova Fotima Uralovna - *pedagogika fanlari nomzodi,*
dotsent.

Jabborova Onaxon Mannapovna - *pedagogika fanlari bo'yicha*
falsafa doktori (PhD).

Mazkur darslik namunaviy Dastur asosida ishlab chiqilgan tanlov fani ishchi-o'quv dasturiga binoan shu sohada yozilgan birinchi o'quv adabiyoti bo'lib, unda boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish nazariyasi, texnologiyasi va amaliyoti yoritilgan. Darslikni tuzishda o'qitishning kredit-modulli tizimi talablariga tayanilgan va eng maqbul texnologiyalar taqdim etilgan.

Darslik talabalar, professor-o'qituvchilar, mutaxassislar, amaliyotchi o'qituvchilar va boshlang'ich ta'lim muammosi bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Darslik Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentyabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-9965-4-2

Mundarija

Kirish

1-Modul. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarning nazariy-metodik masalalari	5
1-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlar.....	5
2-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni o'rganish metodologiyasi.....	11
3-mavzu: Boshlang'ich sinflarda konfliktogenlar.....	18
4-mavzu: Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish masalalari.....	30
2-Modul. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyalari	46
5-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning hamkorlik texnologiyasi.....	46
6-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarning bartaraf etishning elektron-modulli texnologiyasi.....	58
7-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi.....	69
8-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muloqot texnologiyasi.....	76
3-Modul. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish amaliyoti	88
9-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila bilan hamkorlik.....	88
10-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda jamoatchilik hamkorligi.....	95
11-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish.....	100
12-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislardan foydalanish.....	116
13-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining o'rni.....	122
Amaliy mashg'ulotlar uchun mavzular.....	126
Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.....	127
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	130
Lug'at.....	131

Kirish

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da boshlang‘ich ta‘limni sifatli rivojlantirish va uning samaradorligiga erishish vazifalari qo‘yilgan. Bunda boshlang‘ich ta‘limga xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy etish, professional boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta‘limning keyingi bosqichlariga yo‘naltirish masalalariga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida boshlang‘ich ta‘lim jarayonida yangi o‘quv dasturlari va adabiyotlarini joriy etish dolzarb bo‘lib turibdi. “Boshlang‘ich ta‘limda pedagogik konfliktlar” o‘quv dasturi ana shunday yangi fan asoslaridan biri bo‘lib, u asosida yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish taqoza etiladi. Mazkur darslik “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” o‘quv fanining Namunaviy dasturi asosida tuzilgan Ishchi-o‘quv dasturiga binoan tuzildi va yangi ehtiyojlarning hosilasi sifatida tayyorlandi.

Darslikni tayyorlashda boshlang‘ich ta‘limda pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etishning nazariyasi, texnologiyasi hamda amaliyoti masalalariga asosiy e‘tibor qaratildi. Bu o‘rinda oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakasini tarkib toptirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Chunki ta‘lim va tarbiya jarayonidagi pedagogik konfliktlar bilan ishlashda o‘qituvchining nazariy, texnologik va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishi taqoza etiladi.

Darslikni tayyorlash jarayonida pedagogik konfliktlar bo‘yicha e‘lon qilingan o‘quv adabiyotlarining eng maqbul yondashuvlari, qulay va oson texnologiyalar hamda metodikalarga diqqat qilinib, ijodiy foydalanildi.

Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish sharoitida ta‘limning turli shakllaridan foydalanish amal qilmoqda. Shu sababli darslikni tuzishda ta‘limning oflayn, onlayn va mustaqil ta‘lim shakllari talabalari ham hisobga olindi. Darslikdan foydalanishda undagi materiallarga ijodiy va erkin yondashish tavsiya etiladi.

Darslik boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha yangi avlod o‘quv adabiyotlari sarasiga kiradi va shu sababli u to‘g‘risidagi fikr-mulohazalaringizni Chirchiq davlat pedagogika universitetida kutib qolamiz.

1-Modul. Boshlang‘ich ta‘limda pedagogik konfliktlarning nazariy-metodik masalalari

1-mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlar

Reja:

1. “Konfliktologiya” tushunchasining mazmuni.
2. Boshlang‘ich ta‘limda pedagogik konfliktlar muammosi.
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlari.

Tayanch tushunchalar:

Ta‘lim, boshlang‘ich, pedagogika, konflikt, tushuncha, bilim, ko‘nikma, malaka.

“Konfliktologiya” tushunchasining mazmuni. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da qo‘yilgan vazifalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining universal bilim va metodikaga ega bo‘lishini taqoza etadi. Shu ma’noda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik konfliktologiya bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda konfliktologiya tushunchasining mazmuniga e‘tiboringizni tortamiz.

“Konfliktologiya” atamasi lotincha bo‘lib, o‘zbek tilida quyidagi ma’nolarni anglatadi:

- 1) ziddiyat;
- 2) mojaro;
- 3) kelishmovchilik;
- 4) o‘zaro tushunmovchilik.

Bu ma’nolar atamaning mazmunini to‘liq ifodalasada, biroq pedagogik va psixologik qonuniyatlarga asosan *ziddiyat* tushunchasini qabul qilish metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Chunki ziddiyat ma‘lum bir ta‘lim muhiti, vaqti va sharoitlarga mos ravishda yuzaga keladigan anglashilmovchilikni bildiradi,

unda salbiy ma'noga nisbatan ijobiylik xususiyati bo'rtib turadi. Shu sababli mazkur ziddiyat tushunchasini konfliktologiya atamasining muqobili sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayni paytda, mazkur atamaning mojaro, kelishmovchilik va o'zaro tushunmovchilik ma'nolarida nisbatan salbiy xususiyat ko'zga tashlanadi. Konfliktologiyaning turli fanlar bo'yicha o'ziga xos nazariyalari mavjud. Shu jihatdan konfliktologiyaning pedagogik nazariyasida tushunchalarning ta'limiy, tarbiyaviy va metodik ahamiyatga ega ma'nolari hisobga olinishini eslatib o'tish kerak. Bizning yondashuvimizga ko'ra, konfliktologiya tushunchasini ana shunday xususiyatlarga ega ma'nolar bilan atash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar o'tkinchi xarakterga egaligi bilan diqqatni tortadi. Umuman "ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik konfliktlar" deganda tomonlarning vaqtinchalik o'zaro ziddiyatga duch kelishini tushunish metodik jihatdan to'g'ridir.

Keyingi besh yildavomidamamlakatimizdakonfliktologiya tushunchasining falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik ma'nolari bo'yicha bir talay yondashuvlar, qarashlar hamda tahlillar amalga oshirilganligini eslatib o'tish joiz. Bu tahlillarda konfliktologiya tushunchasining mazmuni muayyan fan vakili bo'lgan muallifning nuqtai nazarini ifodalaydi. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida konfliktologiya tushunchasining *pedagogik mazmunga* ega ma'nolarini qo'llash tavsiya etiladi.

Xorijlik ko'pgina konfliktolog-pedagog olimlar oxir-oqibatda tushunchalarning ma'nosini ifodalashda pedagogik mazmunning ustuvor bo'lishini tavsiya etishadi. Bu hol bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari konfliktologiya tushunchasining ma'nolarini aniqlash va belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi:

- 1) pedagogik mazmunning ustuvor bo'lishi;
- 2) ta'lim va tarbiyaning xususiyatlari hisobga olinishi;
- 3) ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar bartaraf etish xususiyatiga ega bo'lishini e'tiborga

olish.

Bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan konfliktologiya tushunchasining pedagogik ma'nolarini anglab olinishida tayanch vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar muammosi. Boshlang'ich ta'lim mamlakatimiz milliy ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri sifatida va real sharoitlarda amalga oshirilishi bilan pedagogik konfliktlar muammosiga duch kelinadi. Shu sababli bu muammo tabiiy tushunilishi kerak. Bunda quyidagilarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

1. *Konfliktlarning turlari.* Konfliktologiyaning yirik uch ko'rinishi: ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy turlari mavjud. *Ijtimoiy* konflikt turlari shaxs axloqi, ongi va maqsad-muddaolariga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. *Iqtisodiy* konflikt turlari esa shaxsning yaratuvchilik, ijodkorlik va jamiyatning farovonlik negizlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuidir. *Siyosiy konfliktlar* ko'p hollarda siyosiy partiyalar va davlatlararo ziddiyatlar ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, ta'lim va tarbiya jarayonida ijtimoiy konflikt turlari muhim o'rin tutadi va ularning turli ko'rinishlari, shakllari hamda omillari 7-11 yoshli boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik, bilimdonlik va ko'nikuvchanlik malakalariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisa hisoblanadi. Shu jihatdan biz mazkur darsligimizda konfliktlarning ijtimoiy xarakterdagi turlariga asosiy e'tiborni qaratamiz.

2. *Konfliktlarning ko'rinishlari.* Konfliktlarning ikki muhim: ichki va tashqi ko'rinishi mavjud. *Ichki* konfliktlar muayyan muhitda yaqin kishilar o'rtasida yuzaga keladi. *Tashqi* konfliktlar esa tashqi kuchlar ta'sirida yuzaga kelib, shaxs hayotiga daxl qiladi.

Ichki konfliktlar ko'p hollarda ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladi. Misol uchun, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi nizolar, o'quvchi va maktab jamoasi orasidagi

kelishmovchiliklar ichki konfliktlarning muhim ko'rinishidir.

Tashqi konfliktlar ongli ravishda ba'zi shaxslar tomonidan paydo qilinadi. Misol uchun, ongi rivojlanishda bo'lgan o'quvchilarni ba'zi din vakillari tomonidan dinga majburlashi, katta yoshlilarning o'quvchi va o'qituvchi o'rtasiga nifoq solishi, nosog'lom oilalardagi muhitning o'quvchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi kabilar tashqi konfliktlarning yaqqol ko'rinishidir.

3. *Konfliktlarning xususiyatlari.* Bizning tahlillarimiz natijasiga ko'ra, konfliktlarning ikki muhim: o'tkinchi va doimiy xususiyatlari mavjud. Unga binoan o'tkinchi xususiyatga konfliktlar muddatli va makonda ro'y beradi. Misol uchun, ta'lim muassasalarida o'quvchilararo ro'y beradigan konfliktlar o'tkinchi xususiyatga egadir. Doimiy xususiyatga ega konfliktlar muddatsiz bo'lib davomiy va izchil xarakterga ega bo'ladi. Misol uchun, katta yoshli shaxslar, tadbirkorlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi konfliktlar doimiy xususiyatga ega bo'ladi.

Pedagogik nuqtai nazardan o'tkinchi xususiyatga ega konfliktlar xarakterli bo'lib, ularni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Doimiy xususiyatga ega konfliktlarning salbiy xususiyatlari esa "Sotsiologiya" va "Politologiya" fanlari vositasida susaytiriladi.

4. *Konfliktlarning darajasi.* Konfliktologiya nazariyasida konfliktlarning darajasi belgilangan emas. Bizning kuzatishimizga ko'ra, konfliktlarning kichik va yirik ko'lamlari mavjud. Ularning kichik ko'lami shaxslar o'rtasida yuzaga keladi, yirik ko'lami esa ko'p hollarda muayyan davlatlar o'rtasida paydo bo'ladi. Bunday yondashuv konfliktlarning ta'sir kuchini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkonini beradi. Shu sababli muayyan konfliktlarning ko'lamini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning mazkur yondashuvimiz Konfliktologiya nazariyasiga mosdir. Politolog olimlar R.Jumayev, B.O'tanov konfliktologiya masalasida individual yondashuvlarning muhim o'rin tutishini ta'kidlab o'tishadi.¹ Xorijlik olimlar S.Banykina, V Gracheva konfliktlarni o'rganish va ularni maktab sharoitida

¹ Jumayev R., O'tanov B. Konfliktologiya asoslari. -T., 2015 14-bet

boshqarish mumkinligini ta'kidlab ko'rsatishadi.² Ushbu olimlarning tadqiqotlarida konfliktlarni pedagogik nuqtai nazardan o'rganish va tahlil qilish yondashuvlari bayon qilingan.

Bu yondashuvlar boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar muammosini to'g'ri idrok etish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlari. Boshlang'ich ta'limda va o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlari umumiy xususiyatlarga ega ekanligini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor berib:

1. *Ta'limiy xarakterga egaligi.* Pedagogik konfliktlar eng avvalo ta'lim va tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, u aynan ta'lim jarayonida bilim olish, tarbiyalanish hamda odatlanish voqeligida yuzaga keladi. Shu sababli pedagogik konfliktlar ta'lim, tarbiya va faoliyat voqeligida yuzaga keladigan ziddiyatlar hisoblanadi.

2. *Muddatli xarakterda bo'lishi.* Pedagogik konfliktlar muddatli (vaqtga ega) xususiyatga ega bo'lib, ular kelib chiqishi va oqibatlari nuqtai nazaridan nisbatan o'tkinchi ziddiyatlardir. Chunki ularning paydo bo'lishida ichki va tashqi omillar, zamon va makon ta'sirlari bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlar muayyan ko'rinishlar, shakllar va turlarga xos tarzda yuzaga keladi, vaqt va makon ta'sirida ular susayishi yoki ko'payishi mumkin.


3. *Shaxslar o'rtasida kechishi.* Pedagogik konfliktlar ta'lim ishtirokchilari: o'quvchi va o'qituvchi (murabbiy), o'quvchi va o'quvchi, o'quvchi va ota-ona, o'quvchi va maktab jamoasi o'rtasida kechadigan ziddiyatlardir. Shu jihatdan bu hodisa aniq ob'ektlarga ega bo'lib, uning darajasi va oqibatlari shaxslarga bog'liq bo'ladi.

4. *Bartaraf etish omiliga egaligi.* Pedagogik konfliktlar ta'limiy, muddatli va shaxslar o'rtasida kechishi xususiyatlariga egaligi bilan bartaraf etish faktori mavjud bo'ladi. Chunki pedagogik konfliktlarda zo'ravonlik, kuch ishlatish yoki tahdid

² Qarang: Banykina S. Konflikt v sovremennoy shkole: izuchenie i upravlenie. -M., 2006. Gracheva V Vvedenie v pedagogicheskuyu konfliktologiyu. -M., 2004 va h.k.

xususiyatlari bo'lmaydi, aksincha, ularda o'qish, o'rganish, o'zlashtirish va ko'nikish xususiyatlari bor bo'lganligi uchun bartaraf etish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar muammosi bo'yicha quyidagilarni idrok etish kerak. E'tibor bering:



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlar muammosi bo'yicha ana shu ko'nikmalarining o'zlashtirilishi taqoza etiladi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida ta'kidlanganlarning o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. "Konfliktologiya" tushunchasining mazmunini nimalar tashkil qiladi?
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar muammosi deganda nimani tushunasiz?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlari bo'yicha qanday ko'nikmalarni o'zlashtirish kerak?

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan asosiy pedagogik konfliktlar turlarini konspekt qiling va o'zlashtiring.

2-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni o'rganish metodologiyasi

Reja:

1. Pedagogik konfliktli holat.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan konfliktli vaziyatlar bo'yicha ishlash.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, o'quvchi, konflikt, vaziyat, o'rganish, bilim, ko'nikma, malaka.

Pedagogik ilmiy tadqiqotchiligidimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganish metodologiyasi ishlab chiqilish jarayonida ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu sababli bu borada olimlar tomonidan bir necha yondashuvlar bayon qilib borilmoqda. Mazkur o'rinda biz tomonimio'dan ishlab chiqilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganish metodologiyasi variantiga e'tiboringizni tortamiz.

Pedagogik konfliktli holat. Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'qitish, o'qish, tarbiya, o'quvchilar va o'qituvchilar munosabablari, o'quvchilar va maktab jamoasi aloqalaridan iborat. Shu sababli bu jarayonda pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishini tabiiy qabul qilish lozim. Bu o'rinda pedagogik konfliktli holat tahliliga diqqatingizni tortamiz.

"Pedagogik konfliktli holat" deganda ta'lim va tarbiya jarayonidagi turli ziddiyatli vaziyatlar tushuniladi. Shu sababli bunday holatlarning sababi, omillari va ularning keltirib

chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlariga e'tibor qaratiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchisi yosh xususiyatiga mos ravishda biror o'qituvchiga salom bermay o'tishi mumkin. Bunday holatda ko'pincha o'qituvchi darhol tanbeh beradi. Biroq, o'quvchining salom bermaganlik holatlariga e'tibor berish o'ransiz konfliktlarning oldini olishini eslatib o'tish joiz. Shu sababli pedagogik konfliktli holatlarda quyidagicha yo'l tutish tavsiya etiladi:

1) konfliktli holatlarning yuzaga kelgan vaziyatlariga e'tibor berish;

2) o'qituvchi tomonidan konfliktli holatda pedagogik etika qoidalariga rioya qilinishi;

3) konfliktli holatlarda imkon qadar jazolash chorasidan voz kechish.

Bunday yo'l tutish konfliktli holatlarning sabab va oqibatlarini to'g'ri aniqlashga hamda unga ongli munosabatda bo'lishga olib keladi. Chunki pedagogik konfliktlarning asosiy ildizi konfliktli holatlarda bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik konfliktli holatlar maktab muhitida tez-tez uchrab turadigan "jonli" vaziyat hisoblanadi.

Pedagogik konfliktli holatlar bo'yicha o'qituvchilar va Sinf rahbarlarining aniq tushunchalarga ega bo'lishi taqozo etiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, milliy ta'lim-tarbiya jarayonimizning hozirgi rivojlanish holati bir necha yo'nalishlarda maktab jamoasining o'zigi xos tushunchalarga ega bo'lishini zaruriyat darajasida ko'rsatmoqda. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlari konfliktli holatlar bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun maqsadli ravishda mutaxassis ishtirokida suhbatlar yoki treninglar o'tkazib borish amaliy samarani beradi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik konfliktli holatlar bo'yicha kasbiy ko'nikmani egallashi dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli pedagogik turkumdagi o'quv fanlarida keyingi paytlarda pedagogik konfliktlar bo'yicha tushunchalar berishga asosiy

e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda, talabalar mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda pedagogik konfliktli holatlar bo'yicha ko'nikmalarni egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun konfliktologiyaga oid o'quv adabiyotlari bilan tanishish kutilgan samarani beradi. Shuni eslatib o'tish joizki, adabiyotlarni o'qish birinchi bosqichdagi mutolaa hisoblanadi, bunda asosiy bosqich o'qilgan adabiyotlarni konspekt qilishdan iborat. Konspekt talaba uchun yordamchi xotira mabaidir. Shu sababli bunday tajribalarni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi tarkibiga kirishini eslatib o'tish joiz.

Pedagogik konfliktli holatlar aslida o'qituvchilar jamoasi va sinf rahbarlarini motivasiya qiluvchi jarayon ham hisoblanadi. Chunki bunday holatlar muayyan muammoni hal etishga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muntazam ravishda pedagogik konfliktlarning uchrab turishini ta'kidlab o'tish joiz. Bunda o'quvchilarning yosh, jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan rivojlanish jarayonida bo'lishi muhim o'rin tutishini e'tiborga olish kerak. Shu sababli yaqqol namoyon bo'layotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavjud pedagogik konfliktlarni aniqlab borish masalasi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari va Sinf rahbarlari quyidagilarga e'tibor berishi muammoni hal etishning muhim asosi hisoblanadi:

1) o'quvchi shaxsini o'rganish;

2) o'quvchining oilasini o'rganish;

3) o'quvchi doimiy muloqotda bo'ladigan eng yaqin guruhini o'rganish.

O'quvchi shaxsini o'rganishda uni konfliktga majbur qilayotgan muammolar, vaziyatlar va holatlar aniqlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'quvchisi o'zlashtirish jarayonida murakkablikka duch kelganida beixtiyor ravishda konfliktlarga boradi. Misol uchun, o'quvchi xarakterida o'zgarish bo'ladi, o'zgalarga munosabatida

qo'pollik yuzaga keladi va barchaga ishonchsizlik bilan qaray boshlaydi. Shu sababli o'quvchi shaxsini o'rganishda o'quvchi to'liq ishonadigan o'qituvchining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun pedagogik jamoaning ittifoqligiga zaruriyat seziladi.

Konfliktga yo'l qo'ygan o'quvchining oilasini o'rganishda oiladagi vaziyat va muammolar, oiladagi muhit va oila a'zolarining o'zaro munosabatlariga ahamiyat beriladi. Eslatib o'tish joizki, mamlakatimizda oilalarning bir necha turlari mavjud. Bunday turlarning asosiylari to'liq oila (ota-ona bor), to'liqsiz oila (yolg'iz ota yoki yolg'iz ona), murakkab oila (ota-ona, bobo-buvi, aka-ammalar bor) va bola tarbiyalanayotgan oila (bunda bola tarbiya muassasasidan olingan bo'ladi). Oilalarning bunday murakkab turga ega bo'lishi ularni o'rganishni qiyinlashtiradi. Shu sababli o'quvchi ishonadigan va yoqtiradigan oila a'zosi bilan ish olib borish metodik jihatdan samarali hisoblanadi.

Konfliktga ega o'quvchining eng yaqin guruhini ham o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchi ko'proq bo'ladigan bolalar guruhining holati, tarkibi va ularning axloq-odoblariga e'tibor qaratiladi. Natijada o'quvchida konfliktlarni paydo qiluvchi muhim ma'lumotlarga ega bo'linadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlashning muhim tizimi mavjud. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik konfliktlarni aniqlash bo'yicha ko'nikmani egallashi taqoza etiladi.

Eslatib o'tish joizki, boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni aniqlab borish o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga munosib tayyorlashning omillaridan biri ham hisoblanadi. Chunki aynan boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan pedagogik tadbirlar ta'limning keyingi bosqichlari uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan konfliktli vaziyatlar bo'yicha ishlash. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan konfliktli vaziyatlar bo'yicha ishlashda turli usullar va uslublarga tayanish

kutilgan samarani beradi. Bunday usullarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) o'quvchilarni kuzatish usuli;
- 2) mutaxassislar bilan hamkorlik usuli;
- 3) muntazam ravishda yangiliklarni taqdim qilib borish usuli.

O'quvchilarni kuzatish usuli ularning bilim olishga qiziqishini, xatti-harakatini va maqsad-muddaolarini o'rganib borishga asoslanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, kuzatilayotgan o'quvchi kuzatish jarayonida ekanligini sezmasligi kerak. O'quvchilarni kuzatish usulidan foydalanilganda xolislik metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki kuzatuvdagi o'quvchi bu holni sezsa, unda salbiy munosabat yuzaga keladi. Natijada kuzatuv jarayoni kutilgan darajada aniq ma'lumotlarni bermaydi.

Mutaxassislar bilan hamkorlik qilish usuli esa maslahat, tavsiya va ma'lumotlarni olishga asoslanadi. Chunki konfliktolog mutaxassis ilmiy asoslangan va real sharoitlarga mos tavsiyalarga ega bo'ladi. Bunday mutaxassislar keyingi paytlarda oliy pedagogik ta'lim jarayonida konfliktologiya asoslari bo'yicha o'qitilayotgan o'quv fanlari vositasida tayyorlanayotganligini eta'kidlab o'tish joiz. Mutaxassislar bilan hamkorlik usuli konfliktli vaziyatlarni o'rganish va ular bilan ishlashda aniq tayanchlarga egaligi bilan diqqatga sazovordir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri ularning yangiliklarga qiziquvchanligidir. Shu sababli muntazam ravishda o'quvchilarga o'qituvchilar va sinf rahbarlari tomonidan turli yangiliklar taqdim etib borilishi konfliktli vaziyatlar bilan ishlashning muhim usullaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarga yangiliklarni taqdim etib borish ularning qiziqishlarini oshiradi, o'rinsiz turli anglashilmovchiliklarni oldini oladi va o'zaro muloqotga yo'naltiradi. Shu sababli mazkur usuldan keng foydalanish metodik jihatdan to'g'ri samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan konfliktli vaziyatlar bo'yicha ishlashning uslublari (metodlari) ham ko'p. Bunday

uslublardan quyidagilar samarali ekanligini alohida ta'kidlash joiz:

- 1) suhbat uslubi;
- 2) tadbir uslubi;
- 3) yo'naltirish uslubi.

Suhbat uslubi o'quvchilarda ishonch, serharakatchanlik va faollikning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Bunday xususiyatlarga ega o'quvchilar turli ko'rinishlardagi konfliktlarga sababchi bo'lmaydi. Aksincha ular faollik natijasida muammoli vaziyatni mustaqil hal qilishga intiladi. Suhbat uslubi o'quvchida ruhiy ko'ratinkilik, o'ziga ishonch va o'zgalarga oqilona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini berishi bilan amaliy ahamiyatga ega. Buning natijasida konfliktli vaziyatlar bilan ishlash qulaylashadi va unda o'quvchilarning faollashuviga asos bo'ladi.


Tadbir uslubi o'quvchilarning tashabbusi va qiziqishlariga ko'ra tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarga asoslanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, tarbiyaviy tadbirlar miqdori ko'payib ketmasligi kerak. Shu sababli konfliktolog pedagoglar haftasiga bir marta tarbiyaviy tadbir o'tkazishni tavsiya etishadi. Bunday tadbirlar faqat o'quvchilarning faolligi bilan amalga oshirilishi kerak. Konfliktli vaziyatlar bilan ishlashda tadbirlar uslubidan foydalanish uchun me'yoriylikka qat'iy amal qilish kerak. Bu borada ayniqsa, o'quvchilarning tadbirlarda o'z tashabbuslari bilan ishtirok etishi muhim amaliy samarani beradi.

Yo'naltirish uslubi boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqatini rivojlantirishga asoslanadi. O'quvchilarda layoqatning tabiiy bo'lishi pedagogik jihatdan e'tirof etilgan. Shu sababli o'quvchilar layoqatini rivojlantirishda ularning qiziqishlari bo'yicha yo'naltirilishi kutilgan samarani beradi. Yo'naltirish uslubi konfliktli vaziyatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur jarayonda o'qituvchi bilan hamkorlik qilish imkoniyatini ham beradi. Shu sababli tajribali pedagoglar konfliktli vaziyatlar bilan ishlashda o'quvchilarni yo'naltirish uslublarining imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishini eslatib o'tish joiz.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan

konfliktli vaziyatlar bo'yicha ishlash turli usullar va uslublarga tayanadi. Biroq qulay, oson va tez samara beradigan usul va uslublarga tanlashga e'tibor berish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni o'rganish metodologiyasi konfliktli holat bilan ishlash, konfliktlarni aniqlash va konfliktli vaziyatlarni tahlil qilishga tayanadi. Bundan maqsad pedagogik konfliktlarning negizi bo'lgan salbiy holat, vaziyat va omillarni oldini olishdir. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda mazkur masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bunday masalalar bo'yicha tegishli ko'nikmalarni o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tibor bering:



2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni o'rganish metodologiyasi

Mustahkamlash uchun savol va topshiriq:

1. Pedagogik konfliktli holatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash tizimi nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan konfliktli

vaziyatlar bo'yicha ishlashning qanday usul va uslublari mavjud?

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash tizimini o'zlashtiring va uni haftalik pedagogik amaliyot davrida sinovdan o'tkazing.

3-mavzu: Boshlang'ich sinflarda konfliktogenlar

Reja:

1. Pedagogik konfliktogenlar tushunchasi.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogenlarni o'rganish metodikasi.
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktogenlarni aniqlashning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, pedagogika, boshlang'ich, konfliktogen, metodika, bilim, ko'nikma, malaka.

Pedagogik konfliktogenlar tushunchasi.³ Inson ilk bolalik davridanoq turli nizolar va ziddiyatlar bilan o'zi xohlamagan tarzda to'qnash keladi. Agar o'zimizning bolaligimizni esga olsak, oddiy narsalar ustida juda qattiq qayg'uranimiz, o'z his-tuyg'ularimizga berilib ketib, manfaatlarimiz himoyasi uchun kurashga kirganimizni anglaymiz. Masalan, urishib qolgan bolani o'zimizning ko'chadan o'tishga qo'ymaganimiz, bizga velosipedini bermagan bolani masxara qilishga uringanimiz, keyinroq esa sizning yangi kiygan chiroyli ko'ylagingiz boshqa qizlarning havasini keltirgani, ular sizni qutlash o'rniga "namuncha o'zingga zeb beribsan?!" deb piching qilgani, akangiz dars qilayotganida ataylab kassetani baland ovozda qo'yib qo'yganingiz yoki o'zingiz yaxshi ko'rgan o'yinchoqlaringizni mehmon boladan yashirganingiz mana shunday oddiy konfliktli vaziyatlardir. Bularning barchasi kundalik turmushda uchrab turadigan odatdagi

³ Мазкур бўлинма куйидаги манба асосида тайёрланди: Ахмедова М. Педагогик конфликтология. – Тошкент, 2020. 85-89 б.

nizo va kelishmovchiliklar hisoblanadi. Aytmoqchimizki, ilk bolalikdanoq, biz o'z maqsadlarimizga yetishish uchun boshqalar manfaatlari bilan to'qnashamiz. Ammo ulg'ayganimiz sari ikki xil hodisa yuz beradi.

Birinchidan, bolaligimizda bizga katta ta'sir o'tkazgan kelishmovchiliklar ulg'ayganimiz sari bizga e'tiborsiz, kichik, jiddiy bo'lmagan hodisalarga, ba'zan esa kulgili holatlarga aylanadi. Ko'nglimizda "nima uchun shunchalik kuyingan ekanman?" deb o'ylaymiz. "Shu oddiy narsa menga qattiq ta'sir qilgan ekan-da...", deb xulosa qilamiz. Tabiiy ravishda, katta bo'lganimizda yoshligimizda urishgan bolani ko'chamizdan o'tkazmaslik yoki mehmondan biron narsani yashirish xayolimizga ham kelmaydi. Bolalik davrimizda hammamiz ham juda oddiy narsalar uchun kurashganimiz. Ammo hozir hech qaysi birimiz mehmon boladan o'z o'yinchoqlarimizni, o'yinchoqlar bizga qanchalik qadrli bo'lmasin, yashirib qo'ymaymiz. Ya'ni, biz ulg'aygan sari konfliktlarga aqli rasolik va sipolik, sog'lom fikrlilik asosida yondashamiz. Shubha yo'qki, ulg'aygan insonlar, ya'ni kattalar konfliktlarga kichiklarga nisbatan boshqacharoq yondashishadi.

Ikkinchi tomondan esa, ulg'ayganimiz sari, bizning hayotimizdagi kelishmovchilik, nizo va ziddiyatlar ham o'sib, ulg'ayib, kattaroq mazmun va mohiyat kasb eta boshlaydi. Masalan, talabalar o'rtasida ko'p uchrab turadigan holatlardan bir misol. *Bir yigit bir qizni yoqtirib qoldi. Ammo u yigitga emas, yigitning do'stiga e'tibor qaratdi. Yigitni "Nima qilish kerak?" degan savol qiynay boshladi. O'sha bola bilan bir "chekkaga" chiqib alohida gaplashib olish lozimligi haqida o'yladi. Ammo mana shu niyat to'g'rimi yo yo'q, yigit buni bilmasdi. Yigit o'z hissiyotlariga bo'ysunishga majbur bo'ldi. Emotsiyalar esa yigitni qasd olishga, baxti chopgan bolani bir "o'qitib" qo'yishga, orani "yigitchasiga" ochiq qilib olishga chaqirdi.* Xulosa qilish kerakki, 17-18 yoshimizdagi bu his-tuyg'ular 40-50 yoshli odamga jizzakilik, hovliqmalik, o'ylamasdan ish tutish bo'lib ko'rinishi aniq. Chunki 40-50 yoshli inson ko'ngil ishi qiyin ekanligini, aslida qizni birovni tanlashga majburlab bo'lmasligini, bu uning

shaxsiy huquqi ekanligini, shu bilan birga, qiz ko'nglini o'zi tomon og'dirib olish zo'ravonlik, kuch ishlatish, zo'rlik qilish orqali emas, balki boshqa, qizning ko'nglini oladigan ishlar orqali amaliyroq bo'lishini bilishadi. Shu bois, 40–50 yoshli odam o'zi yoqtirgan insonga nisbatan mehrliroq bo'lish, o'zining va uning manfaatlarini muhofaza qilish yo'lidan boradi. O'zi yoqtirib qolgan qizning aslida boshqa bir yigitni yoqtirishini bilib, bu yigitni do'pposlash orqali masala hal bo'lmasligini biladi va anglaydi. Chunki gap yigitda emas, qiz bolaning ko'nglida.

Demak, yosh o'tgan sari konfliktlarning mazmuni ham, ularga bo'lgan munosabat ham o'zgarib boradi. Konfliktlar murakkablashaveradi, shunga yarasha odamlarning hayot tajribasi ham bosiqlik, mulohazakorlik, jiddiylik tomon o'zgarib boradi. Chunki inson ulg'aygan sari o'z his-tuyg'ularini jilovlashga, ularni ma'lum tartibga solishga, ularni boshqarishga o'rganadi. O'z emotsiyalarini boshqarish esa ziddiyatli vaziyatlarda nizolarning kuchayib ketmasligi, ularning chuqurlashmasligi, konfliktlarning to'g'ri yechimlari topilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hayotdashedaykonfliktli vaziyatlar bo'ladiki, oddiy narsa bahona bo'lib, oilalar buzilib ketadi, odamlar bir-birini o'ldirish darajasigacha boradi, natijada birovning joniga qasd qilinadi. Keyinchalik umr bo'yi nima uchun mana shunday amallarni qilganini ular tushuntirib bera olmaydi. Bunday voqealarni bugungi kunda ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali juda ko'p kuzatsa bo'ladi. Masalan, televizorda qaysi ko'rsatuvni ko'rishga kelisha olmagan o'gay ona va o'g'il bahsi oqibatida, mast bo'lgan o'g'il o'gay onasini o'ldirgan. Politsiyadagi tergov jarayonida o'g'il qaysi ko'rsatuvni ko'rishni istaganini eslay olmaydi; yoki qurilishda ishlaydigan ikki do'st orasida bahs kelib chiqadi. Biri ikkinchisini haqoratlab, buralab so'kadi. Bunga chiday olmagan ikkinchi do'st uni itarib yuboradi. Do'sti boshi bilan betonga tushadi va o'ladi; yana bir hayotiy voqea, qo'shnilar orasida janjal kelib chiqadi. Janjallashayotgan qo'shnilar yonidan o'tib ketayotgan mutlaqo ularga notanish odam otilgan o'qdan nobud bo'ladi. Qo'shnilardan biri qotillik uchun qamoqqa hukm

qilinadi; yosh oila, ya'ni yangi turmush qurgan er-xotin ko'chada ketayotgan bo'ladi. Bir notanish yigit ularga kulib qaraydi. Er: "Nimaga senga qarayapti?" – deb jahli chiqadi. Uyga kelganda aybi bo'lmagan xotinini urib, do'pposlaydi. Shu bilan, ko'chada xotiniga qaragan odamni jazolaganday bo'ladi, ammo xotini ko'nglida urish-do'pposlashdan so'ng mehr qoldimi, bu masala bilan qiziqmaydi. Bu kabi voqealar oddiy hayotdan olingan.

Demak, konfliktlar hayotimizning har bir bosqichida kelib chiqishi mumkin bo'lib, inson ulardan o'zini himoya qilishga doim tayyor turishi kerak. Chunki konfliktlar qo'qqisdan, odam ularni batamom kutmagan vaqtda, konflikt kelib chiqishining umuman ilojisi bo'lmagan hollarda ham vujudga kelishi, inson hayoti va tinchligini buzishi mumkin.

Konfliktlar kattalar hayotida ancha keng uchrab turadigan hodisa hisoblanadi. Chunki kattalar juda keng ravishda turli muloqotlarga kirishadi. Masalan, rahbar organlarda ishlagan odamlar hayotida ular faoliyatining 70–80 foiz turli ochiq-oydin yoki yashirin ziddiyatlar sharoitida o'tadi, ularning inobatga olinmasligi, ularga bee'tiborlilik esa konfliktlarning chuqurlashib ketishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun, konfliktlarning kelib chiqish qonuniyatlari qanday vujudga kelgan konfliktning ildizlari va sabablarini tahlil qilish yo'llari nimalardan iborat degan masalalar dolzarblik kasb etadi. Konfliktlarning kelib chiqish qonuniyatlarini o'rganish ularni ilk vujudga kelish jarayonidayoq bilib olish va oldini olish choralari ko'rish imkoniyatini yaratadi. Konfliktning kelib chiqish sabablarini tahlil qila olish esa, vujudga kelgan konfliktning to'g'ri yechimini topishga qo'l keladi.

Tahlillarga ko'ra, qariyb 80 foiz konflikt ishtirokchilarining mojaroga moyilligi aniqlangan. Bu odamlardagi o'ziga xos psixik tushuncha bo'lib, konfliktning kelib chiqishida *konfliktogenlar* muhim rol o'ynaydi.

Konfliktogen – konfliktga bo'lgan layoqatni anglatadi, ya'ni ziddiyatga moyillikdir. Konfliktogenning mazmuni shuki, biz o'zimiz gapirayotgan gapga u qadar e'tibor qaratmaymiz, ammo boshqa gaplarga shu qadar e'tibor beramizki, unga jiddiy

tus berishga harakat qilamiz.

Insonni shaxsiy psixologiyasi shunday, u tashqi noxush psixologik ta'sirga nisbatan ixtiyorsiz, o'zi bilmagan holda himoyaga kirishadi. Konfliktning dastlabki bosqichida bu hissiyot insonning istak va mayliga bo'ysinmagan holda ixtiyorsiz ravishda ishga tushadi. Konfliktga kirishish davrida o'z-o'zini himoya qilish natijasida konfliktogenlar eskalatsiyasi, ya'ni konfliktni keng qamrovga yoyilishi kuzatiladi. Konfliktni kelib chiqish sabablarini bilmaslik va uni hal etishga kirishmaslik oqibatida, uni qamrovi kengayib boradi va bunda "zo'r himoya – bu hujum" degan psixologik aqida ustuvorlik qiladi. Natijada:

Konflikt javob–javob, konfliktogen–konfliktogen "konfliktogen sxemasi" vujudga keladi.

Bu sxema konfliktning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib, insonlardagi "Men"ning ustunligi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Konfliktogenlarni mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagi shakllardan biriga kiritish mumkin:

1. Barchadan ustun bo'lishga intilish.
2. Tajovuzkorlikni namoyon qilish.
3. Xudbinlikni (egoizm) namoyon qilish.

Barchadan ustun bo'lishga intilishda insonda: ko'ngilchanglik; manmanlik; o'ziga yuqori baho berish; ishonish; majburlash; suhbatdoshini yengish; xabarlarini yashirish; etikani qo'pol ravishda buzish; tegajog'lik; yolg'on gapirish kabi xislatlar namoyon bo'ladi.

Tajovuzkor (agressiv) asli lotincha so'z bo'lib, "hujum" ma'nosini anglatadi. Tajovuzkor odamlar tabiatan kamchilikni tashkil etadi. Shunga ko'ra tajovuzkorlikning namoyon bo'lishida quyidagi shakllar muhim o'rin tutadi:

- kuchli tajovuzkor odam o'zining ichki muammolarini atrofidagi odamlar hisobiga hal etishga intiladi;
- kuchli tajovuzga ega bo'lmagan odamlar esa boshqalarga tajovuz o'tkazishga harakat qilishdan oldin uni natijasini o'ylab ko'radilar va ayrim hollarda tavakkal qiladilar;
- konflikt davridagi tajovuzkorlik kayfiyat va hissiyot bilan

bog'liq bo'lib, kutilmagan pallada namoyon bo'ladi va mavjud konfliktogenga qarshi javob tariqasida vujudga keladi.

Mana shunday holatlar ko'pchilikni o'ylantirishi tabiiy. Har bir inson konfliktlar bilan to'qnash kelishi aniq bo'lganligi sababli konfliktlar haqida keng bilimlarni tarbiyalash va shakllantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Shu bois konfliktlar to'g'risida ham nazariy bilimlar, ham amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish hozirgi zamon yoshlarini mustaqil hayotga tayyorlash hamda jamiyatda o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lishida zarur ehtiyojlardan bo'lib, ana shunday bilimlarni targ'ib etish davrimizning dolzarb vazifalaridandir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogenlarni o'rganish metodikasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogenlar ularning yosh, aqliy, jismoniy va ruhiy xususiyatlariga mos ravishda mavjud bo'ladi. Shu jihatdan mazkur konfliktogenlarni o'rganish metodikasiga muayyan yondashuv asosida munosabatda bo'lish taqoza etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogenlarni o'rganish metodikasi hozircha mamlakatimizda ishlab chiqilgan emas. Shu jihatdan bu borada bizning yondashuvimizga ko'ra, mazkur masalani quyidagi metodikaga asosan o'rganish mumkin:

- 1) o'quvchilarning munosabatloarini o'rganish;
- 2) o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqotini o'rganish;
- 3) boshlang'ich ta'lim muhitini o'rganish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan konfliktogenlarni o'rganishda o'quvchilarning munosabatlarni aniqlash metodikasi muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilarning o'z shaxsiga, sinfdoshlariga, o'qituvchilarga va maktab jamoasiga bo'lgan munosabatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur omillar konfliktogenlarni tarkib toptiruvchi xususiyatlarga egadir. Misol uchun, o'quvchi shaxsida kechadigan ruhiy va ma'naviy o'zgarishlar ba'zida konfliktogen omillarni keltirib chiqaradi. Shu sababli mazkur

masalaga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z sinfdoshlari, o'qituvchilari va maktab jamoasiga munosabatlarida qoniqish hissi hosil bo'lmasa, bu hol konfliktogennlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqotini o'rganish metodikasi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan konfliktogennlarning omillarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchilarning muayyan o'quvchilar bilan o'zaro chuqurlashtirilgan muloqotda bo'lishi qolgan o'quvchilarida konfliktogennlarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Chunki har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi o'ziga nisbatan o'qituvchining e'tibori yuqori bo'lishini xohlaydi. Aynan o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqotini o'rganish asosida konfliktogennlar to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogennlarni o'rganishda boshlang'ich ta'lim muhitini aniqlash metodikasi ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik muhitning yuqori bo'lishi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Biroq ota-onalarning, jamoatchilikning va maktab jamoasining boshlang'ich ta'lim darayoni bilan keng muloqotda bo'lishi mazkur muhitda ba'zida salbiy holatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun istalmagan konfliktogen tarkib topadi. Misol uchun, ba'zi ota-onalarning anglashilmovchilik tufayli boshlang'ich ta'lim jarayoniga o'rinsiz aralashuvi ana shunday konfliktogennlar uchun muhim manba bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganish metodikasida oson va qulay yondashuvlar mavjud.

Mazkur xususiyatlar hisobga olinib boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogennlarni o'rganish metodikasi shakllantiriladi. Bunday metodikaning asoslari quyidagilardan iborat:

a) har bir o'quvchida uchraydigan konfliktogennlarni

aniqlash;

b) o'quvchilar guruhida uchraydigan konfliktogennlarni o'rganish;

v) sinf bo'yicha uchraydigan konfliktogennlarning asoslarini aniq aniqlash.

Bunday yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogennlarning sabablari, xususiyatlari, ko'lami va xarakteri (ijobiy yoki salbiy ta'siri) o'rganiladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan konfliktlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish imkoniyatlarga ega bo'linadi.

Kezi kelgan ta'kidlash lozimki, rossiyalik pedagogik konfliktshunos olimi D.P.Zorkinning fikricha, pedagogik konfliktogennlar muvddatli va psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi.⁴ Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktogennlarni o'rganishda psixologik yondashuvlarga ham asoslanish kerak. Bunda suhbat, kuzatish, ma'lumot to'plash, aniqlash va mexanizmlarni tahlil qilish usullariga tayangan holda o'quvchiga ijobiy psixologik ta'sir ko'rsatib, konfliktogennlarni aniqlash kutilgan samrani beradi. Chunki bizning tajribamizga ko'ra, boshlang'ich ta'limda uchraydigan konfliktogennlar nisbatan o'tkinchi xarakterda bo'ladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatlaridan kelib chiqib bu masalaga psixologik yondashuvlar asosida munosabatda bo'lish taqoza etiladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yashirin holatda bo'lgan konfliktogennlar o'rganiladi va ular haqida ma'lumotga ega bo'linadi. Bunday o'rganish jarayonida mutaxassis (o'qituvchi, sinf rahbari, maxsus guruh yoki maktab jamoasi) pedagogik va psixologik qonuniyatlarga qat'iy amal qilishi keoak bo'ladi. Chunki pedagogik konfliktogennlar siyosiy, iqtisodiy yoki sosial konfliktogennlarga nisbatan "yumshoq" bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktogennlarni aniqlashning ahamiyati. Konfliktogen – konfliktga imkon beruvchi va konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida namoyon

⁴ Зоркин

bo'ladi. *Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar yoki harakatlar konfliktogen deb ataladi.*

Bu ta'rifda muhim bo'lgan so'zlardan biri "mumkin bo'lgan"dir. Chunki u konfliktogenlarning xavfini, ularning ichki tahdidini to'g'ri belgilab beradi. Konfliktga olib kelishi aniq bo'lmagan, ya'ni konfliktga olib kelishi "mumkin bo'lgan" narsalar ziddiyatga nisbatan uyg'oqligingiz va sezgirligingiz, ogohligingizni tinchlantirib, sizni aldab qo'yishi mumkin. Tanishingizga nisbatan har doim salom-alikni quyuq qilsangiz-u, bir marta o'z ishlaringiz bilan o'ylanib, unga har doimdagidek e'tibor qaratmasdan, oddiy "Salom?" deb o'tib ketsangiz, u sizdan qattiq xafa bo'lib qolishi mumkin. "O'zini katta tutyapti, behurmatlik qildi, nima men uning arpasini xom o'rdimmi?! Salom bermasa o'ziga?! Ja, katta ishga o'tdim deb, dimog'i ko'tarilib ketibdimi?.." Bunday holatda orada noqulay ahvol kuzatiladi. Keyingi gal u siz bilan sovuq, rasmiy muomala qiladi. Endi sizda o'ylanish hissi paydo bo'ldi: "Nima bo'ldi bunga?! Nimaga o'zini bunday tutyapti?! Xuddi men bilan urishib qolganday... Uni xafa qilmagandim, shekilli..." singari.

Konfliktogenlarning ayyorligi shundaki, biz o'zimizning so'zlarimiz va amallarimizga emas, balki bizga aytilgan boshqa odamlarning so'zlari va amallariga ko'proq e'tibor beramiz. Boshqa odamlarning so'zlaridagi intonatsiya, mimika va ma'no uning bizga nisbatan munosabati haqidagi axborot, ya'ni ma'lum informatsiyani bildiradi va beradi. Ammo o'zimiz birovlariga so'z aytganimizda, har doim ham, so'zlar ma'nosi nimani anglatmoqda, bizning mimikamiz, ovozimiz, qo'l harakatlarimiz, intonatsiyamiz yana qanday qo'shimcha axborotni birovlariga uzatayotganligiga e'tibor bilan qaramaymiz. Ko'pchilik hollarda bu narsa intuitiv tarzda kechadi.

Demak, biz boshqalardan kelayotgan informatsiyani diqqat bilan filtrlaymiz, o'zimiz jo'natayotgan informatsiyani esa filtrlamasdan, to'g'ri jo'natamiz. Shu nuqtayi nazardan, hammamiz o'zgalardan kelayotgan axborotga emotsional yondashamiz, o'zimizdan ketayotgan informatsiyani esa ko'proq shundayligicha, ya'ni boricha jo'natamiz. Ba'zan xotin-qizlar

haqida "Ayollar o'zi aytgan gaplarga diqqat qilmaydi, ammo o'zi haqida boshqalar aytgan so'zlarni diqqat bilan eshitadi", deyiladi. Ammo aslida biz hammamiz shunday qilamiz. Bu holat, o'z manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan intuitiv himoyaning natijasi hisoblanadi. Ammo birovlarining manfaatlarini ham muhofaza qilish yoki hurmatlash lozimligi xayolimizga ham kelmaydi. Demak, konfliktli vaziyat – biz jo'natayotgan va qabul qilayotgan axborotlar orasidagi hissiy-emotsional hamda psixologik muvozanat buzilganda yuzaga keladi. Ana shunday hayotda uchrab turadigan konfliktogen vaziyatlar chuqur ziddiyatlarning kelib chiqishini ta'minlashi mumkin.

Konfliktogenlar ko'payib, ular majmuaga aylanganda, konflikt tug'iladi. Konfliktogenlar eskalatsiyasi qonuniy ravishda konfliktga olib keladi. Bizga kelayotgan axborotlar konfliktogenlar bilan to'lgan bo'lsa, biz unga tabiiy ravishda o'zimizdagi konfliktogenlar bilan javob beramiz. Talabalar o'rtasida turmush qurgan yangi kelinlar bo'lganligi sababli, kelinlar hayotidan bir misol: faraz qiling, oila. Qaynona va kelin. Kelin yangi tushgan. Hali oilaning tartiblarini yaxshi o'zlashtirmagan hamda taom tayyorlashni bilmaydi. Bu borada qaynona erinmay hammaga axborot berib o'tadi. Kelinining uddaburon emasligidan muntazam noliydi. Kelin o'zicha eziladi, yaxshi kelin bo'lishga astoydil harakat qiladi, ammo unda tajriba yo'q. Kelin qaynonaga o'zining ahvoli haqida gapirishdan qo'rqadi. "Ular meni tushunmaydi, o'zim aybdorman", deb o'ylaydi. Asta-sekin turli qochirim gaplardan zerikkan kuyov ham kelinni ovqat pishira olmaslikda ayblay boshlaydi. Aslida kelin ovqat pishirishni bilmasa ham, yaxshi inson bo'lishi mumkinligi hech kimning aqliga kelmaydi. Kelin – ovqat pishirishi shart! Vassalom. Mazkur axborot, ya'ni kelinning qo'li shirin emasligi atrofdagilar ongiga singib boradi. Kelin esa ovqat pishirishni astoydil o'rgana boshlaydi. Shu bois, kelin ancha yaxshi ovqat pishira boshlaganini ular sezishmaydi. Kelin esa yangi oiladagi yaqin qarindoshlardan o'ziga nisbatan yaxshi muomala kutadi. Biroq uning asta yaxshi pazanda bo'lib qolganini hech kim kelinga aytmaydi va bildirmaydi. Uning peshonasiga umrbod

“ovqat pishirishni bilmagan kelin” muhri bosilib bo‘lingan va uni o‘chirishning ilojisi yo‘q.

Konfliktogenlar eskalatsiyasi yuzaga kelmasligi uchun:

a) konfliktogenlarning o‘zingiz va atrofdagilar yuragida yig‘ilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

b) konfliktogenlar vujudga kela boshlaganda esa, ulardan o‘z fikri va ongini ozod qilish yo‘llarini qidirish;

v) o‘zimizda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan konfliktogenlar boshqalar ko‘nglida ham yuzaga kelishi mumkinligini nazarga olishimiz darkor.

Mana shu natijalarga erishishda konfliktogenlarsiz muomala yuritish qoidalari qo‘l keladi:

1) Konfliktogenlardan foydalanmang, ularni o‘z vaqtida, ildiz otib ketmasidan yo‘qotishga harakat qiling.

2) Konfliktogen bilan to‘qnashganda unga o‘zingizdagi konfliktogen bilan javob qaytarmang.

3) Konfliktogen bilan munosabat bildirayotgan odamga, shuningdek umuman har qanday suhbatdoshingizga empatik (birovninghis-tuyg‘ularinianglashasosida)munosabatlading. Empatik munosabat o‘rnatish uchun suhbatdoshingizga xush keladigan mavzularni tanlang, unga maqtoqli so‘zlar ayting, kulib suhbatlashing, so‘zlarini diqqat bilan eshiting va hokazo.

4) Imkon qadar ko‘proq ijobiy his-tuyg‘ular ulashing. Konfliktogenlar maxsus garmonlar natijasi hisoblanadi. Agar o‘zingizning kayfiyatingizni yaxshilik sari yo‘naltirsangiz, konfliktogenlarni yengishga imkon tug‘iladi. Konfliktogenlar insonnikurash,ziddiyatvanizogayo‘naltiradi. Buesaorganizmda adrenalinning ko‘payishiga olib keladi. Adrenalin konfliktogen bilan qo‘shilib, g‘azab, jahl, agressiyaning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Odamning qattiq g‘azablanishi ko‘p adrenalinni keltirib chiqaradi. Uning inson salomatligiga bo‘lgan juda katta salbiy ta‘siri mavjud. Ammo chiroyli suhbat inson organizmida “baxt garmonlarini” yuzaga keltiradi. Shundan foydalanishga harakat qiling.


O‘zini ustun qo‘yishning ochiq ko‘rinishlari: buyruq berib gapirish, tahdid qilish, birovni niqtab turish, salbiy

munosabatlar, tanqid, ayblash, birov ustidan kulish, istehzo, piching, kesatiq.

Yashiringan ustun qo‘yish hollari: tashqi ko‘rinishdan yaxshi munosabat sifatida qabul qilsa bo‘ladigan ustunlik. “Tinchlaning”, “Aqlli odamsiz-u, ammo...”, “Hayronman, nimaga xafa bo‘lasiz...”, “Shuni ham bilmaysizmi?!”, bunday vaziyatlarda tashqi ko‘rinishdan mayin ohang tanlansa ham, bu holat konfliktogen holat sifatida baholanadi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchiga “Nihoyat darsni bajarib kelibsan-da”, – deydi. O‘quvchi xafa bo‘ladi. U “Nima hech qachon dars bajarib kelmaganmanmi?!”, – deb o‘ylaydi.⁵

Mazkur masalalar boshlang‘ich sinflarda uchraydigan konfliktogenlarning eng muhimlari hisoblanadi. Shu sababli ularni aniqlash boshlang‘ich ta‘limda o‘qitish jarayonini va tarbiyaviy ishlarni maqsadli amalga oshrish uchun muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, pedagogik konfliktogenlarni aniqlash ularning asoslari to‘g‘risida kerakli ma‘lumotga ega bo‘lish bilan muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinflarda konfliktogenlar masalasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ular to‘g‘risida kasbiy bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. E‘tibor bering:



3-rasm. Boshlang‘ich sinflarda konfliktogenlar

⁵ Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. – Тошкент, 2020. 90-92, 94-95-бетлар

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Pedagogik konfliktogenlar tushunchasi deganda nimani tushunasiz?

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogenlarni o'rganish metodikasi asoslari nimalardan iborat?

3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktogenlarni aniqlashning ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktogenlarni o'rganish metodikasi asoslarini o'zlashtiring.

4-mavzu: Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish masalalari

Reja:

1. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish tushunchasi.

2. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishga doir yondashuvlar.

3. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodologiyasi.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, konflikt, pedagogika, bartaraf etish, tushuncha, yondashuv, metodologiya.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish tushunchasi. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish deganda eng avvalo mavjud konfliktlar turlarini, ular bo'yicha muammolarni va bartaraf etish yo'llarini aniqlab olish nazarda tutiladi. Shu jihatdan bu borada quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. *Muammoni aniqlash.* Boshlang'ich sinf pedagogik kadrlari mudom va izchil ravishda o'quvchilarni kuzatib borishi haqida bu kuzatuvlarini qayd qilib borishi kerak. Chunki 6-11

yoshli o'quvchilarning jismoniy, yosh va ruhiy rivojlanish xususiyatlari buni taqozo etadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ziddiyatlar ko'rinishi paydo bo'ladigan pedagogik konfliktlar o'z vaqtida o'qituvchi tomonidan ilg'ab olinishi kerak. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1) o'quvchining o'zini tutishi va xatti-harakatlariga e'tibor berish;

2) o'quvchining o'zgalarga munosabatiga diqqat qilish;

3) o'quvchining faol yoki passivligini aniqlash;

4) o'quvchining kun tartibini tekshirish.

Bunday yo'l tutish boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuzaga kelgan pedagogik konfliktlarning turlari, ko'lam va xarakterini to'g'ri hamda o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Shu sababli, bu borada kuzatuv samarali hisoblanadi. Birinchi Renessans davrining yirik mutafakkirlaridan biri Homid Termiziy (IX asr) kuzatuv metodida quyidagicha yo'l tutish samara berishini ta'kidlaydi:

- ishga qalban kirishish;

- g'arazsiz harakat qilish;

- faqat maqsadga ishonish.⁶

Bu tavsiyalarga amal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlarni aniq aniqlash imkonini beradi. Unga ko'ra, O'qituvchi faqat o'quvchiga ishonishi, o'z ishiga chin dildan, xolis va haqiqatga rioya qilish qoidalariga rioya qilishi shart. O'qituvchining muammoni aniqlashi yashirin tarzda olib borilishi lozim, toki o'quvchi huquqining daxlsizligi ta'minlansin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar muammosini aniqlash uchun har bir o'qituvchining individual uslubi bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur masala bo'yicha tegishli ravishda ma'lumotlarga ega bo'lish lozim.

2. *Muammoni bartaraf etish.* Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlar masalasida eng

⁶ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. // To'la asarlar to'plami. 10-jild. - T.: "Fan". 2001. 180-bet.

muhimi ularni bartaraf etishdir. Buning uchun O'qituvchi uch jihatga diqqat qilishi kerak: birinchisi, aniqlangan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish "Yo'l xaritasi"ni belgilab olish; ikkinchisi, bartaraf etish metodini belgilash; uchinchisi, yordamchi vositalari va kuchlarini mo'ljallash. Shundan keyin bartaraf etish ishiga kirishiladi.

O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlar turlarini bartaraf etishda quyidagilar tavsiya etiladi:

- 1) pedagogik konfliktlar sabablari va omillarini yo'q qilish;
- 2) o'quvchi bilan do'stona va individual ishlash;
- 3) ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning o'quvchiga ta'sirini kamaytirish;
- 4) o'quvchi munosabatini ustuvor qo'yish.

Bunday yondoshuv o'quvchida ishonch uyg'otadi, unga ruh beradi va O'qituvchiga nisbatan oshkora munosabatda bo'lishiga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlar turlarini bartaraf etishda *suhbat* metodi kutilgan samarani berishini ta'kidlab o'tish joiz. Unga ko'ra, suhbat davomida o'qituvchi faqat tinglovchi va tahlil qiluvchi, o'quvchi esa so'zlovchi va ma'lumot beruvchi vazifasini bajaradi. Birinchi Renessans davrining mashhur mutafakkirlaridan biri Abu Bakr Hamadoniy (X asr) suhbat metodi qoidasini quyidagicha belgilab ko'rsatadi:

- suhbatdoshdan ta'ma qilmaslik;
- yuksak darajada toqatli bo'lish;
- suhbatdosh sirini oshkor etmaslik.⁷

Bunday yo'l tutish boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlar turlari, ko'rinishlari va shakllarini kutilgan darajada bartaraf etish imkonini beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik fanlarni o'zlashtirish vositasida o'quvchilardagi konfliktlarni bartaraf etish va muammoni o'z vaqtida aniqlash ko'nikmasini o'zlashtirish shart hisoblanadi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida tashkil etiladigan

⁷ Shu manba. 209-bet

turli maxsus kurslar, to'garaklar va maktab-laboratoriya ishlarida faol ishtirok etish zarur.

3. *Muammoni hal etish samarasini baholash.* Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning samarasi uni baholab borish bilan baholanadi. Bunda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- a) muammoning hal qilinganlik darajasini belgilash;
- b) muammoning hal qilishda ta'lim ishtirokchilari faoliyatini baholash;
- v) keyingi xatti - harakat yo'nalishlarini aniqlash.

Bunday yondashuv pedagogik konfliktlarni muntazam bartaraf etib borish imkonini beradi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi maxsus "Monitoring daftari" ga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish va muammoni hal etish samarasini baholash ko'nikmasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning eng maqbul yo'llaridan biri o'quvchilarning, yosh, jismoniy va ruhiy-ma'naviy xususiyatlarini hisobga olishdir. Boshlang'ich maktab o'quvchisi mo'rtligi, hissiy tajribalarning qisqa davomiyligi bilan ajralib turadi, agar biz, albatta, bolani tushkunlikka soladigan chuqur zarbalar haqida gapirmaslik kerak bo'ladi. Hissiy o'zgaruvchanlik va yuqori darajadagi muvofiqlik yosh o'quvchining psixikasini himoya qilishga yordam beradi. Ammo, bu yoshdagi o'quvchilarning asabiy, tajribalarining qisqa davomiyligi o'qituvchi hamma narsani unutib qo'yadi degan bahona bilan unga beparvo bosim o'tkazishga asos bermaydi. Yana bir psixologik haqiqat shundaki, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun kattalar va eng avvalo, o'qituvchilar tomonidan himoyalaniish uchun xarakterli ehtiyoj mavjud. Har qanday qiyin vaziyatda u o'qituvchiga qarab, undan yordam va madad kutadi. Agar uning umidlari bajarilmasa, agar u yolg'iz tajribaga ega bo'lsa, zarba

yanada kuchayadi, va bundan ham yomoni, bola o'qituvchiga yordam berish o'rniga, buning aksini qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ziddiyatlarning tarkibi ancha barqaror va asosiy ishtirokchilar o'quvchilar va o'qituvchilardir. Bir nechta bor kombinatsiyalar: ziddiyatlar, bir tomondan - o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasi past bo'lgan o'quvchilar va bolalar, obro'li va nufuzli bo'lmagan, o'g'il bolalar va qizlar guruhlar. Boshqa tomondan, turli xil mahorat darajalari va mahorat darajasidagi o'qituvchilar. Ular orasida - juda obro'li, zolim, o'quvchilar reytingida o'rtacha va katta pedagogik ish ustalari. Qarama-qarshiliklar orasida sezilarli ustunlik kuchli boshlang'ich maktab o'qituvchilaridan iborat. O'qituvchilar bilan ishlashda va jamoadagi obro'-e'tibor jihatidan qarama-qarshi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining soni teng nisbatda keltirilgan. Bundan kelib chiqadiki, o'qituvchilarning ish uslubi va o'quvchilar bilan muloqot qilish amaliyotiga ziddiyatlar hamroh bo'ladi, ularning kasbiylik darajalariga qarab barcha turlar mavjud.

Boshlang'ich sinflardagi mojarolarni mazmuni va ssenariysi bo'yicha tahlil qilish va umumlashtirish shartli ravishda uchta guruhga bo'linishi mumkin: didaktik, axloqiy va axloqiy bo'lmagan ziddiyatlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida yuz bergan keskin voqealar aslida xilma-xilligi bilan farq qilmaydi. Maktab o'quvchilari orasida ruhiy shikastlanishlar yuzaga keladigan joylarda "o'quvchi-o'qituvchi" munosabatlarining uchta guruhi ustunlik qiladi. Ular darsda uchraydi va metodologiyaga o'z mazmuni bilan bog'liq emas, balki o'qituvchining xulq-atvori, ya'ni uning taktikasi, uslubi, o'quvchilar harakatlariga munosabati bilan bog'liq. Hodisaning salbiy jihatlariga o'quvchilarning ruhiyatiga eng ko'p ta'sir qiladi, chunki yosh o'quvchilarni tarbiyalash usullari, masalan:

- tushunmasdan, ular o'quvchini arzimagan narsalarda ayblashadi va ularni darsdan chiqarib yuborishadi;
- portfelini tashlab, o'quvchini darsdan chiqarib yuborishadi.

- o'quvchi tasodifan sinf xonasida derazani sindirdi, o'qituvchi unga keraksiz so'zlar bilan qattiq urishdi;

- sinfda o'qituvchining sumkasidan pul yo'qoladi; umumiy qidiruv, lekin hech kim pulni o'g'irlamagan. Ular boshqa joyda;

- Butun sinf she'rlarni yodlamagan.

O'qituvchi barchani taklif qildi, lekin hech kim javob bermadi; Bu kabi holatlar boshlang'ich sinflarda ko'p kuzatiladi.

Aqliy tajribaning kuchi ikkala obektiv sabablar bilan, ya'ni odamni shaxsni idrok etishning qonunlari va mexanizmlari, kuzatilayotgan voqealar chaqaloq uchun mosligi, ahamiyati va bunday hodisalarni kuzatayotgan ko'plab individual farqlar bilan belgilanadi.

Boshlang'ich maktab shaklidagi mojaroli vaziyatlarning ikkinchi guruhi o'quvchilarga nisbatan "kamsitish" atamasi bilan birlashtirilishi mumkin bo'lgan o'qituvchilarning harakatlari. Ularning namoyon bo'lish shakllari turlicha emas. Shuning uchun har bir o'qituvchi uchun o'zining pedagogik mahoratini shakllantirish jarayonida ushbu vaqtda o'ziga xos aqidalarni va o'zini o'zi ta'qiqlashni shakllantirish qiyin emas.

Didaktik mojarolarning uchinchi guruhi kichik yoshdagi o'quvchilarning faoliyatini baholash holatlarida ro'y beradigan voqealar natijasida shakllanadi. O'qituvchi darsda bilim va ko'nikmalarni baholaganda, eng asabiy holatlarga nima sabab bo'ladi? Ularga bir nechta misol:

- ota-onalarning iltimosiga binoan, ular bilan tanishish paytida haddan tashqari oshirib yuborish;

- amaliy topshiriqlar bajarilgan tirishqoqlikni hisobga olmaslik;

- diktantda bir xil xatolar uchun turli xil baholar belgilanadi. O'quvchilar o'qituvchining "sevimlilari" degan xulosaga kelishadi.

O'quvchilarning darsdagi muvaffaqiyatini baholashda yuzaga keladigan tushunmovchiliklarning bir nechta sabablarini ta'kidlash uchun asos bor. Ulardan biri o'quvchilar, ayniqsa gumanitar fanlar bo'yicha bilim darajasining qat'iy yagona mezonlari va ko'rsatkichlarining yo'qligidir. Bunda

o'qituvchining ongida shakllanadigan baholashning ahvoli, kayfiyati, idrok qilishga tayyorligi, yozma ishning matniga bolaning javobiga e'tibor va boshqalar bog'liqligi qo'shilishi kerak. Aynan shu yerda o'qituvchining baholashlari adolasizligi to'g'risida taassurot paydo bo'ladi. O'qituvchi va kichik maktab o'quvchilari o'rtasidagi didaktik o'zaro munosabatlar kontekstidagi boshqa mojaroli vaziyatlar orasida o'qituvchilarning rasmiy nazarasizligi, ularning ortda qolishiga e'tibor bermaslik, ota-onalari o'qituvchiga nisbatan qandaydir hokimiyat turiga ega bo'lgan maktab o'quvchilarining namoyishkorona jo'shqinligi, o'quvchining yomon odatlardan ommaviy sharmandaligi (tirnoqlarini tishlaydi, siqadi, o'ziga kiradi) va hk.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik va insoniy axloq qoidalarini qo'pol ravishda buzish tasnifi, birinchi navbatda, o'qituvchining madaniyatsizligi, uning befarqligi va bolalarga nisbatan shafqasiz munosabatining namoyon bo'lish turlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. To'qnashuv holatlarining shafqasizligi va jinoiy shakllari va o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomala qilishdagi harakatlari.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala qilishda o'qituvchilarning beg'arazligi va maktab hayotining haqiqiy voqealariga berilib ketishining aniq epizodlariga murojaat qilamiz.

1) O'qituvchi beg'uborlikning turli xil ko'rinishlariga ega: vazminlik, qo'pollik, moslashuvchanlik yo'qligi; tartibning ozgina buzilishi ota-onasini g'azabini qo'zg'atadi, o'quvchining his-tuyg'ulariga beparvo, hatto o'quvchi bo'lsa ham, bolalarga hurmasizlik va shu bilan birga direktorning oldida – baqirish.

2) Xavfsizlik va qo'pollik namoyon bo'lish epizodlari:

- o'quvchining daftarida xatolikni aniqlagandan so'ng, o'qituvchi: "Hech narsa qo'lingizdan kelmaydi";

- O'quvchining ertangi kuni she'r o'qish istagiga javoban, 8 martga qadar rad etish va istamagan, ammo qanday qilib yaxshiroq o'qishni biladigan kishiga topshiriq berilgan.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinflarda pedagogik

konfliktlarni bartaraf etish tushunchasining mazmunini ifodalaydi. Shu sababli bu muammo bo'lan shug'ullanuvchi o'qituvchilar yoki o'qituvchilar guruhi konfliktlarni bartaraf etish mazmuni, xususiyatlari va yo'llari bo'yicha muayyan darajada malakaga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni barataraf etishga doir yondashuvlar. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishga doir mamlakatimiz va xorijlik pedagog olimlarning bir necha yondashuvlari mavjud. Bunday yondashuvlardan asosiy e'tibor konfliktlarni bartaraf etishda keng imkoniyatlarda ega bo'lishga qaratiladi. Shu jihatdan bu o'rinda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha eng muhim yondashuvlardan biri bo'lgan kommunikativ (foydali) yondashuv masalasiga e'tiboringizni tortamiz:

Kommunikativ yondashuvi quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1) bir shaxsdan ikkinchisiga, bir madaniy birlikdan boshqasiga axborot (g'oyalar, obrazlar, baholar, ko'rsatmalar) uzatish;

2) axborot almashinuvi ishtirokchilarini o'zaro bog'lab turgan liniya yoki kanal;

3) axborotni uzatish yoki qabul qilishga yordam beradigan o'zaro harakat, axborot uzatish yoki qabul qilish jarayoni.

Kommunikatsiyalarning asosiy vazifalari: odamlarning bir-biriga o'zaro ta'siri; turli g'oyalar, manfaatlar, kayfiyatlar, his-tuyg'ular bilan almashinuv.

Odamlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning xususiyatlari:

1) har biri faol subyekt bo'lgan ikki individning mavjud munosabatlari (bu holda ularning o'zaro axborot almashinuvi birgalikdagi faoliyat yo'lga qo'yilishini ko'zda tutadi);

2) hamkorlarning bir-biriga belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sir ko'rsatish imkoniyati (verbal va noverbal kommunikatsiyalar);

3) kommunikator (axborot yo'llayotgan odamda) va retsiipient (uni qabul qilayotgan odamda) yagona yoki o'xshash kodlashtirish va kodni ochish tizimlari mavjud bo'lgan

holdagina kommunikativ ta'sir ko'rsatish;

4) kommunikativ to'siqlar yuzaga kelish ehtimoli (bunday holda muloqot va munosabat o'rtasida mavjud bo'lgan bog'liqlik aniq va ravshan namoyon bo'ladi).

Muloqotning kommunikativ uslublari – bu boshqa odamlar bilan muloqot qilish jarayonida birga harakat qilish usullaridir.

Kommunikativ muloqotning o'n uslubi:

1) dominant – kommunikatsiyada boshqalar roli (o'rni, ahamiyati)ni kamaytirishga yo'llangan strategiya;

2) dramatik – ma'lumot (xabar) mazmunini bo'rttirish va unga emotsional bo'yoq berish;

3) bahsli – kommunikativ muloqotning tajovuzkor yoki isbotlashga qaratilgan uslubi;

4) tinchlantiruvchi – bo'shashtiradigan, maqsadi, ayniqsa, konfliktli vaziyatlarda hamsuhbatining xavotirini kamaytirishga qaratilgan muloqot uslubi;

5) taassurotli – muzokaralar bo'yicha hamkorda taassurot qoldirishga qaratilgan strategiya;

6) aniq – xabarning aniq-ravshanligiga qaratilgan;

7) e'tiborli – hamsuhbatlar kommunikativ muloqot jarayonida nimalarni so'zlayotganiga qiziqish bildirish;

8) ko'tarinki (ruhlangan) – noverbal axloq – ko'z, imo-ishora, tana harakatlari kabilardan tez-tez foydalanish;

9) do'stona – hamsuhbatini ochiq rag'batlantirish va uning muloqotga qo'shgan ulushidan manfaatdorlik;

10) ochiq-oydin – o'z fikri, his-tuyg'ulari, emotsiyalari, o'zligini, shaxsini namoyon etadigan jihatlarini qo'rqmay ifodalashga bo'lgan intilish.

Kommunikatsiya kanali – ular yordamida yoki ular orqali axborot uzatiladigan vositalar yoki yo'llar.

Kommunikatsiya kanal turlari:

1) bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) – bunda axborot bevosita axborot tashuvchidan xabardor shaxsga uzatiladi;

2) bilvosita – bunda axborot uchinchi shaxslar orqali uzatiladi;

3) rasmiy – aniq va ishonarli axborotni taqdim etadi;

4) norasmiy – ishonchli manbalarga ishora qilmagan holda mish-mishlar, fikr almashinuvi orqali tekshirilmagan axborot taqdim etadi.

Kommunikatsiya quyidagi sabablar tufayli konflikt manbai bo'lib kelishi mumkin: fikrlar, qarashlar, voqealarni baholashdagi farqlar; voqea-hodisani ikki xil talqin qilish; odamlar axloqi (o'zini tutishi)dagi farqlar.

Odamlar axloqiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi: hayot tajribasi, muayyan vaziyat, shakllangan qarashlar yoki individning baholashga moyilligi.

Uch elementi: kognitiv (bilimlar), ularning affektiv (kuchli ehtirosalar), axloqiy (o'zini tutish shakli) mavjud.⁸ Bu elementlarga asosan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning yondashuvlari belgilab olinadi.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartarafetish metodologiyasi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodologik omillarini ishlab chiqishda metodika masalasiga maxsus yondashuvni taqozo etadi. ***Metod*** atamasi yunoncha bo'lib, ta'lim jarayonida taqdim etiladigan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish va bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar majmuini anglatadi. Biz tadqiqotimiz natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning quyidagi maqbul metodlariga asoslanish mumkin, degan fikrga keldik:

1. O'rganish metodi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning bu metodi mazkur muammoni maxsus o'rganish mazmuniga ega. Bizning yondashuvimizga ko'ra, Sinf rahbari maxsus tuzilgan Ishchi guruh a'zolari bilan birgalikda boshlang'ich sinf o'quvchisida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganish uchun o'quvchilarning ruhiyati, bilimga qiziqishi, axloqiy hatti-harakati va o'zgalarga munosabatiga e'tibor berishi kerak. Har bir o'quvchi mana shu jihatlar bilan o'zidagi pedagogik

⁸ Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. 164-166-бет

konfliktlarning ko'rinishi, shakli yoki turini namoyon qiladi. Shu sababli O'rganish metodi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning poydevori hisoblanadi.

2. *Aniqlash metodi.* Bu metodga ko'ra, Sinf rahbari boshlang'ich sinf o'quvchisida mavjud bo'lgan pedagogik konfliktlarni tiplarga ajratishi kerak. Misol uchun, bizning tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsidagi ziddiyatlar, o'rtoqlariga nisbatan munosabatidagi ziddiyatlar, ota-onasiga nisbatan injiqlik, xudbinlik, me'yorsiz erkalik kabi pedagogik konfliktlarning shakllari uchraydi. Shu sababli Sinf rahbari boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash jarayonida ularni tiplarga bo'lishi shart.

3. *Tushuntirishmetodi.* Mazkur metodga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rganilgan va aniqlangan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ishiga kirishiladi, buning uchun Sinf rahbari maxsus tuzilgan Ishchi guruh va maktab jamoasiga ma'lumot bergan holda o'quvchining ota-onasiga tushuntirish beradi. Ota-ona o'z farzandidagi pedagogik konfliktlarning muayyan ko'rinishi, shakli yoki turi mavjudligidan xabardor bo'lishi, uni o'qituvchi tomonidan bartaraf etish zarurligini tushunishi kerak. Shu sababli pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning Tushuntirish metodi o'quvchi, Ishchi guruh, maktab jamoasi va ota-onalarni birgalikda harakat qilishga undovchi motivatsiya hisoblanadi.

4. *Baholash metodi.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning bu metodi o'rganilgan, aniqlangan va tushuntirilgan majmualar asosida amaliy ishlarni (tadbirlarni) amalga oshirishni ifodalaydi. Ungako'ra boshlang'ich sinf o'quvchisida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishi, shakli va turining ko'lamini baholanadi, bu baholash asosida ularni bartaraf etish choralari belgilanadi. Bizning yondashuvimizga binoan bu ish Sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Zero boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning O'rganish, Aniqlash,

Tushuntirish va Baholash metodlari ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli biz bu metodlarga tayanib boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishi, shakli va turini kutilgan darajada bartaraf etish mumkin degan xulosaga keldik.

Ingliz pedagog olimi Kurt Tomasning (XX asr) "Konfliktlarni tartibga solishni baholash metodikasi" biz uchun maqbul bo'ldi.⁹ Bu metodikaga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish asoslari mavjud. Bu o'rinda mazkur metodikani keltiramiz (berilgan javoblardan bittasi belgilanishi kerak):

1. a) Men ba'zida muammolarni hal etishda o'zgalarga imkoniyat beraman.
b) Muammolarni muhokama qilishda men hamkorim bilan kelishuvchanlik tarafiga e'tibor beraman.
2. a) Men muammolarni hal etishda murosaga kelaman.
b) Men o'zgalarning ham manfaatini hisobga olaman.
3. a) Men o'z qarorimda turib olaman.
b) Ba'zida men o'zgalarning manfaati uchun shaxsiy manfaatimdan voz kechaman.
4. a) Men har doim murosaga intilaman.
b) Men o'zgalarning his-tuyg'usi bilan hisoblashmayman.
5. a) Konfliktli vaziyatlarda men o'zgalarning yordamiga tayanaman.
b) Men har doim muammolardan qochaman.
6. a) Men o'zim uchun noqulayliklardan qochaman.
b) Men har doim maqsadimga erishishga intilaman.
7. a) Men muammolarni yechishni keyinga qoldiraman.
b) Men nimagadir erishish uchun ba'zi narsalardan voz kechish kerak deb hisoblayman.
8. a) Odatda men o'z maqsadimga intilaman.
b) Men birinchi bo'lib muammo mohiyatini belgilashga intilaman.
9. a) O'ylaymanki har doim ham kelishmovchiliklarga

⁹ Bardovkaya N., Rean A. Pedagogika. -SPb.: "Piter". 2001. S. 288-290

e'tibor bermaslik kerak.

b) Men o'z maqsadimga yetishish uchun qat'iy intilaman.

10. a) Men o'z niyatimga erishish uchun harakat qilaman.

b) Men murosaga yo'lga intilaman.

11. a) Eng avvalo bahsning mohiyatini aniqlayman.

b) Men o'zgani tinchlantirishga intilaman.

12. a) Men bahsli vaziyatlar keltirib chiqaruvchi pozisiyadan chekinaman.

b) Men o'zgalarga fikrini bayon qilish uchun imkon beraman.

13. a) Men xolislikni taklif etaman.

b) Men faqat mening manfaatimni ro'yobga chiqishga intilaman.

14. a) Men o'zgalarga fikr-mulohazamni bildiraman va bu haqda ularning qarashlarini so'rayman.

b) Men o'zgalarga fikrimning mantiqli ekanligini bildirishga intilaman.

15. a) Men munosabatlarni saqlash uchun o'zgalalar bilan kelishaman.

b) Men ziddiyatga tushmaslik uchun bor imkoniyatlarni ishga solaman.

16. a) Men atrofimdagilarning his-tuyg'usiga tegmaslikka harakat qilaman.

b) Men atrofimdagilarni men bilan hisoblashishga da'vat qilaman.

17. a) Odatda men o'z niyatimga intilaman.

b) Men hamisha keraksiz murakkabliklardan qochaman.

18. a) Agar atrofimdagilar baxtli bo'lishni istasa, men ularga imkoniyat beraman.

b) Hamkorimga o'z fikrida qolishi uchun imkon beraman.

19. a) Men bahsning mohiyatiga e'tibor beraman.

b) Men kelishmovchilikni hal qilishga intilaman.

20. a) Men har doim kelishmovchiliklarni hal qilishga intilaman.

b) Men hamkorimiz uchun ham yaxshi yechim topishga harakat qilaman.

21. a) Muzokara jarayonida hamkorimga e'tibor qilmaslikka harakat qilaman.

b) Men har doim muammoni to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilishga intilaman.

22. a) Men o'zim va hamkorim uchun foydali qarorga intilaman.

b) Men o'z nuqtai nazarimda qat'iy turaman.

23. a) Qoidaga binoan men hammaning roziligiga harakat qilaman.

b) Ba'zida bahsli muammoni hal etishni o'zgalarga qoldiraman.

24. a) Agar o'zgalarning nuqtai nazari ma'qul bo'lsa men ularga qo'shilaman.

b) Men o'zgalarni murosaga kelishga ko'ndiraman.

25. a) Men o'zgalarni o'z nuqtai nazarimga ko'nikishga da'vat qilaman.

b) Men muzokara davomida o'zgalalar diqqatini dalillarga qarataman.

26. a) Men odatda o'rta pozitsiyani egallayman.

b) Men odatda o'zgalarning manfaatlari bilan hisoblashaman.

27. a) Men bahslardan qochaman.

b) Men yetakchi shaxslarga yon bosaman.

28. a) Odatda men o'z nuqtai nazarimni o'tkazishga intilaman.

b) Men odatda o'zgalarning qo'llab-quvvatlashiga tayanaman.

29. a) Men o'rtacha pozitsiyani taklif etaman.

b) O'zgalarning turli fikrlarda bo'lishini o'ylayman.

30. a) O'zgalarning his-tuyg'ulariga tegmaslikka harakat qilaman.

b) Men o'zgalalar bilan teng muvaffaqiyatga erishishga intilaman.

So'rovnomaning kaliti:

Birgalikda harakat: 3 a, 6 b, 8 a, 9 b, 10 a, 13 b, 14 b, 16 b, 17 a, 22 b, 25 a, 28 a.

Hamkorlik: 2 b, 5 a, 8 b, 11 a, 14 a, 19 a, 20 a, 21 b, 23 a, 26 b, 28 b, 30 b.


Murosasozlik: 2 a, 4 a, 7 b, 10 b, 12 b, 13 a, 18 b, 20 b, 22 a, 24 b, 26 a, 29 a.

Muammodan qochish: 1a, 5 b, 7 a, 9 a, 12 a, 15 b, 17 b, 19 b, 21 A. 23 b, 27 a, 29 b.

Moslashuvchanlik: 1 b, 3 b, 4 b, 6 a, 11 b, 15 a, 16 a, 18 a, 24 a, 25 b, 27 b, 30 a.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zaruriyat hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang'iya sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish masalalari bo'yicha ta'kidlangan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish tavsiya etiladi. E'tibor bering:



4-rasm. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish masalalari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish tushunchasi nimalarni anglatadi?

2. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishga doir yondashuvlardan nisbatan qaysi biri keng imkoniyatlarni beradi?

3. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodologiyasini bilasizmi?

4. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodologiyasini konspekt qiling.

Modul bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. – Toshkent, 2020.

2. Umarova Z.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – Toshkent, 2021.

3. Kanatayev Yu.A. Psixologiya konflikta. – Moskva, 1992.

4. Zorkin.

2-Modul. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyalari

5-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning hamkorlik texnologiyasi

Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ota-onalar bilan hamkorlik.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda maktab jamoasi bilan hamkorlik.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislar bilan hamkorlik.

Tayanch tushunchalar:

Boshlang'ich, ta'lim, konflikt, bartaraf etish, hamkorlik, ota-onalar, jamoa, mutaxassis.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning hamkorlik texnologiyasi masalalariga doir pedagogik konfliktologlarning asarlarida munosabat bildirib o'tilgan. Ayni paytda, mazkur masala bo'yicha o'ziga xos texnologiya ishlab chiqilgan emas. Shu jihatdan bu o'rinda biz tomonimizdan shakllantirilgan hamkorlik texnologiyasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ota-onalar bilan hamkorlik. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "ta'lim va tarbiya jarayoniga ota-onalarni faol ishtirok etishga jalb etish" vazifasi qo'yilgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'quvchi voyaga yetayotgan oilaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda metodik yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakat aholisining yarmidan ko'p qismini yoshlar tashkil qilishi, o'sib borayotgan yosh avlodni jamiyatda mustaqil yashashga tayyorlash vazifasining dolzarbligi yoshlarni jamiyat hayotiga va oilaviy turmushga tayyorlash ishlarini jadallashtirishni talab etadi. Insonlarning o'zaro munosabatlarida keskinliklarning o'sib borayotganligi, zamonaviy ziddiyatlarning inson tafakkuri va ongiga ta'sir etishi orqali uning psixologik holatida salbiy va asabiy oqibatlarining vujudga kelishi, yosh oilalardagi ajrim holatlarning muntazam o'sib borayotganligi, bolalar va o'smirlardagi agressiya holatlarining vujudga kelayotganligi kabi muammolar talaba-yoshlarni oilaga tayyorlash vazifasini to'laqonli olib borish talabini kun tartibiga qo'yadi.

Darhaqiqat, oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g'amxo'rliqi oiladagi farzandlar munosabatlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ona qizida muloyimlik, shirinsuxanlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarini tarbiyalash bilan birga, unga uy-ro'zg'or yumushlarini o'rgatish ham lozim. Ota o'g'lida to'g'ri so'zlik, mehnatsevarlik, olijanoblik, fidoiylik, sahovatpeshalik kabi xislatlarni shakllantirishi bilan birga, uyda erkaklar bajaradigan barcha yumushlardan xabardor qilishi kerak.

Ayrim statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi intensiv turmush tarzini kechirayotgan oilalarda ideal siymoga yaqin ota haftasiga farzandlar tarbiyasi uchun atigi 1,5 soat, ona – 4–5 soat, ish bilan mashg'ul deb qaraluvchi ota – 12 daqiqa, ona – 3 soat vaqtini ajratar ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu ajratilgan vaqt bolalarning barkamol shaxs sifatida qaror topishida yetarli emas¹⁰.

Yana muhim masalalardan biri ichkilikbozlik, kashandachilik inson sog'lig'iga, oilasiga, nasliga, jamiyatimizga qanchadan-qancha noxushliklar olib kelmoqda. Bu masalada davlatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan,

¹⁰ X. Ibragimov., Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 127–129 betlar.

ammo unga salbiy illat sifatida qarab, yeng shimarib kurashmoqdamizmi? Umuman, uning oqibati haqida o'ylab ko'ryapmizmi? Fikrimizcha, "menga nima" qabilida ko'proq tomoshabinga aylanib qolgandaymiz. Bu vaqtda esa to'ylarimiz, tug'ilgan kunlar, gap-gashtalarda dasturxonimizning asosiy bezagi spirtli ichimliklar bo'lib qolmoqda. Eng achinarlisi, bu tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlardan iborat. Ular to'ylarda, tug'ilgan kunlarda, gap-gashtalarda shunchaki hordiq chiqarishlarda sog'liq uchun deb ko'tarayotgan qadahlarning organizmga salbiy ta'sirini bilisharmikan? Oila iqtisodiyotini, oila rishtasini, jamiyatimiz farovonligini buzayotganliklari, ayniqsa, yosh avlodga ta'sirini-chi? Ko'plab noxush holatlar, bezoriliklar, hatto jinoyatlar ushbu tadbirlarda "to'yib ichish" oqibatida sodir bo'lmoqda. Vaholanki, yosh bolalarda asosan kattalarga taqlid qilish kuchli bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarda kattalarni araqqa mukkasidan ketishlarini ko'rib, hayot gashti shunday surilar ekan-da, degan tushunchalarga borib qolmasmikan?

Bu masala yuzasidan mahalla oqsoqollari kengashida aniq, samarali tadbirlar ishlab chiqilganmi? Mahalla faollari ushbu masalani hal etishda o'z-o'zidan ma'lum. Keling spirtli ichimlikning asorati haqida ilmiy ma'lumotlarga tayanigan holda fikr yuritish mumkin.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, 1000 ga yaqin aqli zaif bolalarning 500 nafarining onasi, 70 nafarining ota yoki onasi spirtli ichimlik iste'mol qilar ekan. Fransuz vrachi Demma yigirma sakkiz yil davomida eri ham, xotini ham ichkilikka berilgan. O'nta oilani kuzatgan. Bu oilada tug'ilgan 57 nafar bolaning 25 nafari bir yoshga yetmay o'lgan, 5 nafari tutqanoq, 5 nafarining bosh miyasi suyuq, 12 nafari ashaddiy jinni bo'lib o'lgan. Faqat 10 nafarigina nisbatan sog'lom tug'ilgan.

Tutqanoq kasali bilan og'rigan har 100 boladan 60 nafarining ota-onasi ashaddiy ichkilikka ruju qo'yganligi aniqlangan. Ichkilik turli xil jinoyatni keltirib chiqaruvchi asosiy sabab hisoblanadi. Uning asosida oqibat qotillik, bezorilik va boshqa salbiy ko'rinishlar bilan tugallanmoqda. Dalillarga

e'tiborimizni qarataylik: 70 foizga yaqin qotillik, 80-90 foiz bezorilik asosan mastlik vaqtida sodir etilar ekan. Faraz qilaylik agar spirtli ichimlikni iste'mol qilish 35 foizga kamaytirilsa, qotillik 40 foizga, bezorilik 25 foizga kamayadi. Demak, milliy mafkuramizda belgilangan xalq farovonligi, komil inson tarbiyasi uchun kurashishimizda, avvalambor, ichkilikbozlik masalasiga millatimizdagi illat sifatida qarashimiz lozim. Yana dalillarga murojaat etamiz: 100 gramm araq ichish jismimizdagi faol ishlayotgan 7500 ta to'qimani ishdan chiqaradi. 75 gramm araq iste'mol qilgandan so'ng mushaklarning kuchi 20-40 foizga kamayadi. Endi bayram, tug'ilgan kun, to'y yoki do'stlar davrasida to'yib, me'yordan oshirib ichgan ishchi, xizmatchining ertangi kun mehnat unumdorligini tasavvur eting¹¹.

Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish bolalar va ayollarga tez ta'sir etadi. Ayol uchun alkogolizmga ruju qo'yish 2-3 yilni tashkil etsa, 13-14 yoshdagi o'g'il yoki qiz bolaga iste'mol qilgan bir qadah vino organizmga bir shisha aroq kabi ta'sir etadi. Afsuski, yoshlar o'rtasida araq, vino, pivoga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Bizningcha, alkogolizmga jiddiy illat sifatida qarashimiz, ularni keng yoyilishiga sabab bo'layotgan tadbirlar yuzasidan samaradorli faoliyat yuritishimiz lozim. Barkamol shaxsning shakllanishi subyektiv va obyektiv omillarga bog'liq. Oilada har bir ota-ona bosh pedagog hisoblanadi. Ular farzandlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu borada esa har bir ota-ona yetarli bilim va tushunchaga ega bo'lishi lozim.¹²

Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda o'qituvchi tomonidan ota-onalar bilan amalga oshiriladigan hamkorlikda ana shu yondashuvlarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda maktab jamoasi bilan

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika "Milliy g'oya va mafkura", "Oila" ilmiy amaliy markazlari hamda TDPU hamkorligida "Yoshlarni oilaparvar ota-onalikka tayyorlashda oilaning o'rni" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 29-mart, 2013-yil. - 224-225 betlar.

¹² Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. - Т., 2020. 234-237-б

hamkorlik. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda maktab jamoasining hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bunda har bir o'qituvchi muayyan vazifani amalga oshiradi. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor bering:

Vositachilik – bu ko'ngillilik asosida maxfiy, ya'ni konfidensial tarzda uchinchi, neytral, har ikkala tomoniga ham xolis bo'lgan tomon, ya'ni vositachi – dalo'lining bahs qilayotgan tomonlarga konflikt yechimini topishdagi yordami hisoblanadi. Mediator vositachining vazifasi – konflikt nimadan boshlangani, kim aybdor ekanligi, kim haq kim nohaq ekanligini emas, balki muammoni kelishuvga olib keladigan yo'llarni o'rganib, ularni topishdir. Vositachi bahslashuvchi tomonlarga birgalikda ikkala tomonni ham qanoatlantiruvchi hamda ikkala tomon ham o'zini g'alabaga erishgan deb hisoblovchi yagona to'g'ri yo'lni topishiga yordam berishdan iborat.

Vositachi bu vazifani har ikkala tomon bilan muntazam olib boriladigan muloqotlar orqali amalga oshiradi. Vositachi kelishuv jarayonining har ikkala tomon uchun ma'qul bo'lgan qonun-qoidalarini belgilab beradi, har ikkala tomonga konflikt kelib chiqishi va muammolari bo'yicha o'zining versiyasini so'zlab berishga imkon yaratadi, diqqat bilan har ikki tomon so'zlarini eshitadi, qiziqtirgan savollar beradi, kelishuv uchun asos qidiradi hamda aqliy hujum orqali yechimga kelish imkoniyatini topadi. Vositachilik har qanday konfliktlar yechimini qidirish uchun qulay va foydali mexanizmdir. Vositachilik yo'li bilan tarixda juda ko'p xalqaro, milliy, huquqiy, ekologik hamda shaxsiy konfliktlar o'z yechimini topgan.

Vositachilik jarayonining muhim shartlaridan biri vositachi shaxsidir. Masalan, xalqaro konfliktlarda, vositachi rolidagi tomon, har ikkala xalqning fikri va o'ylari, urf-odatlar, stereotip toifalari va xatolari bilan yaxshi tanish bo'lish lozim. Vositachi, eng avvalo, har ikkala tomon ham to'liq ishonadigan, uning xolis ekanligini anglaydigan odam bo'lishi shart. Kelishuv jarayoni har doim vositachi uchun g'oliblik nishonasi emas. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Jimmi Karter kelishuv

jarayonidan oldin kechgan ko'pdan-ko'p detallarga alohida to'xtalib o'tgan edi. Masalan: qachon va qayerda muzokaralar o'tkazish lozim; muhokamalar maxfiy bo'lishi kerakmi yoki ochiq tarzda o'tishi lozimmi, kim asosiy vositachi bo'lishi lozim, kimlar muhokamada qatnashishi, qanday masalalar yozma tarzda bayon etilishi va qaysi yozma materiallarni saqlab qo'yish hamda qaysilaridan qutulish lozim, muzokaralar natijalari qayerda va kim tomonidan e'lon qilinish kerak va shu kabilar. Shu bilan birga, har qanday konflikt yechimida muhokamaga qo'yilayotgan masalalar tartibi kelishib olinishi zarur.

Jarayonning murakkabligiga qaramay vositachilik mo'jizalar yaratadi. Vositachilik juda ko'p xalqaro konfliktlar yechimida qo'l kelgan. Vositachilik sizning o'quv muassasangiz uchun ham juda foydali bo'lishi mumkin. Dunyo bo'yicha minglab maktablarda mediatsiya dasturlari mavjud. Agar Siz ham o'z maktabingizda ana shunday mediatsiya dasturiga muhtoj bo'lsangiz o'zingiz uni amalga oshirishingiz mumkin.

Mediatsiya – vositachilikning asosiy qoidalari:

- 1) konflikt yechimini qidirishga xohish va iroda.
- 2) faqat haqiqatni so'zlash.
- 3) gapni bo'lmasdan eshitish.
- 4) birovning nuqtayi nazariga hurmat-e'tibor, hech qachon uni yerga urmaslik.
- 5) ikki tomonlama shartnomaning qarorlarini amalga oshirish uchun majburiyatni o'z zimmasiga olish.

Mediatsiya (vositachilik)ning besh asosiy ustunliklari:

1) Kelishuv jarayonida sizni hech kim xafa qilishga, nafsoniyatingizga tegishga harakat qilmaydi. Vositachilik sizning xavfsizligingiz va do'stona muzokaralar jarayonining garovidir.

2) Vositachilik mutlaqo maxfiy jarayon. Agar Siz o'zingizni nomaqbul tutsangiz ham, sizning harakatlaringizdan hech kim xabar topmaydi.

3) Siz haqiqatdan ham u yo bu narsalarni o'rganishingiz mumkin. Muhokama jarayoni sizga qarshi tomonning fikr-o'ylarini tushunishga, anglashga imkon yaratadi. Siz qarshi

tomonni dushman taraf sifatida emas, balki inson sifatida qabul qila boshlaysiz.

4) Vositachilik erkin faoliyatdir.

5) Vositachilik, albatta, zaruriy ehtiyoj bo'lib, unda hech kim nima qilish lozimligini aytmaydi. Chunki Siz va opponentingiz har bir qarorni o'zingiz ishlab chiqasiz va o'zingiz unga rozilik bildirasiz. Har bir yechim bu sizning va faqat sizning qaroringizdir.

"G'oliblik strategiyasi"

Nima uchun konfliktlar yechimini o'rganish lozim? Chunki bu bilimlar hayotiy zaruratdir. Agar tinch, osuda hayot kechirishni istasangiz, konfliktlar yechimini o'rganish zarur. Bu bilim va malakalar sizning muvaffaqiyat va yutuqlaringiz, sizning ravnaqingiz garovidir. Konfliktlar yechimini topa bilish – bu ikki qarama-qarshi tomonlarning g'olibligi asosidagi eng oson kelishuv yo'lidir. Konfliktlar yechimi – eng ijobiy va yaxshi munosabatlarni shakllantira bilish, ular muntazamligini saqlash iste'dodidir.

Ammo G'olib-G'olib yo'nalishida ishlash, uni ta'minlash hamda ikki tomonni G'olib-G'olib shart-sharoitlariga olib kelish oson ish emas. Bu bilim va malakalar insonda tarbiyalangan va yoshlikdan uning psixologik va emotsional, etik va estetik qadriyatlarini tizimiga, tafakkuriga singdirilgan bo'lishi kerak. Agar bu bilim, ko'nikma va malakalar tarbiyalangan bo'lsa, konfliktni sezgan zahoti, uning qanday rivojlanib kelayotganligini tahlil etish, uning rivojiga qarshi ma'lum choralar ko'rish, uning "olovini" o'chirish imkoniyatlarini ishga solish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, ko'pchilik hollarda biz konfliktning kelib chiqishi mumkinligini sezsak ham, uning oldini olish choralarini ko'rishda "bee'tiborlik", "erinchoqlik" qilamiz va odatdagi kundalik ishlar girdobida uning chuqurlashib ketganligini faqat kuzatib boramiz xolos.

Odamlarning idrok qilish qobiliyati turlicha. Insonning idroki, ya'ni uning narsalarga qarab ularni anglashi ko'p obyektiv va subyektiv faktorlarga bog'liq bo'ladi. Tajriba,

ma'naviy qadriyatlar, his-tuyg'ular, psixologiya, shaxs tafakkuri, ular ehtiyojlari ana shunday faktorlardandir. Mana shu idrok qilishdagi farqlar konfliktga olib kelishi mumkin. Ko'pchiligimiz hayotimiz davomida o'zimizni ba'zi an'anaviy va jamiyat tomonidan qabul qilingan talablar asosida chegaralashga harakat qilamiz. Konflikt yechimida ana shunday chegara "G'olib-Mag'lub" strategik usuliga teng keladi. "G'olib-Mag'lub" holati bizning ongimizga o'rnashib qolgan noto'g'ri tamoyildir. Ya'ni, ziddiyatga kirayotganda biz "G'olib-G'olib" strategiyasi mavjudligini bilmasak, undan bexabar bo'lsak, bizning ongimizda mavjud stereotoifa ishlay boshlaydi, bu stereotoifa esa – men, albatta, g'olib chiqishim kerak, opponentimga keskin "qarshilik" ko'rsatishim kerak, degan noto'g'ri tafakkurga asoslangan bo'ladi. Buning mazmuni shundaki, konflikt yechimini qidirganda biz faqat shu chegara doirasida fikr yuritib, yangi usullarga yo'l bermaymiz. Shu bois, konflikt yechimida "G'olib-G'olib" strategiyasiga yetishish uchun yangicha qarash, ijodiy yondashish, har turli variantlarni ko'rib chiqish talab qilinadi. Bu maqsadga yetishish uchun esa biz o'z dunyoqarashimizni o'zgartirishimiz lozim. Shu bois, biz "G'olib-G'olib" strategiyasi uchun quyidagi tamoyillarni tavsiya etamiz.

"G'olib-G'olib" strategiyasiga amal qilish uchun nima harakatlar qilish kerak?

Birinchi qadam: opponentingiz nimani istaydi va nima uchun aynan shuni istaydi, bilib oling.

Ikkinchi qadam: sizning va opponentingizning fikridagi qarama-qarshilikda ba'zi bir umumiy tomonlar, ularni o'xshash qilib turgan nuqtalar mavjudmi, shuni aniqlang.

Uchinchi qadam: sizning va opponentingizning muammoga qaratilgan yechim variantlari qanday? Ularni aniqlang.

To'rtinchi qadam: konflikt muhokamasini hamkorlikda amalga oshiring. Siz o'zingizcha, opponentingiz o'zicha variantlarni o'ylasa, orangizda yana uzilish bo'ladi. Jarayon birgalikda harakat qilish asosida tashkil qilinsa, orada ishonch

va hamkorlik yuzaga keladi. Siz esa o'z opponentingizga qarshi tomon sifatida emas, balki hamkor sifatida qarayotganligingizni ko'rsating. Hamkorlik yo'li har doim birga sa'y-harakat qilish yo'li bo'lib, tomonlar munosabatini yaqinlashtirishga yordam beradi.¹³

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda keng imkoniyatlarni beradi. Shu jihatdan maktab jamoasining hamkorligini tashkil etish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1) Sinf rahbari boshchiligida pedagogik konfliktlarni bartaraf etuvchi maktab jamoasi vakillari ishtirokida guruh tuziladi;

2) guruh a'zolarining har birini vazifalari belgilab beriladi;


3) pedagogik konfliktlarni bartaraf etish mexanizmlari belgilab olinadi;

4) sinflar kesimida pedagogik, psixologik va sosiologik yondashuvlar asosida pedagogik konfliktlar bartaraf etiladi.

Mazkur metodika maktab jamoasi ishtirokida boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda qulay imkoniyatlarni beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislar bilan hamkorlik. Bugungi kunda mamlakatimizda pedagogik konfliktlar muammolari bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar tarkibi yuzaga keldi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish uchun bunday mutaxassislar bilan hamkorlik qilish ham muhim ahamiyatga ega. Albatta, mamlakatimiz hududlarida bevosita pedagogik konfliktlar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar hali yetarli emas. Shu sababli bu borada bizningcha, texnika imkoniyatlariga tayangan holda ishlab chiqilgan "Masofaviy yordam" texnologiyasidan foydalanib turish tavsiya etiladi. Mazkur o'rinda e'tiboringizga biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ana shunday texnologiyalardan birini taqdim etamiz:

¹³ Шу манба. 244-248-бет



5-rasm. "Masofaviy yordam" texnologiyasi tuzilmasi

Mazkur "Masofaviy yordam" texnologiyasi tavsifi quyidagilardan iborat:

1) maxsus kompyuterli dastur asosida boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha mutaxassislarning hamkorligiga asoslangan matnlar, savollar, mezonlar va topshiriqlar ishlab chiqilib, joylashtiriladi;

2) ushbu koampyuterli texnologiyaning ma'lumotlar bankida quyidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topadi:

a) M1- mazkur ma'lumotlar bankida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha mutaxassislarning bosma va ovozli tavsiyalari joylashtiriladi;

b) M2- bu ma'lumotlar bankiga boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigshan pedagogik konfliktlarni bartaraf

etish bo'yicha mutaxassislarning multimediali, tasvirli va elektron ma'lumotli metodikalari kiritiladi;

v) M3-ushbu ma'lumotlar bankida boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan pedagogik konfliktlarga doir turli roliklar mavmui joylashtiriladi;

g) M4- bu ma'lumotlar bankida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bevosita treninglar o'tkazish mexanizmlari joylashtiriladi;


3) mazkur texnologiya asosida mutaxassislar TV yoki kompyuterli dastur asosida masofadan turib boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinf rahbarlari va pedagogik konfliktlarni bartaraf etuvchi guruh bilan muloqot o'tkazadi hamda masofadan turib bevosita boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ishtirok etadi;

4) bu texnologiyani umumiy o'rta ta'lim maktablarining maxsus kompyuter sinflarida ham joylashtirilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi, undan maktab jamoasi mustaqil foydalanadi va zaruriy hollarda masofadan turoib ushbu texnologiya vositasida mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi.

E'tibor berilsa. "Masofaviy yordam" kompyuterli texnologiyasi foydalanish uchun qulay va oson mexanizmlarga asoslanadi. Kelgusida bu kabi texnologiyalarni takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislar bilan hamkorlik texnologiyalari majmuini yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning hamkorlik texnologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning asoslarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tibor bering:



6-rasm. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning hamkorlik texnologiyasi mazmuni

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ota-onalar bilan hamkorlik qanday mexanizmlarga asoslanadi?

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda maktab jamoasi bilan hamkorlik asoslari nimalardan iborat?

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislar bilan hamkorlik deganda nimani tushunasiz?

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda maktab jamoasi bilan hamkorlik asoslarini konspekt qiling.

6-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarning bartaraf etishning elektron-modulli texnologiyasi

Reja:

1. Elektron –modulli texnologiyalarning mazmuni.
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etish shakli.
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etishning samaradorligi.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, pedagogika, konflikt, elektron, modul, texnologiya, bartaraf etish, shakl, samaradorlik.

Elektron-modulli texnologiyalarning mazmuni.

Mamlaktimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llanish jarayoni kechmoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning zamonaviy *elektron-modulli* texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda ana shu texnologiyaning mazmuni masalasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Elektron-modulli texnologiya pedagogik nuqtai nazardan idrok etilishi uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- a) texnologiyaning elektron resurslarga asoslanishi;
- b) texnologiyaning elektron resurslar imkoniyatlariga binoan modullashganligi;
- v) texnologiyada pedagogik nuqtai nazardan yondashish kerakligi.

Elektron resurslar – bu kompyuter, TV, radio, Internet tarmog'i kabi vositalar asosida texnologiya uchun zamin bo'ladigan majmuadir. Elektron resurslar ma'lumotlarni texkor, yangicha va qulay vositalarga asosan tayyorlash hamda virtual tarzda uzatish imkoniyatlarini beradi.¹⁴ Shu jihatdan mazkur masalada elektron resurslarga asoslangan elektron –modulli texnologiyani ishlab chiqishda ta'lim va tarbiyada samaradorlik

¹⁴ Мардонов Ш. Электрон-модулли дидактик таъминотни ишлаб чиқиш технологияси. – Тошкент, 2021

masalasiga ustuvor darajada e'tibor qaratiladi. Aslida mazkur resurslar "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv fanining ob'yekti bo'lib, keyingi paytlarda ular pedagogik texnologiyalar tomonidan ham qabul qilinganligini eslatib o'tish joiz.

Modulli yondashuv – bu o'quv matnlarini muayyan mavzu doirasida aniq va maqsadli metod asosida bir tizimli qurilmagan keltirish jarayonidir, modulli qurilmada o'quv materiallarining turli multimediali hamda tasvirli vositalar bilan boyitish imkoniyati mavjud. Elektron resurslar vositasida modullashtirilgan te'xnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonini tezlashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirishida ularning mustaqilligini kuchaytirish va matnlarni yangi ma'lumotlar asosida boyitib borishga qaratiladi. Bundan keyingi paytlarda kompyuter texnikasi vositasida elektron –modulli texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan virtual tarzda foydalanishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Elektron –modulli texnologiyaga pedagogik nuqtai nazardan yondashish zaruriyat hisoblanadi. Bunda didaktik (o'qitish) ta'minotini elektron resurslar vositasida ishlab chiqish, ulardan foydalanish metodlarini belgilash va texnologiyaning samaradorligini baholash mezonlari belgilab qo'yiladi. Buning natijasida elektron-modulli texnologiyadan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlariga erishiladi. Ta'kidlash lozimki, bu texnologiyada ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar teng va faol ishtirok etadi hamda texnologiya tezkorlik xususiyatiga ega bo'lganligi bilan qiziqarli hisoblanadi.


E'tibor berilsa, elektron-modulli texnologiyaning mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etish shakli.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish uchun elektron-modulli texnologiyalarning imkoniyatlari keng. Bunday texnologiyani ishlab chiqish uchun kompyuter kabi

texnik vositalarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda bu o'rinda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan elektron-modulli texnologiyaning namunavif shakliga jdiqatingizni tortamiz

Texnologiya bu 1) shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini mujassamlashtirgan hamda yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik hodisa; 2) ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uni boshqarish, pedagogik va o'quv faoliyatini tashkil qilish usullari majmuidir. Shu jihatdan texnologik yondashuv ta'limning aniq kutilgan natijalariga ega bo'lish jarayonini anglatadi. Mazkur yondashuv asosida biz yuqoridagi metodlarni amaliyotga tatbiq etish uchun zamonaviy **"Renessans"** nomli kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqdik. Bu texnologiyaning tarhi quyidagicha:



7-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning "Renessans" kompyuterli texnologiyasi

Mazkur kompyuterli texnologiyaning tavsifi

quyidagilardan iborat: unga ko'ra, O'qituvchi (bizning yondashuvimizda Sinf rahbari) kompyuterda shakllantirilgan mazkur texnologiyaga asosan boshlang'ich sinf o'quvchisi yoki o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni ilmiy, pedagogik va amaliy jihatdan bartaraf etadi. Bunda:

M_1 - ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmui (qonun, Prezident farmonlar va qarorlari, davlat ta'lim standartlari va h.k.);

M_2 - konfliktologiya to'g'risida umumiy tushunchalar, ma'lumotlar va tushuntirishlar;

M_3 - pedagogik konfliktlar to'g'risida ma'lumotlar va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ko'rinishlari, shakllari hamda turlari;

M_4 - boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish zaruriyati to'g'risida tushuntirishlar va yo'naltirishlar;

M_5 - boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar;

M_6 - boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlari tavsifi.

M_7 - boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning maqbul metodlari.

M_8 - boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish mezonlari;

M_9 - pedagogik konfliktlarga doir zaruriy pedagogik, psixologik va sosial adabiyotlar, tegishli lug'atlar.

Ushbu "Renessans" nomli boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishi, shakli yoki turini bartaraf etishning kompyuterli texnologiyasi quyidagi xususiyatlar va imkoniyatlarga ega.

birinchidan, mazkur kompyuterli texnologiya o'qituvchi (bizning yondashuvimizga ko'ra Sinf rahbari) tomonidan amaliyotga tatbiq etiladi va boshqariladi;

ikkinchidan, kompyuterli texnologiya Ma'lumotlar banki dasturi yangilab borish va boyitish imkoniyatlariga ega;

uchinchidan, bu kompyuterli texnologiya o'qituvchi va o'quvchini vizual bog'laydi, kompyuter imkoniyatlaridan oqilona foydalanish imkonini beradi;

to'rtinchidan, mazkur texnologiya vositasida masofaviy ta'lim tarzida boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik konfliktlarini bartaraf etish imkoniyati mavjud;

beshinchidan, ushbu kompyuterli texnologiya o'quvchini qiziqtirish, tezkorligi va qulayligi bilan ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni ushbu "Renessans" nomli kompyuterli texnologiyada pedagogik konfliktlarni bartaraf etish *mezonlari* sifatida quyidagilarni belgiladik:

a) pedagogik konfliktlarni bartaraf etish zarurligi;

b) pedagogik konfliktlar shaxs rivojiga salbiy ta'sir etishini tushunish;

v) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning imkoniyatlari mavjudligi;

g) pedagogik konfliktlar maxsus yondashish asosida bartaraf qilinishi;

d) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning samarasiga erishish mumkinligi.

Mazkur mezonlar biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Renessans" nomli kompyuterli texnologiyani imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va unda qayta-qayta murojaat qilish ko'lami mavjudligi bilan innovasion yondashuv hisoblanadi.

Bunday texnologiyalardan foydalanish uchun ularning didaktik imkoniyatlariga diqqat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning asosiy didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fanlarni o'qitish jarayonidagi didaktik imkoniyatlar. Bu didaktik imkoniyatga ko'ra, boshlang'ich sinflarda (1-4-sinflarda) o'qitiladigan fanlar bo'yicha ta'lim berish jarayonida o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlarini ta'limiy asosda bartaraf

etish faktori mavjud. Bu borada ayniqsa, yangidan amaliyotga kiritilgan "Tarbiya" fani ta'limi jarayonidan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, biz tomonimizdan aniqlangan va boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'p uchraydigan pedagogik konfliktlardan biri o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlardir. Bu ziddiyatlar shaxsiy manfaatdorlik, qiziqish va "men" tuyg'usini ustun qo'yish natijasida yuzaga keladi, lekin ular o'tkinchi xususiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli 1-sinf "Tarbiya" fani imkoniyatlaridan unumli foydalanib o'quvchilardagi mazkur konflikt turini bartaraf etish mumkin. Masalan, darslikning 9-10- mavzusi "Har narsaning o'z o'lchovi bor" deb belgilangan. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida bolalar me'yor, chegara, o'zni tutish, o'zgalarga to'g'ri munosabatda bo'lish va vaqtni to'g'ri sarflash kabi qoidalarni o'zlashtiradi. E'tibor berilsa mazkur dars mashg'ulotlarida o'quvchilar o'rtasida uchraydigan o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish imkoni bor. Chunki bu mashg'ulotlar o'quvchilarni o'zgalar va boshqa narsalarga mehrli munosabatda bo'lish qoidalari bilan tanishtiradi.

Ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar mashg'ulotlari davomida o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlarini ta'limiy bartaraf etish imkoniyati mavjud. Shu jihatdan "Ona tili" va "Tasviriy san'at" fanlarini o'qitish jarayonida ham bunday didaktik imkoniyatlar yuqoridir. Ana shunday imkoniyatlardan foydalanishda sinf rahbari va fanlar o'qituvchilarining o'zaro hamkorligi taqozo etiladi.

2. Tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonidagi didaktik imkoniyatlar. Mazkur didaktik imkoniyatga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlari maxsus yondashuv asosida bartaraf etiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlardan biri o'quvchi shaxsidagi ziddiyat ko'p uchraydi. Unda o'quvchi xarakteri va xulq-atvorida injiqlik, atayin o'zini guruhdan tortish va beparvorik holatlari yuzaga keladi. Shu sababli bu konflikt turini tarbiyaviy mashg'ulotlar imkoniyatlariga tayanib bartaraf etish mumkin. Misol uchun,

sinf rahbari bunday konflikt turi mavjud bo'lgan o'quvchi bilan alohida suhbatlashishi, uning muammolarini aniqlashi va uni to'g'ri yo'naltirishi taqozo etiladi. Buning natijasida o'quvchi shaxsida uchraydigan ziddiyatlar bartaraf etila boradi. Shu jihatdan sinfda va sinfdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish didaktik imkoniyati yuqoridir.

3. *Maxsus mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari.* Ushbu didaktik imkoniyatga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlari maxsus mashg'ulotlar tashkil qilish vositasida bartaraf etiladi. Buning mexanizmi quyidagicha: sinf rahbari pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi ro'yxatini tuzadi, ular bilan pedagogik konfliktlarni bartaraf etuvchi suhbatlar, qiziqarli didaktik o'yinlar, ijodiy musobaqalar va muzeylarga tashrif singari maxsus mashg'ulotlar turlarini o'tkazadi. Bu ishda sinf rahbariga Ona tili, Tarbiya va Tasviriy san'at fanlari o'qituvchilari hamda maktab psixologi yaqindan yordam berishi taqozo etiladi. Chunki asosiy maqsad o'quvchilarda yuzaga kelgan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishdir va bundan barcha ta'lim ishtirokchilari manfaatdor hisoblanadi.

Zero bizning yondashuvimizga binoan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning ana shu *uch turli* didaktik imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Chunki bu didaktik imkoniyatlar turlari ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy yondashuvlarni o'zida mujassam etgan. Shu sababli biz mazkur didaktik turlar imkoniyatlariga tayanib boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlarni ta'limiy qonuniyatlar, bola huquqi ustuvorligi va jamiyat manfaatdorligi uyg'unliklari asosida bartaraf etishning muhim faktorlari deb hisoblaymiz. Negaki boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ana shu faktorlar ustuvor hisoblanadi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf

o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish *mexanizmi* shakllantirilish kerak. Bumexanizmda bizning yondashuvimizga ko'ra, Sinf rahbari asosiy vazifani bajaradi. Chunki, birinchidan, bugungi kunda sinf rahbari o'quvchilar ta'limi va tarbiyasi jarayonini tashkil etuvchi, uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy ta'lim ishtirokchisi hisoblanadi; ikkinchidan, davlat ta'lim standartlari va davlat talablarining boshlang'ich ta'limda sifatli bajarilishi nazorati sinf rahbari tomonidan olib boriladi; uchinchidan, sinf rahbari o'quvchilarning eng yaqin kishisi, ota-onalarning bosh maslahatchisi va davlatning boshlang'ich ta'limdagi maxsus vakilidir; to'rtinchidan, sinf rahbari har bir o'quvchini yaxshi biladi va har bir o'quvchi bo'yicha o'qituvchilarning bergan ma'lumotiga ega shaxsdir. Shu sababli biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish mexanizmida Sinf rahbari asosiy vazifani bajarishi kerak.

E'tibor berilsa boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etish shakli qulayligi, qiziqarliligi va keng imkoniyatlarga egaligi bilan o'zigav xos xususiyatlarni ifodalaydi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etishning samaradorligi. Elektron-modulli texnologiyalardan holda boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish samaradorligiga e'tibor berish alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda bu masalada quyidagilarga e'tibor berib:

Biz mazkur yondashuvimizdan kelib chiqib Sinf rahbarining *"O'quvchilarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish"* namunaviy dasturini shakllantirdik. Mazkur dasturning mazmuni quyidagicha:

1. *O'quvchilarda paydo bo'lgan pedagogik konfliktlarni aniqlash.*

- har bir o'quvchining bilimga qiziqishi, axloqi va xatti-harakatlarini o'rganish;

- har bir o'quvchining faolligini kuzatish;
- har bir o'quvchida uchrayotgan ziddiyatli holatlar va harakatlarni daftarga qayd etib borish;
- pedagogik konfliktlar ko'rinishlari uchraydigan o'quvchilar ro'yxatini shakllantirish.

II. O'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishga tayyorlanish.

- pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari mavjud o'quvchilar ro'yxatini shakllantirish;
- Ona tili, Tarbiya va Tasviriy san'at fanlari o'qituvchilari va maktab psixologi ishtirokida Ishchi guruh tuzish;
- pedagogik konfliktlar uchraydigan o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbat o'tkazish va uni Bayonnoma shaklida rasmiylashtirish;
- pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy shakllarini belgilash hamda bu jarayon haqida maktab Pedagogik kengashiga ma'lumot berish.

III. O'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish.

- pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi bilan suhbatlashish, ularning muammolarini tashkiliy jihatdan hal etish;
- Ishchi guruh bilan birgalikda pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi bilan maxsus mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar va musobaqalar o'tkazish;
- Ishchi guruh bilan birgalikda mazkur toifa o'quvchilarining muzeylarga, madaniy obidalarga va teatrlarga sayohatlarini uyushtirish;
- pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ishlarini maxsus daftarga qayd etib borish.

IV. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish natijalari tahlili.

- Ishchi guruh bilan birgalikda amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish;
- har bir o'quvchida bo'lgan ijobiy o'zgarishlarni baholash;
- tahlillar natijasini pedagogik xulosalash;
- amalga oshirilgan ishlar yakuni bo'yicha Ishchi guruh

bilan birgalikda Xulosa tayyorlash.

Mazkur Dastur asosida Sinf rahbari boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni maqsadli bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastur asosida oylik, choraklik yoki yillik muddatlarda faoliyat olib borish mumkin. Buning natijasidan o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab jamoasi hamda ota-onalar manfaatdor bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Dasturni amalga oshirishda Sinf rahbari tashkil etish, boshqarish va yo'naltirish vazifasini bajaradi. Ishchi guruh, ota-onalar va maktab jamoasi ishtirokchi hamda yordamchi ishlarni amalga oshiradi.


Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlari o'ziga xosligi bilan diqqatga sazovor.

Har bir jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Buyuk o'zbek xalqi qadim-qadimdan farzand, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelgan. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonlaridan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizni bugungi kundagi ahamiyati nechog'lik muhim ekanligini ko'rsatib bermoqda. Zero, hayotimizni mukammal ahloq tamoyillari asosida barpo qilish va albatta, ta'lim-tarbiya berib kelayotgan ertamiz ishonchi bo'lmish yosh avlodlarimizga bog'liqdir. Zotan mustaqil davlatimiz istiqboli uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarurdir.

Mazkur yondashuv asosida Sinf rahbari boshchiligidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etish guruhi uning samaradorligini aniqlaydi. Samaradorlik ko'rsatkichlari ijobiy natija bersa, kelgusi bartaraf etish tadbirlarigacha tanaffus e'lon qilinadi. Agar bartaraf etishning samaradorligi salbiy natijalarni bersa, pedagogik konfliktlarni bartaraf etish tadbiri qaytadan amalga oshiriladi. Samaradorlik ko'rsatkichini baholashda faqat ijobiy natijalar hisobga olinadi va aks holda, pedagogik konfliktlar

bartaraf etilmagan hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning elektron-modulli texnologiyasi zamonaviy xususiyatlarga egaligi bilan ahamiyatlidir. Bu texnologiya asoslarini oliy pedagogik tax'lim jarayonida o'zlashtirish tavsiya etiladi. E'tibor bering:



8-rasm. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning elektron-modulli texnologiyasi mazmuni

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Elektron -modulli texnologiyalarning mazmuni nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etish shakli deganda nimalarni tushunasiz?
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etishning samaradorligi qanday baholanadi?
4. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-

modulli texnologiya asosida bartaraf etish shaklini o'zlashtiring.

7-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi

Reja:

1. Masofaviy texnologiya mazmuni.
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanish mexanizmlari.
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanishning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, masofaviy texnologiya, mazmun, mexanizm, amaliy ahamiyat, bilim, ko'nikma, malaka.

Masofaviy texnologiya mazmuni. Masofaviy ta'lim-bu o'quv adabiyotlarining almashinish vositalari, ya'ni yer sun'iy yo'ldoshi, televideniya, radio, kopmyuter kabi aloqa vositalariga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan turib amalga oshiriladigan ta'lim shaklidir.¹⁵ Shu jihatdan masofaviy ta'lim quyidagi imkoniyatlarga ega ekanligi bilan o'ziga xos hisoblanadi:

- a) masofaviy ta'lim o'qishga ijobiy yondashuni ta'minlaydi;
- b) masofaviy ta'lim ta'lim oluvchilarga keng yo'nalishlar berish imkoniyatiga ega;
- v) masofaviy ta'lim o'quvchilarda bilim faoliyatini mustaqil tagshkil etish imkoniyatini beradi;
- g) masofaviy ta'lim o'quv materiallarida turli axborotlarni o'zlashtirish asoslari mavjud.

Masofaviy ta'lim masofadan turib o'quv-texnik vositalarga tayangan holda amalga oshirilishi bilan qiziqarli jarayon

¹⁵ Хасанбоев ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. -Тошкент, 2009. 263-бет

hisoblanadi. Misol uchun, kompyuter texnik vositasida amalga oshiriladigan masofaviy ta'lim tezkorligi, qiziqarliligi va o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltirishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Masofaviy ta'limdan pandemiya kabi ijtimoiy murakkab sharoitlarda foydalanish kutilgan amaliy samarani berishi mamlakatimizda COVID-19 pandemiyasi sharoiti davrida pedagogik tajribadan o'tdi.

Masofaviy ta'lim vositasida mamlakat miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish va ularda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ham muhim amaliy imkoniyatlarni beradi. Unga ko'ra, pedagogik konfliktlar bo'yicha mutaxassis televideniya yoki kompyuter vositasida mamlakatning muayyan hududidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishi mumkin. Bunday imkoniyat tezkorligi, vaqt tejamliligini va o'quvchilar qiziqadigan virtual munosabatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi.

Xorijiy mamlakatlardan Rossiya Federatsiyasi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim shaklidan keng foydalangan holda talabalarning pedagogik konfliktlarni kutilgan darajada hal etishda foydalanib kelinmoqda. Bunday tajribadan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.


Biz tomonimizdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi asoslari tahlil qilib chiqildi. Buning natijasida masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanishning mexanizmlari shakllantirilganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi mazmunida ana shunday yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Bu borada oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'nikmalarni egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli pedagogik turkumdagi fanlarni o'qitish jarayonida talabalarga masofaviy texnologiya to'g'risida nazariy bilim, ko'nikma va

malaka berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Masofaviy texnologiyani oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish va asosda boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ko'nikmasini egallash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki innovatsion jamiyat sharoitida barcha sohoalar qatorida ta'lim va tarbiyaviy tadbirlar ham masofaviy texnologiya asosida amalga oshiriladi. Negaki masofaviy texnologiyada insonning salbiy ta'siri omili bo'lmaydi va ob'ekt hisoblangan shaxsga ham ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari keng bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanish mexanizmlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning biz tomonimizdan kompyuter o'quv texnikasiga asoslangan "Konflikt" nomli masofaviy texnologiya shakllantirildi. Mazkur texnologiyaning tuzilmasi quyidagicha:



9-rasm. "Konflikt" o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi

Mazkur texnologiyaning tavsifi quyidagilardan iborat:

1-Blok. Kommunikativ blok. Ushbu blokda quyidagilar kiritilgan:

- a) pedagogik konfliktlar bo'yicha yondashuvlar;
- b) pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchilarni aniqlash mexanizmlari;

v) pedagogik konfliktlarni maktab jamoasi tomonidan o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar.

2-Blok. Amaliy blok. Mazkur blokda quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- a) pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodlari;
- b) pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha testlar, so'rovnoma, anketalar, jadvallar va diagrammalar majmui;
- v) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasidan foydalanish bo'yicha mexanizmlar.

3-Blok. Tahlil blok. Bu blokda quyidagilar kiritilgan:

- a) pedagogik konfliktlarning masofadan turib bartaraf etilganligini aniqlash mezonlari;
- b) masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda pedagogik konfliktlarning bartaraf etilganligi ko'rsatkichlarini aniqlash;

v) masofaviy texnologiyadan foydalangan holda pedagogik konfliktlarni bartaraf etilganligi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish.

Mazkur texnologiyadan pedagogik konfliktlar bo'yicha mutaxassis pedagoglar masofadan turib kompyuter yoki televideniya vositasida foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik konfliktlarni bartaraf etish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni masofaviy texnologiya asosida bartaraf etishning mazkur "Konflikt" texnologiyasi bloklari yangi ma'lumotlar, yondashuvlar, vositalar va metodlar bilan takomillashtirib borilishi imkoniyatiga ega. Umuman bunday texnologiyalar qiziqarliligi va tezkorligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur "Konflikt" nomli masofaviy texnologiya mamlakatimizda pedagog konfliktologlarning tanqisligi muammosini yumshatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Chunki mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarida konfliktlar muammosi bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega professor-o'qituvchilar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, hududlarda pedagogik konfliktlar muammosi bo'yicha pedagog mutaxassislarning yetishmasligini ta'kidlab o'tish lozim. Bunday sharoitda bu kabi texnologiyalardan foydalanish nazariy, metodik va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida bunday masofaviy texnologiyalar bo'yicha malakani egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanishning ahamiyati. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday ahamiyat quyidagilar bilan belgilanadi:

1) mamlakatning eng chekka hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarga konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam berish;

2) pedagogik konfliktlar bo'yicha mutaxassislarning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'zaro hamkorlikda bartaraf etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyasidan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi har qanday muhit, vaziyat va sharoitlarda qo'l keladi. Misol uchun, mamlakatimizda pedagogik konfliktlar bo'yicha mutaxassis pedagoglar tarkibi endi shakllanmoqda. Bu hol mamlakatimizning eng chekka hududlarida konfliktologiya masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassis pedagoglarning taqchilligini ko'rsatadi. Shu sababli masofaviy texnologiya vositasida mazkur kamchilikni hal etish va boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik

konfliktlarni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatlarini beradi.

Masofaviy texnologiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda quyidagi amaliy jihatlari bilan ham e'tiborga molikdir:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarning paydo bo'lishiga turtki bo'layotgan axborot oqimini yumshatadi;

b) o'quvchilarda o'zlari ustida ishlash uchun yo'naltirish berish omillarini kengaytiradi;


v) o'z vaqtida boshlang'ich sinf o'quvchilarini pedagogik konfliktlardan muhofaza qilish tavsiyalarini taqdim etadi.

Bunday imkoniyatlar boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, axborot oqimining ko'pligi aynan ularga qarshi axborot vositalari asosida kurashishni taqozo etadi. Shu sababli keyingi paytlarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasiga bo'lgan ehtiyoj oshib borayotganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiya muammolari muntazam tadqiq etibborilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun "Talabalar akademiyasi" ishtirokchilarini turli ilmiy ishlanmalarga, taqdimotlarga va muammo bo'yicha yechimlar topishga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ayniqsa, talabalar biriktirilgan umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ularning laboratoriya ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Laboratoriya ishlarida bevosita boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganish, uning sabablarini aniqlashning yechimlarini topishga ahamiyat berish kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish va uning asoslarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



10-rasm. Masofaviy texnologiya asoslari

Mustahkamlar uchun savollar va topshiriq:

1. Masofaviy texnologiya mazmuni nimadan iborat?
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanish mexanizmlarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanishning ahamiyati deganda nimalarni tushunasiz?
4. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanish mexanizmlarini konspekt qiling va o'zlashtiring.

8-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muloqot texnologiyasi

Reja:

1. Muloqot texnologiyasi mazmuni.
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasidan foydalanish.
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasining samaradorligi.

Tayanch tushunchalar:

Pedagogika, konflikt, boshlang'ich, ta'lim, bartaraf etish, muloqot, texnologiya, bilim, ko'nikma.

Muloqot texnologiyasi mazmuni. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muloqot texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bu o'rinda muloqot texnologiyasining mazmuniga e'tiboringizni tortamiz.

"Muloqot madaniyati insondan boshqa insonga nisbatan har doim bir tekis munosabat ko'rsatilishini talab etadi. Qarshingizda turgan odam boymi, kambag'almi, qishloqlikmi yoki shaharlikmi, mansabdormi yoki oddiy o'qituvchimi, bundan qat'i nazar unga to'g'ri munosabat ko'rsata olish haqiqiy insonparvarlik mezonini bo'lib kelgan. Ammo muloqot madaniyati insondan o'z ustida muntazam ish olib borishni talab etadi. Muloqot madaniyati o'z-o'zidan vujudga kelib qolmaydi.

Hayotda, ko'pincha odamlar orasidagi muloqotda ularning rasmiy, xushomadgo'y, kibr-havoli munosabatlari shohidi bo'lamiz. Ba'zan inson yuqori martabaga erishsa, u o'zini boshqalardan ustunligini ko'rsatish uchun, ko'pchilik bilan salom-alik ham qilmay qo'yadi. Asl madaniyatda esa aksincha, insonning qanchalik martabasi ko'tarilsa, shunchalik oddiy insonlarga o'zining yaqinligini ko'rsatish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, muloyimlik, xalimlik, ochiqlik, samimiylilik, to'g'rilik va boshqa bir necha tamoyillar ulug'lanadi va targ'ib qilinadi.

Yoki, yigit taraf qudalar qiz tarafdagilarga sal yuqoridan turib, buyruq berib gapirishadi. Boyvuchcharoq qarindoshlar o'zining moddiy tarafdin muhtoj qarindoshlariga nisbatan kerilib, boshqa tarafdin ularning moddiy tarafdin uyalibroq munosabat ko'rsatishadi. Bunday vaziyatlarning barchasi – noto'g'ri holatlar hisoblanadi.

Demak, real hayotda, odam yoshligidanoq muloqot madaniyatiga oid ma'lum insoniy qadriyatlarining buzilayotganligi bilan to'qnash keladi. Oqibatda, bola hayotida ikki xil standartlar holati vujudga keladi. Bir tomondan, bola muloyim bo'lishi lozim. Ikkinchi tomondan esa, atrofidagi ko'pchilik odamlar, hattoki eng yaqin va hurmatli kishilar ham bu tartib-qoidalarga rioya qilmaydi.

Masalan, "so'kinish" – erkaklar rioya qilmaydigan noto'g'ri holat, "qarg'ash" – ayollar rioya qilmaydigan noto'g'ri holat. O'g'il bolalar "so'kinish"ni odatda o'z otalaridan meros qilib oladilar. Ko'pchilik "so'kinish" yomonligini biladi, ammo ishlataveradi. Uning yomon odatligini o'ylab ham ko'rmaydi. Uni ishlatganda betarbiya odamlar ichki g'urur his qiladi, aslida birovlarini kamsitish, ularni mensimaslik, birovlariga aziyat ulashayotganligini bilmaydi. Ayollar esa ba'zan o'z farzandlarini "qarg'ab" turib ularga ish buyuradi yoki ularni jazolaydi. Aslida ayol kishiga mayinlik, mehribonlik xos bo'lishi lozimligini ular unutib qo'yishadi. Agar, haqiqatda ham bolalari bilan biron noxush hodisa yuz bersa, ular kuyinishi aniq. Ammo til hamma narsani ko'taraveradi deb, og'izlariga erk berib yuborishadi. Doimiy jerkib, behurmat qilib, faqat o'zinikini o'tkazib, bolaning erkini bo'g'ib yaxshi xulqli, idrokli, ma'naviyatli, barkamol farzandni tarbiyalab bo'lmaydi. Demak, muloqot va muomala madaniyatining ham hayotda o'z o'rnini va ahamiyatini mavjud.

Shunday qilib, muomala madaniyati nima va konflikt vaziyatlarda mana shu muomala madaniyati talablariga rioya etish ziddiyatni yengishga ko'mak beradimi, degan savollar dolzarblik kasb eta boshlaydi.

Muomala madaniyati bo'yicha bilimlar ziddiyat ichida tomonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ular orasidagi muloqotni

yangitdan bir tizimga tushirish, tomonlarning o'zaro axborot olishlarini yengillashtirish uchun xizmat qiladi. Muomala madaniyati birovni eshitish va birovga o'z axborotlarini to'g'ri yetkazish qoidalari va tartiblaridan iboratdir. Shu bois konflikt yechimi tartiblariga muomala madaniyati bo'yicha o'qituvchining ovoz xususiyatlari qoidalari kiritiladi.

O'qituvchilik kasbi bevosita o'qituvchining ovoz xususiyatlari bilan bog'liq. Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z talabalarini ovozinig shiradorligi bilan asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovoz kuchini, shiradorligini, yoqimlilikini bilishi zarur. Lozim bo'lganda undan foydalana bilish malakasiga ega bo'lishi kerak. O'z ovozida kamchilik sezgan o'qituvchi uni yo'qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida hamma vaqt uzluksiz mashq qilib borishi lozim bo'ladi. Chunki bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo'lmaydi."¹⁶

Shu jihatdan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasi konfliktlarga uchragan ta'lim oluvchilar va pedagogik konfliktlarni bartaraf etuvchi o'qituvchilarni teng hamda o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Bu muloqot texnologiyasining amaliy imkoniyatlarini ifodalaydi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasidan foydalanish. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muloqot texnologiyasi muomala va nutqiy mahorat tarkiblariga asoslanadi. Aynan mana shu tarkiblarga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlarni kutilgan darajada bartaraf etish imkoniyati mavjud.

"Qalovini topsang qor ham yonadi", - deydi dono xalqimiz. Har bir ishda, xatti-harakatda o'ziga xos bilimdonlik, ustomonlik qo'llanilmasa, u ko'ngildagidek natija bermaydi. Biz yashayotgan jamiyatda har kimning o'z hunari, o'z o'rnini bor. Odam borki nimagadir qodir.

Alisher Navoiy bobomizning "Mahbub ul-qulub" asarida

¹⁶ Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. -Тошкент, 2020. 144-146-бет

"Falak jismining joni - so'z", degan gapi bor. Dunyoda jonsiz narsani o'zi yo'q. Hamma jismlar harakatda, bir dam to'xtamaydi.

Umar Hayyom ham "Navro'znoma" asarida shunday yozadi: "Men so'zdan mo'tabarliroq hech narsa topolmadim... Undan afzalroq narsa bo'lganida edi, Haq taolo Payg'ambar (s. a. v.)ga o'sha narsa bilan murojaat qilgan bo'lardim".

Afsuski, oddiygina xushmuomilalik va samimiy munosabatni o'rniga qo'ya olmaydigan odamlar ham ko'plab uchraydi. Ular kimningdir dilini og'ritib gunohkor bo'layotganliklarini anglab yetishdan ojizdirlar. Hammani hayron qoldiradigan, butun dunyoga shov-shuv bo'ladigan kashfiyotlar yaratmasin, muomala me'yorini va insoniy samimiyatni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasalar, ko'zlangan maqsadlariga erisha olmaydilar.

Garvard universitetining professori Uilyam Jeyms shunday yozadi: "Qanday bo'lishimiz kerakligini qiyoslab ko'rsak, biz hali mudrab yotibmiz. O'z jismoniy va aqliy imkoniyatlarimizning arzimas qismidagina foydalanib kelmoqdamiz. Aytish mumkinki, inson o'z salohiyatidan ancha quyida yashamoqda. U odatda foydalanmayotgan juda ko'plab turli qobiliyatlarga ega" (8-rasm).

Shunday qobiliyatlardan biri - insoniy muomala va samimiy munosabat. Bunda maqto'vni ham, rag'batni ham ishga solib suhbatdoshingizning ham mehrini qozonasiz, ham ulkan ishlarni qilishga da'vat etgan bo'lasiz. Suhbatdoshingizning dilini og'ritmagan holda samimiy munosabatda bo'lib, o'z ta'siringizni o'tkazing. Uy qurgan bo'lsa uyini maqtang, mashina olgan bo'lsa, mashinasini maqtang biron yutuqqa erishgan bo'lsa, xayrixohligingizni bildiring, hatto ro'zg'orda rafiqangiz tayyorlagan ovqatni maqtang iste'mol qiling, farzandingiz maktabdan

"5" baho olib kelgan bo'lsa, qizingiz uyni tozalab supurgan bo'lsa, ularni ham maqtang. Maqto'vda o'rtacha, muomalada samimiy bo'ling.

Munosabatingiz hurmatga yo'g'rilgan bo'lsa, oddiy odamlarni, ayniqsa, oila-a'zolaringizni boshqarish oson

kechadi. Insonning turmush tarzi, yashashi, barcha mehnat va harakatlarida muhim bir qonuniyat bor. Kimki unga amal qilib yashasa, qoqilmaydi. Biroq uning aksi bo'lsa, o'zini ko'p qiyinchiliklarga duchor qilishi mumkin. Siz bilan suhbatdosh bo'lgan kishilarning o'zligini anglashga, o'zining shaxsiy ahamiyatini tushunishga undang. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek: "El netib topgay menikim, men o'zimni topmasam". Suhbatdoshingizga o'zini topishga yordam bering. U, avvalo, odam bolasi ekanini anglasin. Insonlararo muomala, munosabat nimaligini tushunsin. Boshqa jonzodlardan inson nimasi bilan farqlanishini, odamlar o'rtasidagi mehr-muruvvatni, uvol va savobni anglasin.

Donishmandlar ming yillar davomida insonlararo munosabatlar me'yori xususida bosh qotirganlar. Bunday muhokamalardan bitta xulosaga kelishgan: "Odamlar sizga qanday munosabatda bo'lishlarini istasangiz, siz ham ularga shunday munosabatda bo'ling".

Shaxs saodati va jamiyat osudaligi borasida totuvlik va inoqlik muhim o'ringa ega. Inoq oila-a'zolari baxtiyor, totuv jamiyat osuda va to'kin bo'ladi.

O'zaro hurmat bilan ish yuritish hammaning ham qo'lidan kelishi mumkin. Agar u kishi notiqlik mahoratini egallagan bo'lsa. Buning uchun ko'plab badiiy kitoblarni o'qish, hayot tajribasini ishga solish, gapirganda ohangga e'tibor berish juda muhim. Nemis faylasuf olim Iogann Volfgang fon Gyotedan universitetda ma'ruza o'qigani borganida "Shu bir juft soatlik darsga necha soat tayyorgarlik ko'rdingiz", deganida Gyote: "Bir umr", deb javob bergan ekan. Shu ulug'larning gaplaridan ham ko'rinib turibdiki, muomala-munosabat oson ish emas. Agar hamsuhbatingizga biron narsani tushuntirmoqchi bo'lsangiz qisqa va lo'nda hamda ta'sirchan qilib yetkazing. Ko'p gapirib, uni bezdirib qo'ymaslik yo'lini tuting... Kimlarnidir gap bilan qo'rqitaman desangiz, xato qilasiz.

Nutqiy mahorat nutq sohibining matnga hamda shu matn asosida tinglovchi, tomoshabin yoki o'quvchiga og'zaki yoxud yozma shakldagi murojaati bilan reallashadi. Ana shu murojaat,

munosabatga yuqori darajadagi e'tibor esa pedagogning iste'dodidan dalolatdir.

Nutq madaniyati tugal fikr, go'zal ifoda demakdir", – deb yozadi tilshunos olim Lola Xo'jayeva. Haq gap. Izchillik bilan mantiqan bir-biriga bog'lanmagan tugal fikr va uning ta'sirli ifodasi bo'lmasa, u kishi qalb-u ongiga sig'maydi, qabul qilinganda ham chuqur anglashilmaydi. Shunday ekan, tugal fikr, go'zal ifodaga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? Nutq mezonlari qaysilar? Shu haqda to'xtalamiz.

Har qanday nutq o'z xususiyatlariga ega. Namunaviy nutqning sifatlari haqida so'zlashdan oldin "nutqda nima birlamchi?" degan savolga javob berish lozim. Mashriq-u mag'ribda bunga javob izlash uzoq davrlardan buyon bor.

Mashhur notiq Mark Tuliy Sitseron: "Aniqlik va tozalik – nutqning zaruriy sharti", desa, Aristotel: "Chiroyli so'zlash, ishontirish va mantiqiy asoslash"ni birlamchi hodisa deb qaraydi.

Notiq Dionis Galikarnas esa nutqda "maqsadga muvofiqlik"ni muhim hisoblaydi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, bular orasida Xitoy devori yo'q, biri ikkinchisini taqozo etadi. O'zaro bog'langan, birini ikkinchisiz tushunish qiyin.

Har qanday nutq muayyan shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Bunda makon (joy), zamon (vaqt), mavzu, auditoriya (omma) singari omillarning o'rni bor. Bu aloqaviy munosabat jarayoni omma bilan yuzma-yuz shaklda, auditoriyada, radio yoki televideniye orqali amalga oshiriladi.

Nutq xususiyatlari ayrim manbalarda nutqning aloqaviy (kommunikativ) sifati deb ham yuritiladi.

Bular nutqning to'g'riligi, tozaligi, aniqligi, soddaligi, jo'yaliligi, boyligi, ifodaviyligi, mantiqiyligi, qisqaligi, ta'sirchanligi, obrazliligi, tushunarligi va maqsadga muvofiqligidir.

Qoidali nutq – foydali nutq. Nutqning to'g'riligi deganda, dastavval, uning adabiy til me'yorlariga mos kelishi tushuniladi. Busiz boshqa aloqaviy sifatlari bo'lishi mumkin emas. Shuning

uchun ham birinchi xususiyat sifatida e'tirof etiladi. Hatto, oddiy so'zlashuv jarayonini busiz tasavvur etib bo'lmaydi. Nutq esa, sof holda adabiy til normalariga muvofiq bo'lgan namunaviy nutq bo'lishi zarur.

Nutqning to'g'riligi haqida fikr bildirib turib filologiya fanlari doktori, professor, akademik Vitaliy Grigoryevich Kostomarov (1973–2000, Pushkin nomidagi Rossiya davlat rus tili va adabiyoti instituti rektori bo'lgan) shunday yozadi: "Nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy lug'at va grammatik normalarini egallashini tushunish lozim bo'ladi".

Demak, nutq ham nazariy, ham amaliy hodisa. Uni bilish, his etishgina emas, amalda o'rinli, qoidali qo'llay olish nutqning muhim talablaridan biridir. Nutqning to'g'ri bo'lishi urg'u hamda grammatik normani puxta bilishni talab etadi. Matnni o'qishda, so'zlab berishda bu mezon to'la amal qiladi. Urg'u har bir tilning tabiatiga ko'ra turli o'rinlarda qo'yiladi. So'zlardagi ba'zi bo'g'inlarning zarb bilan aytilishi, ya'ni urg'uning ma'no va mazmunni ifodalashdagi ahamiyati katta.

Shunday ekan, biz ko'rgan-bilgan, eshitgan, o'qib o'rgangan yoki shohid bo'lgan har bir narsa-hodisaning o'z tayanch nuqtasi bor.

Bu faqat kurrai zaminimizdagi voqelikka taalluqli bo'lib qolmasdan, galaktikadagi barcha sayyora, yulduz, samoviy jinslarga ham dahldor. Tayanch nuqtasi bor bo'lmagan narsaning o'zi yo'q bo'lgan taqdirda ham, u omonat. E'tibor bering. Hashamatli, naqshinkor, baland imorat oldida turibsiz. Qanchalik ko'kka bo'y cho'zmasin yoki qanchalik "viqor"li bo'lmasin, uning tayanch nuqtasi – poydevori bo'lmasa, u hech nimadir. erta-indin qulashi, xarobaga aylanishi tayin. Hatto, Yerning ham tayanch nuqtasi bor. Buyuk alloma va olimlar Beruniy hamda Arximed bu haqda qanchalik o'y surib, umrini band etgan bo'lmasin, tayanch nuqta mutlaq haqiqat ekanligini anglab yetishgan. Yerning tayanch nuqtasi bo'lmaganda edi, u allaqachon orbitadan chiqib ketgan bo'lardi.

Insoniyatning, ellarning, tillarning ham o'z tayanchi, suyanchi bor. Tinchlik, totuvlik, o'zaro birdamlik har bir damda, har qadamda bir-birini tushunishlik xalqlar osoyishtaligi va farovonligining tayanchi bo'lsa, har bir tilning tayanchi esa ayni xalq nutqida istifoda etiluvchi so'zlardan iborat.

Ajdodlarimiz so'zni, nutqni ilohiy ne'mat va hikmat deb qarashganliklarini yuqorida qayd etib o'tkanimizdek, Kaykovus "Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir", – degan bo'lsa, Navoiy "Ko'ngil durji ichra guhar so'z durur. Bashargulshanida samar so'z durur", – deb yozgan edi. G'arbda ham xuddi mashriq zamindagi singari so'z qudratiga katta ishonch bilan qaralgan. Siyosatshunos olim Emil de Jirarden (1806–1884) "So'zning kuchi behaddir. Chekinayotgan qo'shinni to'xtatish, mag'lubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutqarib qolish uchun goho o'rinli aytilgan birgina so'z ham kifoya bo'lgan", – deb yozadi. Faylasuf olim Ralf Uoldo Emerson (1803–1882) esa "Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi", – deydi.

Shunday ekan, o'rinli so'z, jozibali nutq xalq bilan bog'liqlik va birlikning tayanchidir. Ayniqsa, pedagog, shu bilan birga, elektron ommaviy axborot vositalari – televideniye va radioda faoliyat ko'rsatuvchilar nutqining ko'rki va jozibasi xalq tilining boyligi va nafosatini ko'rsatuvchi omildir.

Nutqqa xos bo'lgan, yuqorida ko'rib chiqqanimiz aniqlik va to'g'rilik sifatlarisiz nutqning mantiqiyligini tasavvur etish qiyin. Aniq va to'g'ri bo'lmagan nutq mantiqsiz hamdir. Chiroyli ibora va so'zlarni qo'llagan bilan nutq mantiqli va mazmunli bo'lmasligi mumkin. Jumalarning grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilishi va unda ishlatilgan so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi mantiqning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun o'qituvchi matnni o'qishdan oldin bir necha bor tahririy nazar bilan ko'rib chiqqani durust.

Nutqning mantiqiy bo'lishi bu faqat til hodisasi emas, balki tafakkur dialektikasi bilan ham bog'liq. Mantiqiy fikr yuritish uchun esa, keng qamrovli bilim ham kerak. Shuning uchun ham faylasuf olim Nikolay Gavrilovich Chernishevskiy (1828–

1889) "Nimani noaniq tasavvur qilsang, shuni noaniq ifoda etasan, noaniqlik va ifodani chalkashtirish fikrlar chigalligidan dalolatdir", – deyishi bilan haqli edi. So'ylab turib o'ylash, fikr yuritish va uni yetkazish nutqning muhim omillaridandir. So'z birikmalari o'rtasidagi grammatik aloqani his etmasdan aytishlik eshituvchiga malol keladi va mantiqni buzadi.

Mohiyati har xil bo'lgan so'zlarni avtomatik ravishda uyg'unlashtirish mantiqli nutqqa ziddir. Shunday xususiyatlarning yana biri so'z tartibining buzilishidir. So'z o'rnining almashinishi jumlada mantiqning aniq va tiniq bo'lishiga ta'sir etadi.

To'g'ri, nutqda pauza, intonatsiya orqali nuqsonni to'g'rilab ketish mumkin. Lekin matn silliq, ravon va tushunishlik bo'lishi uchun mantiqiylikka rioya etilishi zarur.

So'zlarni bilib-bilmasdan tushirib qoldirilishi ham nutqdagi mantiqni buzadi. Bu xususiyat, ko'pincha nutqda unchalik sezilmasa-da, diqqat bilan tinglagan kishi notabiiylikni sezadi.

"O'ylamasdan, e'tiborsizlik bilan qo'llangan so'z ma'noni xiralashtiradi, mazmunni buzadi, e'tiborni susaytiradi. "O'ylaganda ham, so'ylaganda ham o'zni nazorat etish lozim. Nutq, notiq, mantiq so'zlarining bir o'zakdan yasalgani ham bekor emas".

Toza nutq – andozali nutq. Qaysi tilda ma'ruza o'qishdan qat'i nazar, o'sha tilning sofligi, boyligi o'qituvchi nutqida aks etadi. Bir tilga xos xususiyatlarni yoki so'zlarni ikkinchi tilga qo'shib so'zlash yoki adabiy til me'yorlariga mos bo'lmagan so'z va iboralarni qo'llash nutqning tozaligiga zid.

Demak, nutqning tozaligi, uning adabiy til mezonlariga mos kelish-kelmasligi, g'ayri adabiy til unsurlaridan holi bo'lishidir.

Anglashilyaptiki, deyarli barcha tillarda bor bo'lgan sheva, varvarizm, kanselyarizm, professionalizm, akademizm, vulgar kabi so'z va iboralarni adabiy tilga aralashtirib qo'llashdan qochish ma'qul.

Badiiy adabiyotda bularni qo'llash holatlari mavjud. Unda

milliy koloritni berish, qahramonning qalb-qiyofasini ochish uchun xizmat qiladi. O'zbek tili sheva va lahjalarga boy. Shu bois adabiy til normasida fikrlash lozim bo'ladi."¹⁷

Aynan muloqot texnologiyasining muomala va nutq komponentlari bevosita o'quvchilar bilan munosabatga kirishib ulardagi pedagogik konfliktlarni maqsadli bartaraf etish imkonini beradi. Shu sababli mazkur texnologiyadan oqilona foydalanish asoslarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur masalada pedagogik turkumdagi fanlarni chuqur o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasining samaradorligi. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasining samaradorligini idrok etish muhim ahamiyatga ega. Bunday samaradorlikning eng muhimlarini quyidagilar tashkil etadi:

a) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda o'quvchilarning o'zlari ishtirok etadi;

b) muloqot natijasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch ruhi kuchayadi;

v) muloqot texnologiyasi o'quvchilarni muomala madaniyati va ravon nutqga o'rgatishi bilan ularni faollashtiradi.

Shu jihatdan muloqot texnologiyasi pedagogik konfliktlarga uchragan o'quvchilar uchun o'ziga xos ko'zgudir. Aynan muloqot natijasida o'quvchilar o'zlaridagi konfliktlarni va ularning salbiy oqibatlarini anglab yetadi.

Bunday omillar sababli xorijiy mamlakatlar konfliktolog pedagoglari muloqot texnologiyasidan oqilona foydalanib kelmoqda. Bunday muloqot an'anaviy yoki virtual tarzlarda bo'lishidan qat'iy nazar, aynan o'quvchilarni faollashtirishga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega.


Aslida muloqot aynan inson shaxsi uchun eng muhim insoniy munosabatlardan biridir. Muloqot natijasida tomonlar

¹⁷ Иллы манба. 147-149; 152-156-бет.

bir-birlarining maqsad va muddaolarini anglashadi, tabiiy ravishda o'zaro hamkorlikka kirishadi va muayyan muammoni hal etishda birgalikda harakat qilishadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasi pedagogik va ijtimoiy jihatdan yuksak ahamiyatga ega.

Muloqot texnologiyasining eng muhim samaradorliklardan biri ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'zaro hamkorligini tarkib toptirishidir. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda o'quvchilar va o'qituvchilarning hamkorligini talab darajasida tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim va tarbiya masalasida eng avvalo o'qituvchiga tayanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar bilan muloqotini tarkib toptirishda har bir o'quvchi bilan individual ishlashga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonini optimallashtirish, o'qituvchilarga ularni biriktirib qo'yish va o'qituvchilarning individual muloqot bo'yicha ish rejasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning kuzatishimizga ko'ra, mamlakatimizning ba'zi hududlarida o'quvchilarning sinflardagi miqdori tabiiy ravishda optimallashtirib bormoqda. Misol uchun, Toshkent viloyati Bekobod tumani umumiy o'rta ta'lim maktablarining ko'pchiligida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning soni 13-15 nafarni tashkil etmoqda. Shu ma'noda boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonini tashkiliy asosda optimallashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu hol boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar bilan ishlash amaliyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muloqot texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish eng muhim yondashuvlardan biridir. Mazkur texnologiyani chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



11-rasm. Muloqot texnologiyasi asoslari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Muloqot texnologiyasi mazmuni deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasidan foydalanish asoslarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasining samaradorligi nimalar bilan belgilanadi?
4. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muloqot texnologiyasini o'zlashtiring.

Modul bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Banikina S.V. Konflikt v sovremennoy shkole. – Moskva, 2006.
2. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. – Toshkent. 2020.
3. Umarova Z.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. –Toshkent, 2021.

3-Modul. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish amaliyoti

9-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila bilan hamkorlik

Reja:

1. Oila turlari.
2. Muammoli oila boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konflikt bo'yicha ishlash.
3. "Mehribonlik uylari" boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konfliktlar bo'yicha ishlash.

Tayanch tushunchalar:

Oila, ota-ona, boshlang'ich, sinf, o'quvchi, pedagogika, konflikt, mehribonlik, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Oila turlari. Yangi O'zbekistonning konstitutsiyasiga asosan oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi va er-xotin, farzandlar hamda yaqin qarindosh-urug'lardan iborat bo'ladi. Oila boshliqlarining voyaga yetgunga qadar o'z farzandlarini boqishi va tarbiyalashi hamda voyaga yetgan farzandlarning o'z ota-onalarini muhofaza qilishi va ularni qo'llab-quvvatlashi ularning konstitutsiyaviy huquqi hamda burchlari hisoblanadi. Mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi hamda ular asosida o'quvchilarni tarbiyalashi kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlariga kiradi.

Mamlakatimizda oilaning bir necha turlari farqlanadi.¹⁸ Mazkur oila turlarining asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) to'liq oila (oilada ota-onalar, farzandlar va yaqin qarindoshlar bo'ladi);
- 2) noto'liq oila (oilada er yoki xotinning bo'lmagan, lekin farzandlar mavjud oila);
- 3) muammoli oila (oilada ota va ona yoki farzandlar

¹⁸ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent, 2020

o'rtasida muntazam muammolar va nizolar mavjud bo'ladigan oila).

Ushbu oilaning asosiy turlari boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim va tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan to'liq oilalarda voyaga yetayotgan o'quvchilarda pedagogik konfliktlar nisbatan kam uchraydi. Noto'liq oilalarda pedagogik konfliktlarning o'zaro bir-birini tushunmaslik, bahs-munozara, hurmatsizlik, o'zni haq deb bilish kabi nizolar muntazam uchrab turadi. Muammoli oilalarda esa pedagogik konfliktlarning yashovchanligi, yangilanib borish xususiyatlariga egaligi va ularni konfliktolog tomonidan bartaraf etish zaruriyati yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Shu sababli oilalarning turlari bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari aniq ko'nikmaga ega bo'lishi va kelgusi faoliyatida oilalarning turlaridan kelib chiqib konfliktlarni bartaraf etish malakasiga amal qilishi taqozo etiladi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda oilalarda katta yoshlilar o'rtasida ham ijtimoiy xarakterdagi konfliktlar uchrab turadi. Bunda kelin va qaynona o'rtasidagi o'zaro tushunmovchilik, kelin va kuyov tomonning katta yoshli qarindoshlari o'rtasidagi nizolar, oilaning mustahkamligi uchun rahna soladigan er va xotin o'rtasidagi kelishmovchilik kabi konfliktlar yashovchan bo'lib qolayotganligini eslatib o'tish joiz. Bunday konfliktlarning kelib chiqishiga ko'p omillar sabab bo'lib, ulardan yosh kelinning kech farzand ko'rishi, ko'pchilik qaynonalarning izzatlabligi yoki oiladagi vaqtinchalik iqtisodiy muammolar eng asosiy konfliktogenlar sifatida namoyon bo'ladi. Bu turdagi konfliktlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiyati, bilim olish jarayoni, tarbiyasi va aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oiladagi katta yoshlilarning konfliktlari to'g'risida ham yetarli darajada ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Chunki kelgusida ular aynan ana shunday oilalarda voyaga yetayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik konfliktlari bo'yicha faoliyat olib borishi taqozo etiladi. Bunday ko'nikmaga ega bo'lish uchun oilashunos

pedagog va psixologlarning tadqiqotlari bilan tanishib borish tavsiya etiladi. Oila muammolari bo'yicha pedagog olimlarimiz tomonidan juda ko'p tadqiqotlar amalga oshirilayotganligini va oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Oila pedagogikasi" kursi o'qitilayotganligini eslatib o'tish joiz.

Muammoli oila boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konflikt bo'yicha ishlash. Mamlakatimiz oilalari zamonaviy rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda hayotiy faoliyat olib bormoqda. Ayni payotda, bozor iqtisodiyoti sharoitida muammoli oilalarning yashovchan bo'lib qolayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu sababli muammoli oilada voyaga yetayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida muntazam ravishda pedagogik konfliktlarning turlari uchraib turishini eslatib o'tish joiz. Bu o'rinda e'tiboringizni muammoli oila boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konfliktlar bo'yicha ishlash metodikasiga e'tiboringizni tortamiz.

A) pedagogik konfliktlarning turlarini aniqlash. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- o'quvchilarda mavjud konfliktlarning turlarini aniqlash;
- konfliktlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish;
- konfliktlarning muddatini aniqlash;
- konfliktlarning ijobiy yoki salbiy xususiyatga ega ekanligi

bo'yicha ma'lumotiga ega bo'lish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinflar o'quvchilarida mavjud pedagogik konfliktlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Esatib o'tish joizki, muammoli oilalarda voyaga yetayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarda oiladagi munosabatar asos bo'ladi.

B) oiladagi katta yoshlilar bilan suhbat. Bunda quyidagilarga ahamiyat berish metodik jihatdan samarali hisoblanadi:

- muammoli oiladagi ta'sir kuchiga ega katta yoshli oila a'zosini aniqlash;
- mazkur katta yoshli oila a'zosi bilan oiladagi sharoit va muhit to'g'risida suhbat o'tkazish;
- o'quvchida yuzaga kelgan pedagogik konfliktning

sababini aniq belgilab olish;

- suhbat o'tkazilgan katta yoshli oila a'zosiga o'quvchida mavjud pedagogik konflikt turi bo'yicha ma'lumot berish va uning salbiy oqibatlarini tushuntirish.

Mazkur yondashuv asosida muammoli oilada voyaga yetayotgan boshlang'ich sinf o'quvchisining oilaviy muhiti to'g'risida va uning o'quvchida keltirib chiqargan konfliktlar turlari bo'yicha aniq ma'lumotga ega bo'linadi. Ta'kidlash lozimki, bizning tajribamizda ko'rilishcha, muammoli oilalarning katta yoshli a'zolari o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlar turlarini hal etishda juda kam ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

V) pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchilar bilan individual ishlash. Muammoli oilada voyaga yetayotgan boshlang'ich sinf o'quvchisining oilaviy muhiti asosida unda yuzaga kelgan pedagogik konfliktlar sabablarini aniqlab olingach ularni bartaraf etish ishi amalga oshiriladi. Buning uchun quyidagilarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

- o'quvchi bioan individul tarzda suhbat o'tkazilib, unda o'ziga bo'lgan ishonch va idel maqsad ko'nikmasi tarkib toptiriladi;

- o'quvchi duch kelayotgan muammolar maktab jamoasi bilan hamkorlikda hal qilinadi;

- o'quvchida mavjud pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ishida uning oila a'zolari ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi;

- o'quvchi doimiy asosda nazoratga olinadi va uning imkon qadar oiladagi muhit ta'siriga tushmasligi choralari ko'riladi.

Bunday metodikaga asolanish muammoli oilada voyaga yetayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini pedagogik konfliktlarini o'z vaqtida hal etish va uning monitoringini tashkil etish imkoniyatlarini beradi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, Konstitutsiya, "Ta'lim to'g'risida"gi kabi qonun hujjatlarida bola huquqlari ustuvor qo'yilgan va shu sababli konfliktlarni bartaraf etayotgan o'qituvchining har qanday xatti -harakati ustuvor hisoblanadi. Chunki bu jarayonda o'qituvchi bola huquqlarining himoyachisi

sifatida namoyon bo'ladi va bu hol aynan muammoli oilalar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari muammoli oilalar bilan ishlash bo'yicha kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi pedagogik konfliktologiya nuqtai nazaridan zaruriyat hisoblanadi.

E'tibor berilsa, pedagogik konfliktlar bo'yicha muammoli oila bilan ishlash o'ziga xos yondashuvlarga asoslanadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, aynan muammoli oilalar bilan konfliktlar bo'yicha ishlash boshlang'ich sinf o'qituvchisining konfliktolog sifatidagi tajribasining tarkib topishiga omil hisoblanadi.

"Mehribonlik uylari" boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konfliktlar bo'yicha ishlash. Mamlakatimizda bugungi kunda mingdan ortiq zamonaviy jihozdangan mehribonlik uylari faoliyat yuritmoqda. Mazkur muassasalarning asosiy vazifasi o'quvchilarni ota-ona o'rnini bosuvchi shaxs sifatida voyaga yetkazish va tarbiyalash, ularning yuksak darajada bilim olishini ta'minlash hamda jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ularni hayot va faoliyatga tayyorlashdir.¹⁹ Ushbu muassasalarning tarbiyalanuvchilari quyidagi sabablarga ko'ra "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari sifatida davlat tomonidan ro'yxatga olingan:

1) chin yetim bo'lib qolish (ota-ona vafot etgach, yaqin qarindosh urug'larning bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanmasligi);

2) boquvchilari jinoyat sodir etgan va ozodlikdan mahrum etilganlarning farzandlari;

3) ota yoki onasi tomonidan iqtisodiy sharoit tufayli mazkur ta'lim muassasalariga taqdim etilgan bolalar;

4) oilada bolalarning ta'lim va tarbiyasi uchun salbiy muhit yuzaga kelgan oilalar farzandlari.

Shu sababli mazkur muassasalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida muddatli davom etadigan va ruhiy tushkunlik (stress) xarakteriga ega pedagogik konfliktlar uchrab turadi. Bunday konfliktlarning asosiy turlari bizning kuzatuvimizga

¹⁹ "Mehribonlik uylari" muassasalari to'g'risida Nizom. // www.ziynet.uz.

ko'ra, asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) davomiy ruhiy tushkunlik;
- b) o'zi va o'zgalarga ishonmaslik;
- v) ideal maqsadga ega bo'lmaslik;
- g) o'z kelajagini aniq tasavvur eta olmaslik.

Bunday konfliktlar yashovchan xususiyatga ega bo'ladi. Shu sababli mazkur muassasalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha ishlashda quyidagi metodikaga tayanish kutilgan samarani beradi:

- o'quvchida o'qituvchiga nisbatan mehr va ishonch uyg'otish;

- o'quvchida orzu-umidar va intilishlar ko'nikmalarini tarkib toptirish;

- o'quvchini layoqatiga asosan to'garaklar mashg'ulotlariga yo'naltirish;

- o'quvchining axloqiy munosabatlarini korreksiya qilish;

- o'quvchi yaratmalari va yutuqlarini namuna sifatida targ'ibot etish;

- imkon qadar o'quvchining bayram yoki uning tug'ilgan kunlarida o'qituvchi oilasida bo'lishini ta'minlash;

- o'quvchilarning sayohatlarda ko'p bo'lishiga e'tibor berish;


- o'quvchilar guruhlarida o'rtasida turli ko'ngilochar tanlovlarni o'tkazib borish.

Mazkur metodikaga asosan ushbu muassasalarning o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni kutilgan darajada bartaraf etish imkoniyati mavjud.

Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, "Mehribonlik uylari" muassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z o'qituvchisiga, murabbiyiga, muassasa jamoasiga va yaqin do'stiga ishonch bilan munosabatda bo'ladi. Aynan mana shu omil ular bilan pedagogik konfliktlar bo'yicha ishlashda tayanch vazifasini o'tashi kerak.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oilalar bilan hamkorlik qilish o'ziga xos metodikaga asoslanadi. Bunday metodika bo'lajak

boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



12-rasm. Muloqot texnologiyasi asoslari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Oila turlari deganda nimani tushunasiz?
2. Muammoli oila boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konflikt bo'yicha ishlash qanday omillarga asoslanadi?
3. "Mehribonlik uylari" boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konfliktlar bo'yicha ishlash metodikasi nimalarga tayanadi?
4. Muammoli oila boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konflikt bo'yicha ishlashga doir taqdimot ishi tayyorlang

10-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda jamoatchilik hamkorligi

Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda yoshlar tashkilotlari bilan ishlash.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mahalla tizimi bilan hamkorlik.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, pedagogika, konflikt, o'quvchi, jamoatchilik, hakmkorlik, bilim, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda yoshlar tashkilotlari bilan ishlash. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilim olish va tarbiyalanish darajasida sifatli ko'rsatkichlarni rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik konfliktlarni bartaraf etib borish va unda jamoatchilik hamkorligiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonda yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi Madaniyat va yoshlar ishlari vazirligi hamda Yoshlar ittifoqi tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Ta'lim muassasalarida ularning bo'limlari mavjud bo'lib, bunday bo'limlar Yoshlar yetakchilari tomonidan boshqariladi. Shu jihatdan yoshlar tashkilotlari bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda hamkorlik qilish amaliy samaradorlikni beradi. Chunki yoshlar tashkilotlari quyidagi imkoniyatlarga ega:

- a) o'quvchilarning holati va muammolarini bu tashkilotlar yaxshi biladi;
- b) o'quvchilar bilan ishlashda mazkur tashkilotlarning tajribalari mavjud;

v) o'quvchilar bevosita ushbu tashkilotlar bilan erkin munosabatga kirishadi.

Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik qilish uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) yoshlar talkilotlari vakillarini o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlar va ularning sabablarini o'rganishga jalb etish;

2) yoshlar tashkilotlarida mavjud bo'lgan o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganib borish va tahlil qilish;

3) yoshlar tashkilotlari vakillarini pedagogik konfliktlar mavjud bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan volontyorlik asosida ishlashga jalb etish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konfliktlar bo'yicha ishlash jarayonini amaliy kuchaytiradi. Chunki o'quvchilar yoshlar tashkilotlari vakillari bilan erkin munosabatda bo'lganligi sababli konfliktogendlarni aniqlash qulay kechadi. Bunda asosiy e'tibor volontyorlik tizimiga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi yoshlar tashkilotlari vakillariga biriktirib qo'yiladi. Bu vakillar o'quvchilarning faoliyatini, muammolarini muntazam o'rganib boradi va ularga amaliy yordam ko'rsatadi. Natijada pedagogik konfliktlar mavjud boshlang'ich sinf o'quvchilarining faollashuviga erishiladi. Aynan faollik pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning o'ziga xos ijtimoiy omili hisoblanadi.

E'tibor berilsa, yoshlar tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli bu borada tegishli ko'nikmalarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida egallash maqsadga muvofiq bo'shladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan Yoshlar talkilotlarining boshlang'ich bo'linmalari bilan talabalarining izchil hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mahalla tizimi bilan hamkorlik. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan mahalla fuqarolaryig'inlari ta'lim va tarbiya bo'yichakengimkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki mazkur tuzilma vakillari mahalla hududidagi ta'lim muassasalari bilan izchil hamkorlik qilib kelmoqda. Mahalla faollari bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda quyidagilar asosida hamkorlik qilish kutilgan samarani beradi:

1) pedagogik konfliktlar mavjud boshlang'ich sinf o'quvchilarining oila a'zolari bilan ishlashni mahalla faollariga biriktirish;

2) mahalla faollarining o'quvchilar va maktab muhiti to'g'risidagi ma'lumotlarini o'rganib borish va tahlil qilish;

3) mahalla faollari tomonidan bildiriladigan amaliy takliflardan foydalanish.

Bunday yondashuv mahalla faollarining ijtimoiy imkonimyatlaridan oqilona foydalanishga olib keladi. Ayni paytda, mahalla faollarining pedagogik konfliktlar mavjud boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashini cheklash muhim ahamiyatga ega. Chunki ko'p hollarda mahalla faollari o'zaro munosabatlarda pedagogik me'yorlarga amal qilmaydi. Shu sababli mahalla faollari bilan hamkorlik qilishda ularning ijtimoiy yordamlari, shart-sharoitlari va ota-onalari bilan ishlash tajribalaridan foydalanish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish masalasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining oilalari imkoniyatlarini hisobga olish to'g'ri yondashuvlardan biridir. Oilalarning imkoniyatlari to'g'risidagi aniq ma'lumotlar mahalla fuqarolar yig'inlari hujjatlarida mavjud bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlari kezi bilan mazkur hujjatlardan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki bu hujjatlar muntazam ravishda mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan yangilanib boradi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mahalla faollari bilan ijtimoiy hamkorlik qilish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik. Mamlakatimiz hududlarida tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ega ko'plab namunali ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Bunday ta'lim muassasalarining asosiylar quyidagilardan iborat:

- a) umumiy o'rta ta'lim muassasalari;
- b) oliy ta'lim muassasalari yoki ularning filiallari;
- v) akademik litsey yoki kollejlar.

Mazkur ta'lim muassasalari bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha hamkorlik qilish ilmiy va metodik jihatdan kutilgan samarani beradi. Buning uchun quyidagi metodikaga tayanish muhim ahamiyatga ega:

1) ta'lim muassasalari o'qituvchilarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni ilmiy tahlil qilish jarayoniga jalb etish;


2) pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchilar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirishida ta'lim muassasalari o'qituvchilari tajribalaridan foydalanish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ta'lim muassasalari vakillarining uchrashuvlarini muntazam o'tkazib borish.

Bunday yondashuv ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalangan holda pedagogik konfliktlarni ilmiy bartaraf etish jarayonini kuchaytiradi. Chunki ta'lim muassasalarida ilmiy va metodik tajribalarga ega o'qituvchilar tarkibi faoliyat yuritmoqda. Ularning mazkur tajribalaridan foydalanish pedagogik konfliktlarni bartaraf etish jarayonini to'g'ri tashkil etish va unda kutilgan samaraga erishish imkonini beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bu borada ilmiy va metodik jarayonni kuchaytiradi.

Shunday qilib mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda jamoatchilik bilan hamkorlik qilish amaliy, ijtimoiy va ilmiy imkoniyatlarni berishi bilan ahamiyatga egadi. Bunday hamkorlik asoslarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish tavsiya etiladi.



13-rasm. Jamoatchilik bilan hamkorlik asoslari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda yoshlar tashkilotlari bilan ishlash deganda nimalarni tushunasiz?

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mahalla tizimi bilan hamkorlik asoslarini nimalar tashkil etadi?

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qanday bo'ladi?

4. Mahalla faollari bilan hamkorlik asoslarini o'zlashtiring va konspekt qiling.

11-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish

Reja:

1. Xalqaro ta'lim dasturlari.
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish metodikasi
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish monitoringi

Tayanch tushunchalar:

Xalqaro, dastur, boshlang'ich, ta'lim, pedagogika, konflikt, foydalanish, bilim, ko'nikma, malaka.

Xalqaro ta'lim dasturlari. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam o'rganib borish bilan mazkur ta'lim bosqichini yanada rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shu jihatdan mazkur jarayonni tashxis etishda xalqaro baholash dasturlari muhim ahamiyatga ega.²⁰ Bu o'rinda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda muhim o'rin tutadigan TIMSS, PISA va STEAM xalqaro baholash dasturlarining tavsifiga e'tiboringizni tortamiz.

TIMSS - bu xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning matematik savodxonligini va ularning tabiiy fanlar bo'yicha bilimdonligini aniqlash hamda baholashni nazarda tutadi.²¹

TIM- Trends in Mathematics (matematik savodxonlik);

SS- Science Study (tabiiy fanlar bo'yicha bilimdonlik).

Mazkur xalqaro baholash dasturida ana shu yo'nalishlardagi o'quvchilarning o'zlashtirishini aniqlash amalga oshiriladi va unda dunyoning juda ko'p mamlakatlari ishtirok

²⁰ Qarang: SHermatov SH. Xalq ta'limi: Evrilish va yuksalish yo'li. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021 yil 30 sentyabr soni

²¹ Qarang: Mejdunarodnoe monitoringovoe issledovanie kachestva shkol'nogo matematicheskogo i yestestvennogo obrazovaniya TIMSS. // www.ziyounet.uz.

etib kelmoqda. TIMSS xalqaro baholash dasturi 1995 yili O'quv jarayonini o'zlashtirish Xalqaro markazi (IEA) tomonidan 1995 yilda ishlab chiqilgan va amalga kiritilgan. Xalqaro baholash dasturi maxsus tuzilgan test asosida boshlang'ich ta'limning 4-sinf bitiruvchilari o'rtasida har 4 yilda Matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha bilimdonlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladi. Xalqaro baholash dasturini o'tkazish mexanizmi quyidagicha:

- 1) 4-sinf bitiruvchilari o'rtasida;
- 2) 8-sinf bitiruvchilari o'rtasida (ya'ni 4-sinf bitiruvchilari 8-sinfga o'tgach 2-marotaba o'tkaziladi).

Bundan maqsad o'quvchilarning to'rt yildan keyin bilim, ko'nikma va malakasining rivojlanganlik darajasini aniqlashdir. SHu sababli TIMSS xalqaro baholash dasturi ishtirokchi davlatlarning har bir maktabida ikki marta o'tkaziladi va qaysi davlatda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi foizlar hisobida ko'rsatib boriladi. Mazkur xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish 1995 yil boshlangan. Bugungi kunga qadar 7 marta, ya'ni 1995, 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019 yillarda o'tkazilgan.

TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish uchun quyidagicha yondashiladi:

- 1) maxsus tuzilgan test asosida so'rovnoma o'tkazish;
- 2) ta'lim muassasasi, ekspertlar va kuzatuvchilardan anketa asosida ma'lumot olish;
- 3) ta'limni amalga oshiruvchi o'qituvchilarning o'qitish uslublarini o'rganish;
- 4) o'quvchilarning yosh va imkoniyatlariga mos dasturlar asosida mashg'ulotlar o'tkazish.

E'tibor berilsa, mazkur xalqaro baholash dasturi o'ziga xos yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan. SHu sababli ushbu dasturning imkoniyatlaridan mamlakatimiz umumta'lim maktablarining 4 va 8-sinf bitiruvchi o'quvchilarining matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha bilimdonlik darajalarini tashxis etishda foydalanish maqsadga muvofiq

bo'ladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, TIMSS xalqaro baholash dasturi quyidagi muhim tamoyillarga asoslanadi:

1) o'quv-bilish faoliyatining va uning mazmunining maqbul jihatlarini rivojlantirish;

2) qulay va aniq ma'lumotlar beruvchi testlarga asoslanish;

3) matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha bilimdonlikning ahamiyatini ko'rsatib berish;

4) o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlashda ularning imkoniyatlariga mos testlarga qat'iy tayanish;

5) o'rganish natijalarini chuqur tahlil qilish va jamoatchilikka taqdim etish.

Diqqat qilinsa, TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish bilanta'lim hamdatarbiya jarayonini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish mumkin. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta'lim va tarbiya jarayonini tashxis etish va uning samaradorligini baholovchi yana bir muhim xalqaro baholash dasturi bu 1997 yili ishlab chiqilib, 2000 yilda amalga kiritilgan **PISA** (Programme for International Student Assessment) dir.²² Bu xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning matematik bilimdonligini aniqlash va o'zlashtirgan matematik savodxonligini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasining darajasini aniqlashga yo'naltirilgan. Mazkur xalqaro baholash dasturi 2000 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilib, amalga kiritilgan. Bu xalqaro baholash dasturi har 3 yilda 15 yoshli 9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. Bugungi kunga qadar dunyo mamlakatlarining umumiy o'rta ta'lim maktablarida 7 marotaba, ya'ni 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillarda o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vaziri SH. SHERMATOV deydi: "2022 yilda PISA imtihonlari bo'lib o'tadi. Biz unda **ilk bor** ishtirok etamiz".²³ SHu sababli mazkur xalqaro baholash

²² Қаранг: Международная программа по оценке образовательных достижений учащихся PISA //

²³ Shermatov Sh. Xalq ta'limi: evrilish va yuksalish yo'li. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021 yil 30 sentyabr soni.

dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining e'lon qilishicha, 2022 yilda 15 yoshli o'quvchilar o'rtasida (9-sinfda) o'tkaziladigan PISA testining savolnomasi o'quvchilarning quyidagi bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash mo'ljallanmoqda:

1) tanqidiy fikrlashi;

2) berilgan topshiriqlarga ijodiy yondashishi;

3) matematik topshiriqlarni mustaqil tahlil qila olishi;

4) o'zini tutishi, tashabbuskorligi va faolligi;

5) axborot bilan ishlay olishi;

6) tizimli fikrlashi;

7) fikrini yorqin ifodalay olishi;

8) bilim olishga qiziqishi.

E'tibor berilsa, mazkur yondashuvlar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish kutilgan samarani beradi. Ta'kidlash lozimki, bu maqsadlar asosida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tashxis etishda Matematik fanlar bo'yicha savodxonlik darajasi asos bo'ladi. SHu sababli 2022 yilda o'tkaziladigan test jarayonida faol ishtirok etish uchun mamlakatimizda tayyorgarlik ishlari ketmoqda. Buning uchun Amerika Qo'shma Shtatlarining Kembridj universiteti va YuNESKO mutaxassislari ishtirokida tayyorgarlik Dasturi ishlab chiqilgan va ana shu dastur asosida o'quvchilar testga tayyorlanmoqda. Mazkur PISA xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish bilan ta'lim tizimini yanada rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish mumkin bo'ladi.

STEAM xalqaro baholash dasturi XX asrning 90-yillarida Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur mintaqa mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimiga ustuvor darajada tatbiq etilgan. Ushbu dasturning nomi inglizcha bo'lib, u quyidagilarni anglatadi:

S- science (tabiiy fanlar) ;

T- technology (texnologiya: mehnat va dizayn);

E- engineering (muhandislik);

A- art (san'at: ijod, musiqa va tasviriy san'at);

M- mathematics (matematika).

E'tibor berilsa, mazkur dastur fanlarning o'zaro aloqadorligiga asoslangan bo'lib, unda asosiy e'tibor amaliyotga qaratiladi. SHu jihatdan bu dastur asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda quyidagilarga erishiladi:

1) umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtirib borish;

2) mazkur ta'lim muassasalari o'quvchilarining ko'nikmasida zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay olish, ijod, musiqa va tasviriy san'at asoslarining mavjud bo'lishi;

3) ushbu ta'lim muassasalari o'quvchilarining malakalarida matematik tushunchalarning aniq tarkib topgan bo'lishi;

4) o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalana olish omillar bilan qurollantirish.

STEAM xalqaro baholash dasturida bugungi zamonaviy texnologiyalarga mos fanlarni o'zaro integratsiya tarzida o'qitishga asoslanadi. Ayni paytda ta'lim oluvchilarning erkinligi, ijodkorligi va faol bo'lishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Mazkur dastur bo'yicha 2014 yili Falastin mamlakatining Quddus shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferentsiyada quyidagilarni amalga oshirish uchun ushbu dasturga amal qiluvchi mamlakatlar kelishib olishgan:

1) barcha bolalarni STEAM dasturi asosida o'qitish;

2) imkon qadar o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish;

3) STEAM dasturining qizlarning aqliy, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos variantlarini ishlab chiqish;

4) o'quvchilarning fanlarni qiziqish va ixtiyoriylik bilan o'zlashtirishiga erishish.

Shu jihatdan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda mazkur xalqaro baholash dasturining quyidagi jihatlariga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

o'quvchilarga STEAM dasturi qamrab oladigan fanlarni chuqurlashtirilgan va integratsiyalashgan tarzda o'qitish bilan ularning bilim darajasining oshganligini aniqlash;

imkon qadar har bir o'quvchining ingliz tilini bilishiga e'tibor berish;

o'quvchi qizlarning faolligini aniqlash;

o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlari va intilishlariga e'tibor berish.

Diqqat qilinsa, mazkur xalqaro baholash dasturiga asoslanish o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakalarini keng ko'lamli tashxis etish imkoniyatiga ega bo'linadi. Eng asosiysi STEAM xalqaro baholash dasturi o'quv fanlarini o'zaro bog'liqlikda o'qitishi bilan muhim ahamiyatga ega. Chunki tabiiy fanlar, texnologik fanlar, ingliz tili va san'at fanlarining o'zaro bog'liqlikda o'qitish bilan o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini kutilgan darajada rivojlantirib borishga erishi mumkin.

Hozirgi zamon rivojlanish jarayoni texnik vositalarga asoslangan texnologiyalar asosida kechmoqda. Xorijiy pedagoglar kelgusida bilimli, texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasiga ega va ijodkor shaxslar dunyoning rivojlanishiga xizmat qiladi deb hisoblashadi.²⁴ Shu sababli 2011 yildan boshlab Osiyo mamlakatlari ham STEAM xalqaro baholash dasturini ta'lim tizimiga joriy etish va u asosda ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholashga keng ko'lamli darajada e'tibor bera boshladi. Misol uchun bu borada Xitoy davlati yetakchi hisoblanadi. Ayniqsa, Singapur davlati STEAM xalqaro dasturi asosida ta'limni amalga oshirish bilan 10 yil ichida ijodiylik, innovatsiya va dizayn markaziga aylandi. Shu sababli keyingi paytlarda Osiyo mamlakatlarida mazkur dasturga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu jihatdan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda STEAM xalqaro dasturining xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan tajribalariga ham e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman STEAM xalqaro ta'lim dasturi tabiiy fanlar va

²⁴ Qarang: STEAM mejdunarodnaya programma. // www.ziyounet.uz.

san'at fanlarining uyg'unlashgan tarzda o'qitish bilan shaxsni rivojlantirishga asoslanadi. 2009 yili mazkur dastur doirasida AQSHning Jon Xopkins universitetida Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) g'oyalariga asosan inson miyasi tadqiqotini o'tkazgan. Unda aniqlanishicha, inson miyasining chap shari ijodkorlik tuyg'usiga boyligi va o'ng shari esa tafakkur qilish tuyg'ulariga boyligi namoyon bo'lgan. SHu sababli olimlar tabiiy fanlar va san'at fanlarining uyg'un o'qitilishini o'quvchilarning jismoniy va aqliy jihatdan teng rivojlanishi uchun asos sifatida qabul qiladi.

Shunday qilib o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS, PISA va STEAM xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish metodikasi. O'zbekiston ta'lim tizimi muhim imkoniyatlarga ega. Shu jihatdan mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarining zamonaviy darajada texnologik jihatdan jihozlanganligi, mazkur ta'lim muassasalarida professional o'qituvchilarning faoliyat ko'rsatayotganligi va ta'lim bo'yicha milliy tajribaga ega ekanligimiz ta'limning mazkur bosqichini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining ijrosi doirasida umumiy o'rta ta'limga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tashxis natijalariga asosan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yanada rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur xalqaro dasturlar o'quvchilarning butun dunyo miqyosida hozirgi zamon talablari asosida bilimga ega bo'lishga yo'naltirilgan.

Pedagogik jarayonda ko'p hollarda an'anaviy metodlardan foydalaniladi. Chunki an'anaviy metodlar tajribadan o'tganligi, qulayligi, ommaviyligi va ko'pchilikka tushunarli ekanligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda an'anaviy metoddan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda, noan'anaviy metodlardan foydalanish ham kutilgan samarani beradi. Misol uchun, axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan holda ishlab chiqilgan noan'anaviy metodlar tezkorligi, qiziqarliligi va jalb etuvchanligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida tahlil qilib o'tilganidek, TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlaridan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda bizningcha, quyidagi *an'anaviy metodikaga* asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi. TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish uchun quyidagi tayyorgarlik bosqichlarini amalga oshirish kerak bo'ladi:

1) umumiy o'rta ta'lim maktablarini tanlash;

2) tanlangan maktablarda tashxis etish ishini amalga oshiruvchi o'quv fanlari o'qituvchilari, maktab jamoasi vakili, maktab psixologi va taklif etilgan mutaxassisdan iborat Guruh tuzish;

3) tuzilgan Guruh uchun kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida mazkur xalqaro baholash dasturlari asoslari bo'yicha malaka berish;

4) tashxis etish uchun ushbu xalqaro baholash dasturlari asosida maxsus test tuzish;

5) tashxis etish ishlarini amalga oshirish uchun texnik va texnologik tayyorgarliklarni ko'rish;

6) o'quvchilarni testga tayyorlash.

Bunday tayyorgarlik bosqichi mazkur xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish ishini amalga oshirish keng imkoniyatlarni beradi.

2. Tashxis etishni amalga oshirish. Guruh tanlangan o'quvchilar o'rtasida maxsus tuzilgan test asosida quyidagicha tashxis etish ishini amalga oshiradi:

- 1) maxsus jihozlangan sinfda testni o'tkazish;
- 2) test jarayoni uchun yetarli vaqt berish;
- 3) test jarayonida o'quvchilarning ishlashini kuzatish;
- 4) o'quvchilarning erkin ishlashi uchun imkoniyat berish;
- 5) test jarayonida o'quvchilarning savollariga javob berish;

6) test jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirib turish.

Tashxis etish ishini bunday amalga oshirish kutilgan samarani beradi va test davomida keng ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'linadi.

3. Tashxis natijalarini tahlil qilish. O'tkazilgan test natijalari quyidagicha tahlil etiladi:

1) test savollariga berilgan to'g'ri javoblarni aniqlash va ularni foizda ko'rsatish;

2) javoblar asosida o'quvchilarning matematik savodxonligi va tabiiy fanlar bo'yicha bilimdonlik darajasini aniqlash;

3) to'g'ri javoblar asosida o'quvchilarning fikrlash, ijodiy yondashish va bilim darajasini baholash;

4) javoblar natijasiga ko'ra har bir ishtirokchi o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasini baholash;

5) noto'g'ri javoblar natijasiga ko'ra o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

6) testda muvaffaqiyatli ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

Tashxis etish ishini bunday amalga oshirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining darajasi bo'yicha muhim ma'lumotlarni beradi.

4. Tashxis etish ma'lumotlari bilan ishlash. Guruh test ma'lumotlari asosida quyidagi ishlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) tashxis etish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni

o'quvchilarga taqdim etish;

2) ma'lumotlarni maktab Pedagogik kengashida muhokama qilish;

3) tashxis etish natijalari asosida ishlab chiqilgan Tavsiyalarni amalga oshirish chora-tadbirlarini Pedagogik kengashda belgilash;


4) tashxis etish natijalari bo'yicha Ma'lumotnomani O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etish;

5) bunday tashxis etish ishining navbatdagisini amalga oshirish Rejasini ishlab chiqish;

6) mazkur xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam o'tkazib borishni belgilash.

Bunday tashxis etish tahlilini amalga oshirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borish yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini beradi.

Etibor berilsa, mazkur metodikaga asosan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish qulay hisoblanadi. SHu jihatdan ushbu metodikaning tuzilmasiga etibor bering:



14-chizma. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini TIMSS hamda PISA xalqaro baholash dasturlari asosida tashxis etish metodikasi

Mazkur xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning *masofaviy* shakl asosida bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishning imkoniyati ham mavjud. Buning uchun kompyuter vositasida tashxis etish testi o'quvchilarga taqdim etiladi va tashxis etish ishi masofadan turib onlayn tarzda amalga oshiriladi. Tashxis etishga doir barcha ishlar va uning natijalari onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Zero, TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini tashxis etish metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Biz mazkur metodikani shakllantirishda quyidagi tamoyillarga asoslandik:

- 1) TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari mazmuniga hisobga olish;
- 2) qulaylik;
- 3) osonlik;
- 4) oddiylilik.

Bu tamoyillar taqdim etilgan metodikaning shakllanishida asos bo'ldi. SHu sababli o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlari asosida tashxis etish masalasida biz eng qulay metodikaga tayanish tarafdorimiz.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rganib borish;
- 2) xalqaro baholash dasturlari bo'yicha mutaxassislarning tavsiyalarini o'rganib borish;
- 3) xalqaro baholash dasturlari bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining tajribalarini oshirib borish;
- 4) oliy ta'lim muassasalarida hamda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida maxsus kurslar tashkil etish;
- 5) xalqaro baholash dasturlari bo'yicha malakali o'qituvchilarning tajribalarini ommalashtirib borish.

Bularga amal qilish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro dasturlar asosida tashxis etish metodikasini takomillashtirib borishga tayanch bo'ladi.


Shunday qilib o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlari asosida tashxis etishning an'anaviy metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Taqdim etilgan an'anaviy metodika tizimliliigi, osonligi va ommaviyligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini tashxis etishda mazkur an'anaviy metodikadan foydalanish kutilgan samarani beradi, degan fikrdamiz. Chunki bunday an'anaviy metodlar ko'pchilikka ma'qul ekanligi bilan pedagogik jarayonda muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish monitoringi. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida keyingi besh yil davomida ta'lim mazmunini chuqurlashtirish va yangilab borish jarayoni kechmoqda. Bunda o'quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar fanlarga bo'lib o'qitish amaliyotga kiritildi. Bu hol ishlab chiqilib, tajriba-sinovga taqdim etilgan yangi Milliy o'quv dasturimizda ham o'z ifodasini topgan. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim o'quv fanlarimizda TIMSS, PISA va STEAM xalqaro baholash dasturlarining asoslari aks etib bormoqda. Bunday sharoit o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ushbu xalqaro baholash dasturlari asosida tashxis etishning turli metodikalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqorida biz tomonimizdan tahlil etilgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning an'anaviy metodikasi hamda STEAM xalqaro baholash dasturi asosida tashxis etishning kompyuterli metodikasi ana shu maqsadda taqdim qilindi. Ayni paytda, ushbu xalqaro dasturlaridan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda uyg'un foydalanishna mo'ljallangan *individual metodika* tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning bilim,

ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS, PISA va STEAM xalqaro baholash dasturlaridan *uyg'un* foydalanish yanada samarali bo'ladi. Chunki bunday yondashuv o'quvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlari to'g'risida batafsilroq ma'lumot olish hamda ular bilan individual ishlash rejalarini belgilashda qo'l keladi. Buning uchun mazkur xalqaro baholash dasturlarining eng muhim tamoyillari tashxis etish test savollarida aks etishi kerak. Shu sababli biz tomonimizdan shakllantirilgan quyidagi individual metodika tuzilmasiga e'tibor bering:



15-chizma. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini TIMSS, PISA va STEAM xalqaro baholash dasturlaridan *uyg'un* foydalangan holda tashxis etishning individual metodikasi

E'tibor berilsa, mazkur metodikada quyidagi tamoyillarga asoslanilgan:

- 1) xalqaro baholash dasturlarining eng muhim mezonlari olingan;
- 2) mazkur mezonlar bo'yicha ishchi Guruh tomonidan test savollari ishlab chiqish tavsiya etilgan;
- 3) ishchi Guruh tomonidan tashxis etish natijalarining tahlil qilinishi va tavsiyalar ishlab chiqilishi taqdim qilingan.

Ushbu umumlashtirilgan individual metodika asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish bilan quyidagi imkoniyatlarga ega bo'linadi:

- a) har bir o'quvchining matematik savodxonligi bo'yicha aniq ma'lumotga ega bo'lish;
- b) har bir o'quvchining tabiiy fanlarni o'zlashtirishi bo'yicha axborot olish;
- v) har bir o'quvchining tafakkur darajasini aniqlash;
- g) o'quvchining ijodiy fikrlash darajasini o'rganish;
- d) o'quvchining faollik darajasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish;
- e) o'quvchining kommunikativlik (munosabatga kirisha olish) ko'nikmasini aniqlash;
- yo) o'quvchining hamkorlik ko'nikmasi darajasi bo'yicha axborot olish;
- j) o'quvchining mustaqil fikrlash darajasini aniqlash.

Bu mezonlar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish har bir o'quvchi bilan individual ishlash yo'nalishlarini belgilashda qo'l keladi. SHu sababli xalqaro baholash dasturlari *uyg'un*ligida ishlab chiqilgan ushbu individual metodikadan foydalanish tavsiya etiladi.

TIMSS, PISA va STEAM xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish bilan quyidagi imkoniyatlarga ega bo'linishini ta'kidlab o'tish joiz:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan o'quv fanlari darsliklarini takomillashtirib borish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quvchilarga qo'shimcha o'quv materiallari taqdim etib borish;
- o'quvchilarning har bir fan bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish;
- o'quvchilarning tabiiy va ilmiy tushunchalarini muntazam boyitib borish;
- aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha o'qitishning sinfdan tashqari shakllari imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- o'quvchilarni faollashtirish va ularni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma hamda malakalaridan amaliy foydalana olishga o'rgatish.

Shu sababli xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda qulay, oson va qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagog olimlar o'rinli ta'kidlab o'tishganidek, bunday xususiyatlarga ega metodlar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- 1) o'quvchilarning bilim olish ko'nikmasini talab darajasida shakllantirish;
- 2) o'quvchilarning tarbiya asoslariga kutilgan darajada ko'niktirib borish;
- 3) o'quvchilarning o'zlashtirgan malakalaridan kelgusida foydalana olishga o'rgatish.²⁵

Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlaridan foydalangan holda tashxis etish uchun *metodist-texnolog* bo'lish lozim. Metodist-texnolog bu ta'lim va tarbiya sohasidagi dolzarb yo'nalishlarni, mavzularni aniqlash, mavjud yutuq va kamchiliklarni hamda ularning hosil bo'lish sabablarini o'rganish, tahlil qilish va takliflar tayyorlashda keng tajribaga ega bo'lgan o'qituvchidir. SHu sababli o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlaridan foydalangan holda tashxis etuvchi o'qituvchilarning metodist-texnolog sifatidagi kompetentsiyasini tarkib toptirish taqozo etiladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida

²⁵ Qarang: Xasanboev J. Va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: "Fan va texnologiya". 2009. 310-bet


quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- talabalarga metodikalar majmui to'g'risida chuqur bilim berish;
- talabalarning metodik ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berish;
- imkon qadar har bir talabaning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashish layoqatini rivojlantirish;
- o'qitilayotgan fanlarning amaliy mashg'ulotlar qismlarini kengaytirish.

Bunday yondashish bo'lajak o'qituvchilarni metodist-texnolog sifatida tayyorlash imkonini beradi.

Shunday qilib o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlaridan foydalangan holda tashxis etishning individual metodikasi amaliyotga yo'naltirilganligi bilan muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega.



16-rasm. Xalqaro dasturlardan foydalanish asoslari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Xalqaro ta'lim dasturlarining mazmuni nimalardan iborat?

2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish metodikasi asoslari deganda nimani tushunasiz?

3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish monitoringi qanday amalga oshiriladi?

4. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish metodikasi asoslarini konspekt qiling.

12-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislardan foydalanish

Reja:

1. Mutaxassislar to'g'risida tushuncha
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda psixologning o'rni
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sosiologning o'rni

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, pedagogshika, konflikt, mutaxassis, psixolog, sosiolog, bartaraf etish, bilim, ko'nikma, malaka.

Mutaxassislar to'g'risida tushuncha. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish uchun omillardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan bu o'rinda mutaxassislar va ular bilan ishlash masalasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Mutaxassis – bu biror kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ig tajribalari orqali erishiladigan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar egasidir.²⁶ Shu jihatdan mutaxassis biror kasb yoki sohaning asoslari bo'yicha chuqurlashtirilgan nazariy bilimga ega bo'ladi. U kasb

²⁶ Хасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент, 2009. 358-бет.

bo'yicha ishlash ko'nikmasini egallagan bo'lib, faoliyatga tayyor hisoblanadi. Mutaxassisning malakasida uning ish tajribasi o'z ifodasini topadi. Shu sababli barcha kasb, hunar va sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash masalasiga har bir mamlakat alohida e'tibor beradi.

Mutaxassislar davlat ta'lim standartlari asosida, milliy malakalarga binoan maxsus tayyorlanadi va ular muayyan soha bo'yicha ma'lumotga ega kishi sifatida faoliyatga yo'naltiriladi. Mamlakatimizda yuzdan ortiq kasb va hunarlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Reyestriga asosan boshqarib boriladi. Mazkur jarayonning monitoringini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat statistika agentligi amalga oshirradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda pedagogik konfliktlar bo'yicha ham mutaxassislar tayyorlash jarayoni yo'lga qo'yilgan. Shu jihatdan pedagogik konfliktlar bo'yicha mutaxassislarining quyidagi turlari idrok etiladi:

- a) pedagog konfliktolog;
- b) psixolog konfliktolog;
- v) sosiolog konfliktolog.

Mazkur mutaxassislar o'zlarining umumiy va individual vazifalariga ega. Misol uchun, pedagog konfliktolog ta'lim va taryuiyajarayonidagipedagogikkonfliktlarnio'rganish,aniqlash, ularni bartaraf etish hamda monitoringini amalga oshirish vazifalarini bajaradi. Chunki ta'lim va taryubiya jarayonida o'z muddatiga ega pedagogik konfliktlar mavjud bo'ladi. Bunday konfliktlar ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning faoliyati asosida yuzaga keladi. Pedagog konfliktologning eng asosiy vazifasi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning metodikasini ishlab chiqishdir.

E'tibor berilsa, mutaxassis tushunchasi muhim ma'nolarni qamrab oladi va bu o'rinda asosiy e'tiborni pedagogik konfliktlar bo'yicha mutaxassislarga qaratish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda psixologning o'rni. Mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim

maktablarida psixolog mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagi 577-son Qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalaridagi psixolog xizmatning psixolog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan mazkur ta'lim muassasalarida psixologik muhit bo'yicha vazifalarni amalga oshiradi. Shu jihatdan psixolog mutaxassislar bilan boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha hamkorlik qilish muhim o'rin tutadi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) pedagogik konflikt mavjud o'quvchilar bilan pedagogik tadbirlarni amalga oshirish;
- b) boshlang'ich ta'limda mo'tadil psixologik muhitni ta'minlab borish;
- v) muntazam ravishda pedagogik konfliktogenlar bilan ishlash.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar o'tkinchi va muddatli xususiyatga ega bo'lsa ham ular bardavom hisoblanadi. Shu sababli maktab psixologi o'qituvchilar, sinf rahbarlari va ota-onalar bilan birgalikda pedagogik konflikt mavjud o'quvchilar bilan individual ishlash tadbirlarini amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda har bir o'quvchi bildan suhbat o'tkazish, ularda o'ziga ishonch va ruhiy ko'tarinkilikni paydo qilish, ularni qiynayotgan muammolarni o'rganish va bartaraf etish tadbirlari muhim hisoblanadi. Bu faoliyatda maktab psixologi o'quvchining huquqlari va makfaatlarini ustuvor qo'yishi shart.

Maktab psixologi muntazam ravishda boshlang'ich ta'lim jarayonida mo'tadil psixologik muhitni ta'minlab borishi kerak. Buning uchun o'qituvchilar va o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar, o'quvchilar va maktab jamoasi o'rtasida ruhiy jihatdan yuksak munosabatlarni tarkib toptirish amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda turli psixologik tadbirlar va metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Chunki yuksak darajadagi psixologiku muhitda pedagogik konfliktogenlar susayadi, ta'lim jarayonida ularning ishtirokchilari o'rtasida o'zaro ishonch

tarkib topadi. Shu sababli maktab psixologining boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha asosiy vazifasi mo'tadil psixologik muhitni ta'minlab borishdan iborat.

Diqqat qilinsa, maktab psixologi bilan hamkorlik boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning eng muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sosiologning o'рни. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish uchun mutaxassislar bilan hamkorlik muhim imkoniyatlarni beradi. Ana shunday mutaxassislardan biri sosiolog konfliktologdir.

Sotsiolog konfliktolog butun jamiyatda pedagogik konfliktlarning kelib chiqishi, uning omillari, sabablari, bartaraf etish yo'llari va istalmagan konfliktlarni oldini olish vazifalari bilan shug'ullanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sotsiolog konfliktolog bilan hamkorlik jarayonini tashkil qilishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarning ijtimoiy tabiatini aniqlash;
- b) boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarning ijtimoiy omillarini profilaktika qilib borish;
- v) boshlang'ich ta'limda mo'tadil ijtimoiy muhitni tarkib toptirish va uning barqarorligini ta'minlash.

Boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarning ijtimoiy tabiatini sotsiolog konfliktolog aniqlaydi. Unda konfliktlarning kelib chiqish ijtimoiy omillari, ijtimoiy jihatdan ko'lami va darajasi, ijtimoiy zarar keltirish ko'rsatkichlari masalalari aniqlanib, shundan keyin ularni bartaraf etish ishiga kirishiladi. Buning uchun sosiolog konfliktolog boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinf rahbarlari, maktab jamoasi va ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Natijada boshlang'ich ta'limda yuzaga kelgan pedagogik konfliktlarning ijtimoiy sabablari va tabiati to'g'risida aniq ma'lumotiga ega bo'linadi. Bu hol konfliktlarni bartaraf etish uchun muhim

tayanch vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarning ijtimoiy omillari sosiolog konfliktolog tomonidan profilaktika qilib boriladi. Unda mazkur muta'xassis o'qituvchilar va o'quvchilar hamkorligi, o'qituvchilar va ota-onalar hamkorligi hamda ota-onalar va maktab jamoasi hamkorligi masalalari o'rganilib, yuzaga keladigan tushunmovchiliklar va muammolarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim jarayonida konfliktlar bo'yicha o'ziga xos ijtimoiy profilaktik jarayon yuzaga keladi. Ijtimoiy profilaktik jarayon vositasida pedagogik konfliktlarni oldini olish yoki ularni yumshatish imkoniyatlariga ega bo'linadi.


Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim bosqichida o'ziga xos ijtimoiy muhit mavjud. Ayni paytda, ba'zida ota-onalarning ta'lim jarayoniga noo'rin aralashishi yoki o'qituvchilarni noto'g'ri tushunish natijasida boshlang'ich ta'limda ijtimoiy muhit murakkablashadi. Shu sababli sosiolog konfliktolog boshlang'ich ta'limda muntazam ravishda ta'limiy, tarbiyaviy hamda amaliy xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy tarkib toptirib borishi zaruriyat hisoblanadi. Bunda mazkur mutaxassis ijtimoiy muhimga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar yoki omillar bilan alohida tadbirlarni amalga oshiradi. Natijada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'ziga xos ijtimoiy muhitning barqarorligi ta'minlanadi va konfliktologlarning susayishi yuzaga keladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jamiyatimizda nodavlat ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritmoqda. Bunday ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim bosqichida pedagogik konfliktlarni o'rganish va bartaraf etib borish ishlarini pedagog, psixolog va sotsiologlar hamkorligida amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi.

E'tibor berilsa, sotsiolog konfliktolog bilan hamkorlik qilish boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarni kutilgan darajada bartaraf etishning eng muhim vositalaridan biridir.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik

konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mutaxassislik tushunchasini idrok etish, maktab psixologi va sotsiolog konfliktolog bilan hamkorlik qilish kutilgan samarani beradi.



17-rasm. Mutaxassislardan foydalanish asoslari

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Mutaxassislar to'g'risida tushunchani qanday idrok etasiz?
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda psixologning o'rni nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sosiologning o'rni qanday bo'ladi?
4. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha maktab psixologi va sosiolog konfliktolog bilan hamkorlik asoslarini konspekt qiling.

13-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining o'rni

Reja:

1. Sinf rahbarining funksional vazifalari
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining maqomi
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining ish hujjatlari

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, pedagogika, konflikt, o'quvchi, sinf, rahbar, bilim, ko'nikma, malaka.

Sinf rahbarining funksional vazifalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbarlari eng asosiy funksional vazifalarni bajaradi. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbari faoliyati to'g'risida"gi Nizomga asosan mazkur boshqaruv turi mutaxassislari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

a) ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil va muvofiqlashtirib borish;

b) o'qituvchilarga munosib shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlash va pedagogik yordam berish;

v) o'quvchilarning o'zlashtirganlik va tarbiyalanganlik darajasini o'rganib borish hamda nazorat qilish;

g) ta'lim va tarbiya jarayonida qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish va ularga mutaxassislarni jalb qilish;

d) sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etilishini nazortga olish;

ye) o'quvchilarning muammolari bo'yicha maktab rahbariyati bilan tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish va otanalar bilan ishlash.

Mazkur vazifalar sinf rahbarlarining mas'uliyati keng ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayoni va tarbiyaning sifati, o'quvchilarning o'zlashtirish

ko'rsatkichlarining yuqori yoki pastlik darajasi aynan sinf rahbarlarining faoliyatiga bog'liqdir. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limda o'ziga xos muhitning mavjudligini ta'minlash ham sinf rahbarlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu sababli sinf rahbarlarining boshlang'ich ta'lim jarayonida tutgan o'rni muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining maqomi. Boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sinf rahbarlarining maqomi muhimdir. Shu sababli mazkur masala bo'yicha quyidagilarga e'tibor berish lozim, unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilari:

a) har bir boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarni pedagogik konflikt nuqtai nazaridan muntazam kuzatib borish;

b) pedagogik konfliktlar paydo bo'lganida boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ularni bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish va nazorat qilish;

v) pedagogik konfliktlarning paydo bo'lish sabablarini va uning omillarini aniqlash;

g) boshlang'ich ta'lim jarayonida o'ziga xos pedagogik muhitni ta'minlash;

d) muntazam ravishda maktab jamoasi bilan hamkorlikda faol bo'lmagan va o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sinf rahbarlarining maqomi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ta'kidlanganlarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, agar boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar muntazam uchrasa va yashovchan xususiyatga ega bo'lsa, bunda boshlang'ich sinf rahbarlarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligi sabab hisoblanadi. Shu sababli sinf rahbarlarining imkoniyatlari va tajribalaridan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda

foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining ish hujjatlari. Mamlakatimizda pedagogik konfliktologiya muammolari bo'yicha tadqiqotlar endi yaratilmoqda. Shu sababli ko'pgina masalalar bo'yicha nazariy, metodik va amaliy mexanizmlar ishlab chiqilgan emas. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sinf rahbarlarining ish hujjatlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega va dolzarb bo'lib turibdi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf rahbarlarining pedagogik konfliktlarini bartaraf etish bo'yicha quyidagi ish hujjatlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarning xatti-harakati hamda ularning o'qituvchilar bilan munosabatini Kuzatib borish daftari;

2) boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan konfliktlarni toifalangan tarkibi bo'yicha Ma'lumot daftari;

3) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishga yo'naltiriladigan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va jalb qilinadigan mutaxassislar bo'yicha Ma'lumot daftari;

4) pedagogik konfliktlarni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha Hisobot daftari.

Mazkur ish hujjatlarini yuritish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki ish hujjatlari pedagogik konfliktlarni o'rganish, bartaraf etish va ularni oldini olib borish tadbirlarini tartibga solishi muhim me'yor hisoblanadi. Shu sababli mazkur hujjatlarni yuritish amaliy jihatdan keng imkoniyatlarni beradi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sinf rahbarlarining o'rni metodik va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida sinf rahbarlarining funksional vazifalarini chuqur o'zlashtirish, ularning maqomini keng idrok etish va pedagogik konfliktlar bo'yicha sinf rahbarining ish hujjatlarini yuritish ko'nikmasini egallash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriq:

1. Sinf rahbarining funksional vazifalari nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining maqomi deganda nimani tushunasiz?
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining ish hujjatlarini nimalar tashkil etadi?
4. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining ish hujjatlarini konfpekt qiling va o'zlashtiring.

Modul bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Umarova Z.A. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish.- Toshkent, 2021.
2. Jabborova O.M. Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023.
3. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2021.

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni o'zlashtirish

2-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni o'rganish metodologiyasi

3-mavzu: Boshlang'ich sinflarda konfliktogenlar bo'yicha trening

4-mavzu: Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish masalalari bo'yicha insho yozish va uning tahlili

5-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning hamkorlik texnologiyasini o'rganish

6-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning elektron-modulli texnologiyasi bo'yicha suhbat

7-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi bo'yicha trening

8-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muloqot texnologiyasi bo'yicha suhbat

9-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila bilan hamkorlik mexanizmlarini o'zlashtirish

10-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda jamoatchilik hamkorligi vositalarini o'rganish

11-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanishni o'zlashtirish

12-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislardan foydalanish bo'yicha referat tayyorlash

13-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining o'rnini bo'yicha trening

Mustaqil ta'lim

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi mavzular va topshiriqlar tavsiya etiladi:

1. "Konfliktologiya" tushunchasi mazmuni.
2. Konfliktologiya turlari.
3. Konfliktologiyani o'rganish zaruriyati.
4. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar muammosi.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlari.
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash.
7. Pedagogik konfliktli holat.
8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash.
9. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan konfliktli vaziyatlar bo'yicha ishlash.
10. Pedagogik konfliktogenlar tushunchasi.
11. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan konfliktogenlarni o'rganish metodikasi.
12. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktogenlarni aniqlashning ahamiyati
13. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish tushunchasi.
14. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishga doir yondashuvlar.
15. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodologiyasi.
16. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ota-onalar bilan hamkorlik.
17. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda maktab jamoasi bilan hamkorlik.
18. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislar bilan hamkorlik
19. Elektron-modulli texnologiyaning mazmuni.
20. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etish shakli.

21. Boshlang'ich . ta'limda - pedagogik konfliktlarni elektron-modulli texnologiya asosida bartaraf etishning samaradorligi.

22. Masofaviy texnologiya mazmuni.

23. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanish mexanizmlari.

24. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda masofaviy texnologiyadan foydalanishning ahamiyati

25. Kompyuterli texnologiya mohiyati.

26. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlari bartaraf etishda kompyuterli texnologiya tuzilmasi.

27. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlari bartaraf etishda kompyuterli texnologiyadan foydalanish samaradorligi.

28. Muloqot texnologiyasi mazmuni.

29. Boshlang'ichta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda muloqot texnologiyasidan foydalanish

30. Boshlang'ichta'limda pedagogik konfliktlari bartaraf etishda muloqot texnologiyasining samaradorligi.

31. Oila turlari.

32. Ota-onasiz boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konfliktlar bo'yicha ishlash.

33. "Mehribonlik uylari" Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan pedagogik konfliktlar bo'yicha ishlash.

34. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda yoshlar tashkilotlari bilan ishlash.

35. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mahalla tizimi bilan hamkorlik.

36. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik

37. Xalqaro ta'lim dasturlari.

38. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish metodikasi.

39. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish monitoringi.

40. Mutaxassislar to'g'risida tushuncha.

41. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda psixologning o'rni.

42. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda sotsiologning roli.

43. Sinf rahbarining funksional vazifalari.

44. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining maqomi.

45. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining ish hujjatlari.

46. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning professiogrammasi

47. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ilgor o'gituvchilarning tajribasi

48. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ilg'or maktablarning tajribasi

49. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oliy ta'lim muassasalarining tajribasi

50. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalq ta'limi tashkilotlarining tajribasi

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston tarqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022
2. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. – Toshkent, 2020
3. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – SPb.: Piter. 2001. – s 176.
4. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. Uchebnik dlya VUZov. – SPb.: "Piter" 2001. S 142-143. Qarang. Gessen S.I. Основы педагогики. – М., 1995
5. Jabborova O.M., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023
6. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2022
7. Миронов В. Век образования. – М.: "Педагогика". 1990.
8. Оконь В. Введение в общую дидактику. – М.: «Педагогика». 1990.
9. Umarova Z.A. Boshlang'ich sinfd\larda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – Toshkent, 2021
10. Karimjonov A. va boshq. Ta'lim muassasalarida me'yoriy hujjatlarni yuritish. – Chirchiq, 2022
11. www.ziynet.uz.
12. www.edu.uz.
13. www.pedagog.uz.
14. www.chdpu.uz.

Lug'at

Analog – lotincha so'z bo'lib, qiyoslash va maqbullashtirish ma'nosini anglatadi. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda olingan ma'lumotlar maktablararo, hududlararo va mamlakatlararo qiyoslanadi hamda bu jarayon analog ilmiy atamasi bilan yuritiladi.

Analiz – lotincha so'z bo'lib, tahlil va talqin ma'nolarini bildiradi. Pedagogik konfliktlar bo'yicha olingan ma'lumotlar chizmalar va jadvallar asosida tahlil qilinadi. Bu jarayon analiz atamasi bilan ataladi.

Bashorat – pedagogik konfliktlarni o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarga asosan ularning qayta takrorlanmaslik vositalari bashorat qilinadi. Bunday bashoratda asosiy e'tibor pedagogik konfliktlarning kelib chiqish sabablarini oldini olishga qaratiladi.

Bilim – pedagogik konfliktlar nazariyasi va metodikasi nuqtai nazaridan ta'lim beruvchilarning pedagogik konfliktlar bo'yicha tushunchaga ega bo'lishini anglatadi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik konfliktlar asoslari bo'yicha tushunchalarga ega bo'lishi bu boradagi bilim kompetensiyasiga egalikni bildiradi.

Vaziyat – pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishi uchun yoki ularning mavjudlik holatini bildiradi. Pedagog eng avvalo konfliktologik vaziyatlarni to'g'ri o'rganishi va baholashi kerak. Buning natijasida pedagogik konfliktlarni to'g'ri bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Vakansiya – pedagogik konfliktlar nuqtai nazaridan ular bilan maxsus shug'ullanish uchun shtat birligini ajratish ma'nosini anglatadi. Bugungi kunda sifatli ta'lim talablaridan kelib chiqib o'qituvchi yoki metodist pedagog konfliktologlar vakansiyalarini yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

Konflikt – lotincha bo'lib, ziddiyat, nizo va mojaro ma'nolarini anglatadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, pedagogik konfliktlar tushunchasini ziddiyatlar ma'nosida anglash maqsadga muvofiq bo'ladi.


Konkurensiya – lotincha so'z bo'lib, raqobat ma'nosini

bildiradi. Pedagogik konfliktologiyada muayyan ziddiyatlarni to'g'ri hal qilish bo'icha amalga oshiriladigan harakatlar majmui konkurensiya deb ataladi. Chunki pedagogik konfliktlar bilan ishlovchi har bir guruh o'zlarining faoliyat samaradorligini namoyon qilishga harakat qiladi.

Pedagogik konfliktlar – ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar, ta'lim oluvchilar va ota-onalar, ta'lim beruvchilar va ota-onalar, ta'lim oluvchilar va maktab jamoasi o'rtasida vaqtincha kechadigan ziddiyatlar majmuidir.

Pedagogik konfliktologiya – yangi fan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonidagi pedagogik konfliktlarni o'rganadi, tadqiq etadi hamda ular bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqadi. Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim muassasalarida mazkur fan o'qitilayotganligini eslatib o'tish joiz.

QAYDLAR UCHUN



Zuxra Umarova

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KONFLIKTOLOGIYA

*(60110500 - "Boshlang'ich ta'lim" bakalavr yo'nalishi
uchun Darslik)*

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 29.10.2023 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz. "Cambria"
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 8.37. Adadi
100 dona. Buyurtma № 1746224.

«Yangi chirchiq prints» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

